

BOLTAYEV M.J.

# MARKAZIY OSIYO IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI



Toshkent  
2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRILIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BOLTAYEV M.J.

# MARKAZIY OSIYO IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI

(DARSLIK)



Toshkent  
«Sarbon LLS»  
2024

**UO'K 911.5/9**

**KBK 26.8**

**B-80**

BOLTAYEV M.J. MARKAZIY OSIYO IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI. Darslik. – T.: "Sarbon LLS", 2024. 174 b.

**Ma'sul muharrir:**

**Maxmudov M.M. - g.f.f.d.**

**Taqrizchilar:**

**Nazarov M.I. - dos. (O'zMU).**

**Abdimurotov O.O. - g.f.f.d. (ChDPU).**

Mazkur darslikda Markaziy Osiyo davlatlarining tabiiy sharoiti va boyliklari, aholisi va mehnat resurslari, sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalarining geografik jihatlari yoritilgan.

Darslik geografiya, geografiya o'qitish metodikasi, geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lif yo'nalishlari talabalariga mo'ljallangan.

**UO'K 911.5/9**

**KBK 26.8**

**ISBN 978-9910-9027-7-2**

OZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY TA'LİM,  
FAN VA INNOVATİYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**AXBOROT RESURS MARKAZI**

## **KIRISH**

Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon va Murg'ob daryolari vodiylarida bizning asrimizgacha bir qancha qadimgi buyuk davlatlar bo'lgan. (Baqtriya, Marg'iyona, Xorazm, So'g'diyona va boshqalar). XVI asr boshlarigacha Markaziy Osiyodan Yevropa va Osiyoni tutashtirib turuvchi Buyuk Ipak Yo'li o'tgan edi. Keyinchalik dengiz yo'llarining ochilishi bilan Markaziy Osiyo hududidan o'tgan Buyuk Ipak Yo'li inqirozga yuz tutdi. Bu esa o'z navbatida Markaziy Osiyo davlatlarini tashqi bozordan uzib qo'ydi. XIX asr o'rtalariga kelib Markaziy Osiyoning boy tabiiy resurslari chet el kapitalistlarini o'ziga jalb qildi. Natijada Markaziy Osiyoni Rossiya o'z tarkibiga qo'shib oldi va o'zining xom ashyo bazasiga aylantirdi. Rossiya tomonidan Markaziy Osiyodan xom ashylarni olib ketish maqsadida Kaspiy orti, Toshkent-Orenburg temir yo'llari qurildi. Bu davrlarda Markaziy Osiyodan asosan paxta tolasi, qorako'l va pilla olib ketilar edi.

Oktyabr inqilobi natijasida 1918 yili Markaziy Osiyoda Turkiston Avtonom Respublikasi tashkil topdi. 1924-1925 yillardagi milliy bo'linishlar natijasida O'zbekiston, Turkmaniston ittifoqdosh respublikalari, Tojikiston, Qirg'iziston avtonom respublikalari tashkil etildi. Tojikiston 1929 yilda, Qirg'iziston, Qozog'iston esa 1936 yili ittifoqdosh respublika maqomini oldi va sobiq ittifoq tarkibiga kiritildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi 1936 yilgacha Rossiya tarkibida bo'lgan edi. 1936 yildan boshlab O'zbekiston tarkibiga qo'shildi. 1991 yil sobiq ittifoqning parchalanishi natijasida bu respublikalar mustaqil suverenitet respublikalarga ajralib ketdi.

Markaziy Osiyo Respublikalariga Qozog'iston va O'rta Osiyo respublikalaridan Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikiston hamda Qirg'iz respublikalari kiradi. Ularning hududi 3994,4 ming km.kv.ni (MDHning 18%), aholisi 80,1 mln (2023). kishini (MDHning 20% aholisini) tashkil etadi.

## 1. MARKAZIY OSIYONING RIVOJLANISH TARIXI

Osiyoning Oltoy tog'lari bilan Himolay tog'lari oralig'ida joylashgan bu qismi tabiiy sharoitining o'ziga xos ekanligini nemis olimi Aleksandr fon Gumbold qayd qilib o'tgan edi. U Markaziy Osiyo tushunchasini baland tog'lar bilan o'ralsan, okeanlardan uzoqda joylashgan va cho'l landshaftlari hukmron bo'lgan o'lka sifatida fanga kiritgan.

Bu hududni tadqiq etishga rus va sovet olimlari ayniqsa katta hissa qo'shishdi. Ular N. M. Prjevalskiydan boshlab Markaziy Osiyonni kompleks o'rganishdi. Bu tadqiqotlar hozirgi vaqtida ham davom ettirilayapti.

Markaziy Osiyoning chegarasi haqidagi masalada hozirga qadar ham yagona bir fikr yo'q. Uni o'rgangan yirik tadqiqotchilardan biri V. A. Obruchev Kunlunden shimoldagi cho'ldan iborat yassi tog'likni Markaziy Osiyo deb atagan va unga Tibet tog'ligini qo'shmagan. Boshqa tadqiqotchilar Tibetni Markaziy Osiyoning bir qismi deb hisoblaydilar, lekin Tibet tog'lining asl Markaziy Osiyodan farq qilishini ko'rsatib uning o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlaydilar.


Markaziy Osiyoning shimoliy va g'arbiy chegaralarini turli tadqiqotchilar turlicha o'tkazadilar. E. M. Murzaev Markaziy Osiyoga SSSR chegaralaridan janub va sharq tomonlarda joylashgan yassi tog'lik va tizma tog'larni kiritadi. V. M. Sinitdin Markaziy Osiyoga Osiyoning suvi tashqariga oqib chiqib ketmaydigan butun ichki rayonlarini kiritadi va shunday qilib, uning tarkibiga O'rta Osiyoning ham ayrim rayonlarini (masalan, Sharqi Pomirni) qo'shadi, lekin Mongoliyaning Shimoliy Muz va Tinch okeanlar havzasiga qarashli shimoliy qismlarini Markaziy Osiyoga kiritmaydi.

Markaziy Osiyo uchun tabiatining bir butunligi xosdir. Bu esa uning geografik o'rni hamda landshaftlarining tarkib topish tarixi xususiyatlarining natijasidir. Bu hududni mezozoym erasi o'rtalaridan buyon dengiz bosmagan va u yer yuzidagi

quruqlikning eng qadimgi qismlaridan biri hisoblanadi. Markaziy Osiyoning yer yuzasi palaxsali, to'rsimon katalak tuzilishga ega. Bir necha marta qayta tiklangan tektonik harakatlar ana shunday tuzilishni hosil qilgan. Bu hudud rel'efining umumiyl xususiyatlari yangi tektonikaning juda katta rol o'ynaganiga, denudatsiya jarayonlarining kuchsiz rivojlanganiga, struktura shakllarining keskin ifodalanganligiga va tekislangan yuzalarining ko'p tarqalanganligiga bog'liqdir. Okeanlardan uzoqda joylashganligi va hamma tomonidan baland tog'lar bilan to'silganligi iqlimning kontinental va quruq bo'lishiga, yer usti suvlarining tartibsiz ekanligiga hamda cho'l, chala cho'l va dasht landshaftlarining rivojlanganligiga sabab bo'lgan.

Shu bilan birga o'lkaning rivojlanish tarixi davomida chekkadagi tog'lar ko'tarilgan sari iqlimning aridliligi kuchayib borgan. Oxirgi muz bosish davrida ham Markaziy Osiyo hozirgiga qaraganda anche sernam, erosion tarmoqlari (shoxobchalar) rivojlangan va yirik oqar ko'llari ko'p bo'lgan. Hozirgi sharoit muzlik davridan keyingi kserotermik davrda Himolay va Tibet tog'larining ko'tarilishi hamda Hind okeani tomonidan sernam havo oqimlarining kirib kelishi to'xtashi natijasida qaror topdi.

Markaziy Osiyoning qurg'oqchillashib borishi hozirgi davrda ham davom etayaptimi yo'qmi degan masalada hozirgacha yagona bir fikr yo'q. E. M. Murzaev, K. K. Markov va boshqa bir qancha tadqiqotchilar Markaziy Osiyoning qurg'oqchillashishi kserotermik davr oxiriga kelib to'xtadi va hozirgi vaqtida namlikning bir oz ko'payishi kuzatilmogda deb hisoblaganlar. V. M. Sinitdin fikriga ko'ra Markaziy Osiyoning qurg'oqchillashishi hozirgi zamonda ham davom etyapti.



**Markaziy Osiyoning tipik landshafti.  
(A. Fedorovich fotosi).**

Hududning qadimiyligi, uzoq davom etayotgan qurg'oqchillik, o'lkanning mo'tadil hamda subtropik mintaqalarda joylashganligi Markaziy Osiyoda tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining tarkib topishi uchun o'ziga xos sharoit yaratgan. Markaziy Osiyo dunyoda tuprog'ini tuz qoplagan va bo'z hamda bo'z-qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan eng katta o'lkdir. O'simlik va hayvonlar uchun uzoq vaqt davomida arid sharoitga, temperaturaning keskin o'zgarishiga, suvning kuchli darajada minerallashganiga moslashish xosdir. O'simliklar orasida qumda, toshloq va sho'r yerlarda o'suvchi o't va butalar ko'pchilikin tashkil qiladi. Hayvonlardan tuyoqlilar, kemiruvchilar va sudralib yuruvchilar keng tarqalgan.

Markaziy Osiyo turli joylari tabiiy sharoit o'xshashligining Osiyoning boshqa qismlaridagiga qaraganda ancha aniq ifodalanganligiga qaramay, uni tabiiy geografik o'lkalarga ajratishga asos bo'ladigan anchagina tafovutlar ham mavjud. Bu oblastlardan birinchisi Sibir bilan chegaradosh bo'lgan Shimoliy Mongoliyaning tabiiy xususiyatlari Markaziy Osiyoga qanchalik yaqin bo'lsa, Shimoliy Osiyoga ham shunchalik o'xshashdir. Bu o'lna oraliq xarakterga ega. Janubiy Mongoliya va Shimoliy Xitoyning cho'ldan iborat yassi tog'liklariga, shuningdek,

shimoli-g'arbiy Xitoyning tog'lari hamda soyliklariga ham Markaziy Osiyoning tipik tabiiy xususiyatlari xosdir.

## **1.1 TABIIY SHAROITI**

Markaziy Osiyo davlatlari hududi tabiatni nihoyatda xilmag'il bo'lib tekislik, tog'lik, cho'l va chala cho'l lanshaftlardan iborat. Mintaqada Pomir, Oloy, Tyan-Shan kabi tog' tizmalar joylashgan. Bu tog'larda MDH davlatlarining Ismoil Somoniq, G'alaba, Xontangri kabi balandligi 7000 m dan ortadigan cho'qqilari ko'p. Shuningdek Markaziy Osiyoda past tekisliklar va botiqlar ham ko'p uchraydi. Markaziy Osiyoning eng past cho'kmasi Qoragiyo (Botir) botig'i bo'lib, u dengiz sathidan -132 m pastda joylashgan.

Tog'larda katta muzliklar ham uchraydi. Ayniqsa Fedchenko va Inelchek muzliklari alohida ahamiyatga ega. Tog'lardagi muzliklardan ko'plab daryolar boshlanadi.

Mintaqaning tog'li va tog' oldi zonalari o'zining seysmik aktivligi bilan ajralib turadi (Andijon zilzilasi 1902 y, Ashxobod-1948, Toshkent 1968 va boshqalar shular jumlasidandir).

Markaziy Osiyoning g'arbiy qismida va shimolida Kaspiy bo'yli va Turon past tekisligi joylashgan bo'lib, uning katta qismi Qoraqum va Qizilqum cho'llari bilan band. Mintaqalarda iqlimi keskin kontinental, sovuqsiz kunlar 200-240 kunga to'g'ri keladi. Vagitatsiya davrining uzoqligi hamda havo haroratining yuqoriligi janubda ingichka tolali paxta, shimolda esa erta pishar paxta yetishtirishga imkon beradi. Paxtachilik Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi dehqonchiliklaridan hisoblanadi.

Yog'in miqdori cho'llarda 50 mm dan tog' oldida 300-400 mmga yetadi. Ayrim joylarda esa 700-800 mmni tashkil etadi. Mintaqada daryolarining ko'pchiligi kam suvli bo'lib, berk havzaga kiradi. Sug'orishda ishlataladigan daryolari Amudaryo, Sirdaryo, Tajik, Murg'ob, Chuy va boshqalardir. Sug'oriladigan

yerlar shu daryolar vodiylari hisoblanadi. O'lkaning katta tekislik qismida oqar suvlar yetishmaydi. Shu bilan birga mintaqalarda gidroenergetika resurslariga boy. MDH davlatlari orasida gidroenergetika resurslari bo'yicha Rossiyadan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Gidroenergetika resurslari bo'yicha Tojikiston va Qirg'iz Respublikalari Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinda turadi.

Keyingi o'n yilliklar davomida Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyoti dunyoning eng yaxshi iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishib, xorijiy sarmoyalarning yangi to'lqinlarini faol jalg qilib kelmoqda. Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari bundan 25-30 yil oldingi holatidan ham ijtimoiy iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan tubdan farq qiladi. Shu davr mobaynida hudud davlatlarida huquqiy-demokratik davlat barpo etish yo'lida keng ko'lamli ishlar, milliy iqtisodiyotida tuzilmaviy o'zgarishlar amalgalashirildi va uni modernizatsiya qilish jarayonlari davom etmoqda. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi, integratsiya jarayonlarning kuchayishi, innovatsiyalarining jadal rivojlanishi milliy iqtisodiyot oldiga xalqaro raqobatbardoshlikka erishish va jahon bozorida mustahkam mavqega ega bo'lish vazifalarini qo'yemoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari raqobatbardoshlik darajasini tahlil qilishda hududning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- Yevropa va Osiyo mintaqalari tutashgan joyida dinamik rivojlanayotgan hudud;
- hudud atrofi iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan Xitoy va Hindiston mamlakatlari bilan chegaradosh;
- keng energetika resurslariga ega hudud;
- katta qishloq xo'jaligi salohiyatiga ega hudud;
- tarixan aholi savodxonligining keng qamrovlligi;
- hudud madaniyatining o'xshashligi;
- hudud xalqlarining yagona til turkumida gaplashishi;
- bir-birini o'zaro to'ldiruvchi iqtisodiyot;

- o'zaro rivojlangan transport infratuzilmasining mavjudligi;
- umumiy chegaranining mavjudligi.

## 1.2. MARKAZIY OSIYODA BUYUK IPAK YO'LNING AHAMIYATI

Qadimgi xalqlarning turli tomonlama rivojlanishida savdo va tranzit yo'llarning ahamiyati nihoyatda kattadir. Miloddan avvalgi III ming yillikka kelib, O'rta Osiyoning ko'pgina hududlari qadimgi aholi tomonidan o'zlashtirib bo'lingan edi. Cho'l va dasht hududlardagi ko'chmanchi chorvador aholi yohalardagi o'troq aholi bilan o'zaro aloqalarni bronza davriga kelib yanada rivojlantiradilar. Tarixiy adabiyotlardan ma'lum bo'lishicha, Buyuk ipak yo'li tashkil topmasdan ancha ilgariyoq Qadimgi Sharq va O'rta Osiyo hududlarida o'zaro almashinuv yo'llari mavjud edi.

Bronza davridagi (mil. avv. III-II ming yilliklar) anashunday yo'llardan biri «Lojuvard yo'li» deb atalib, uning bir tarmog'i Badaxshon, Baqtriya va Marg'iyona hududlarini Xorazm, So'g'd, Markaziy Qozog'iston va Ural bilan bog'lagan. Yana bir tarmog'i esa, Baqtriya va Marg'iyonani Mesopotamiya bilan bog'lagan. Bu yo'l Pomir tog'laridan boshlanib, Eron, Old Osiyo, Misr orqali o'tgan. Badaxshon Lojuvardining Hind vodiysi, Mesopotamiya va Misrdan topilishi bu qimmatbaho toshning Qadimgi Sharqda nihoyatda qadrlanganligidan dalolat beradi.

Qadimgi yo'llardan yana biri, Eron ahmoniyalarining yo'li bo'lib, bu yo'lning bir tarmog'i miloddan avvalgi VI - IV asrlarda kichik Osiyo shaharlarini hamda O'rta Yer dengizi bo'yidagi Efes, Sardi shaharlarini Eronning markazlaridan biri Suza bilan bog'lagan bo'lsa, yana bir tarmog'i Eron-Baqtriya orqali So'g'diyona, Toshkent vohasi va Qozog'iston hududlaridan o'tib Oltoygacha borgan. Tarixiy adabiyotlarda bu yo'l «shoh yo'li» deb ataladi.

Miloddan avvalgi 138 yilda Xitoy imperatori U-Di Chjan Syanni O'rta OSIYO yerlariga jo'natadi. Elchi Chjan Syan (mil. avv. 138-126 yillarda) Xitoyning xunnlarga qarshi kurashi uchun ittifoqchi izlab kelgan edi. Miloddan avvalgi II - I asrlarga kelib, Chjan Syan yurgan yo'llarda Xitoyni O'rta va G'arbiy Osiyo bilan bog'laydigan karvon yo'li paydo bo'ladi. Bu yo'l Buyuk ipak yo'li deb atalib, umumiy uzunligi 12 000 km dan iborat edi. Ilk o'rta asrlarga kelib, Ipak yo'lining yanada rivojlanganligini kuzatish mumkin. O'z davrida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan bu yo'lning dastlabki tarmog'i Xitoydag'i Sian shahridan boshlanib, Sharqi Turkiston, O'rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya orqali O'rta Yer dengizgacha cho'zilgan. Xitoyning Anosi shahriga kelib, Ipak yo'li bir necha tarmoqlarga bo'linib ketgan. Xususan bir tarmoq Anosi-Xami-Qoshg'ar orqali Qo'qonga, undan esa Toshkentga o'tgan. Bu yerdan Jizzax va Samarqand orqali Buxoroga kelgan yo'l Urganch orqali Gurevga, u yerdan Oqsaroy orqali Qora dengiz bo'yalariga chiqqan. Yana bir tarmoq esa Dunxuan orqali Xo'tanga, undan Loxurga o'tib ketgan.

Undan tashqari Buxoroga kelib, bu tarmoq ikkiga bo'lingan. Janubiy yo'nalish Buxoro-Qarshi-Termiz orqali Nishopurga o'tgan va Hirot orqali Hindistonga o'tib ketgan. Nishopurdagi tarmoqlardan biri Tehron-Qazvin-Hamadon-Bog'dod-Palmira yo'nalishi bo'ylab O'rta Yer dengizi bo'yidagi Tir shahrigacha cho'zilgan. Umuman olganda Ipak yo'lining janubiy tarmog'i O'zgan orqali O'shga o'tib, Quva - Marg'ilon - Qo'qon orqali Xo'jand, Samarqand, Buxoroga o'tgan. Shimoliy yo'nalishi esa, Xazar xoqonligi va Bulg'or davlati orqali Kiev Rusi va Yevropa mamlakatlariiga borib, bu tarmoq VI asrdan boshlab rivojlana boshlagan. Ipak yo'lining asosiy karvon yo'llaridan tashqari ichki savdo yo'llari ham mavjud edi.

Buyuk ipak yo'li bo'ylab ko'plab karvonsaroylar, shaharlar barpo etildi. Bu yo'ldan borayotgan savdogarlar ko'pincha yo'lning oxirigacha bormas edilar. O'rta Osiyo viloyatlari bu yo'lning o'rtasida joylashganligi sababli savdogarlar Xorazm,

Samarqand, Termiz va boshqa hududlarda o'z mollarini sotib, mahalliy mahsulotlarni xarid qilar edilar. O'rta asrlar O'rta Osiyo bozorlarida chetdan keltirilgan ko'plab mahsulotlar mavjud ediki, hozirgi kunda ipak yo'li ustidagi ko'hna shaharlar va manzilgohlardagi arxeologik qazishmalar natijasida topilayotgan topilmalar fikrimizning dalilidir.

Miloddan avvalgi II asrda paydo bo'lib, milodning XVI asriga qadar faoliyat ko'rsatgan Buyuk ipak yo'li shu davr ichida Sharq va g'arb xalqlarining keng miqyosidagi o'zaro madaniy va iqtisodiy aloqalar tarixida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu yo'l orqali aloqalar qilgan qadimgi xalqlarning o'zaro hamkorlik, almashinuv va madaniyatlarining boyib borishi, tinchlik va taraqqiyot uchun asos bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston hududlari bu yo'lning chorrahasida joylashgan bo'lib, bu yerga turli mamlakatlardan savdogarlar, hunarmandlar, olimlar va me'morlar tashrif buyurganlar.

YUNESKO tomonidan «Buyuk ipak yo'li-muloqot yo'li» dasturining ishlab chiqilishi Yevroosiyodagi 30 dan ortiq yetakchi davlatlarning 2000 yilga qadar ilmiy-madaniy faoliyati uchun yo'nalish bo'ldi. Respublikamiz hududlarida ham ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etildi. Buning natijasida ko'pgina tarixiy-madaniy obidalar o'rganildi, qadimgi yo'llar va yo'nalishlar aniqlandi, milliy va ma'naviy boyligimiz hamda an'analarimiz o'rganildi. Juda ko'pchilik tadqiqotchilar ishtirok etayotgan «Buyuk ipak yo'li-muloqot yo'li» dasturining asosiy vazifasi Sharq va arab xalqlari o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatgan hamda rivojlantirgan bu yo'lni xalqlarning birodarlik, o'zaro hamkorlik va samimiyl muloqot yo'liga aylantirishdan iboratdir.

### **1.3.TABIY BOYLIKLARI**

Markaziy Osiyo tog'lari va tekisliklarining geologik tuzilishi ancha murakkab bo'lib, bu yerlarda ko'plab rudali va rudasiz foydali qazilmalar bor. Neft konlari asosan Kaspiy bo'yи past tekisligida, Farg'ona, Surxondaryo, Qashqadaryo vodiylarida, Tojikistonning tog' oralig'i botiqlarida ko'plab topilgan. Asosiy konlari Turkmanistonning g'arbiy qismida (Cheleken, Qumdog', Okarem), Qozog'istonda (Jetiboy, Uzen, Yangi Uzen), O'zbekistonda (Qorovulbozor, Ko'kdumaloq) joylashgan. Qirg'iz va Tojikiston Respublikalarida neft konlari zahiralari nisbatan kam. Gaz konlari Turkmanistonda, O'zbekistonda va Qozog'istonda ko'p. Turkmanistonning deyarli barcha viloyatlarida (Toshovuzdan tashqari) gaz konlari topilgan. Qozog'istonda ko'proq Kaspiy bo'yida, O'zbekistonda esa Buxoro va Qashqadaryo viloyatlari hududlarida yirik gaz konlari joylashgan. Turkmaniston gaz qazib chiqarish bo'yicha MDH davlatlari orasida Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Ko'mir Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iz Respublikalari hududlarida topilgan. Ayniqsa Qozog'istondagi Qarag'anda, Ekipastuz, To'rg'ay ko'mir havzalari eng yirikligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston hududidagi Angren ko'mir koni, Qirg'iz Respublikasidagi Toshko'mir, Ko'k yong'oq konlari ham muhim ahamiyatga egadir.

Bundan tashqari mintaqaga hududida rangli metallar ham ko'plab topilgan. Qozog'iston rangli metall rudalari bo'yicha yetakchi o'rinda turadi. Yirik mis konlari Jezqazg'an, Qo'ng'iroq, Bo'zshakal va boshqalardir. Polimetall rudalari Oltoyda, alyuminiiy xom ashyolari esa Kustanayda topilgan.

O'zbekistonda mis konlari Olmaliqda, oltin konlari Qizilqumda, volfram, molibden Olmaliqda topilgan. Simob, surma qazib chiqarish bo'yicha Qirg'iz Respublikasi oldingi o'rnlarda turadi.

Qora metallar Markaziy Osiyoda asosan Qozog'istonning shimoli-g'arbida Mug'ojar tog'larida topilgan. Qozog'iston Respublikasi temir rudasi bo'yicha MDH davlatlari orasida Rossiya va Ukrainadan keyin uchinchi o'rinda turadi.

Mintaqakimyoviyxomashyolargahamboy.Qozog'istonning Jambul va Qoratovida, O'zbekistonda Qizilqumda yirik fosforit konlari topilgan. Turkmaniston va Qozog'istonning Kaspiy bo'yи past tekisliklarida, Orol bo'yida yirik mineral tuzlari konlari topilgan.

Markaziy Osiyo davlatlari rekreatsion resurslarga boyligi bilan ham ajralib turadi. Bu yerlarda ko'plab qadimgi arxitektura yodgorliklari saqlanib qolgan. Bular o'z navbatida sayyoqlik ishlarini rivojlantirishni talab etadi. Hozirgi paytda tog' yonbag'ilarda, daryo, ko'l va suv omborlari bo'ylarida ko'plab dam olish maskanlari ishlab turibdi.

## 2. MARKAZIY OSIYO AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI



Markaziy Osiyo xalqlari.

Markaziy Osiyo davlatlarida 80,1 mln.dan ortiqaholi (2023) istiqomat qiladi. Ulardan 36,6 million kishi O'zbekistonda, 10,01 million Tojikistonda, 7,0 million Qirg'iz Respublikasida, 20 mln Qozog'istonda va 7,8 millionga yaqin kishi Turkmanistonda yashaydi. (MDH aholisining 20 foizi). Aholi zichligi o'rtacha 1 km<sup>2</sup>ga 19,8 kishini tashkil etadi (2023).

Ko'rinib turibdiki O'zbekiston Markaziy Osiyodagi aholisi eng ko'p mamlakat hisoblanadi. 1989 yilda aholini ro'yxatga olinganda 19,0 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, 1990 yilda respublika aholisi 20,2 mln, 2000 yilda 24,5 mln, 2010 yilda 28 mln, 2020 yilda 33,9 mln kishini tashkil etgan. Hozirgi paytda respublika aholisi 36,6 mln. kishini tashkil etmoqda. 36,6 mlndan 18,2 mln nafari ayollar, 18,4 mln nafar erkaklarga to'g'ri keladi Doimiy aholi tarkibida erkaklar soni ayollar sonidan 246 ming kishiga ko'p. Aholining 57 foizi mexnatga layoqatli yoshdagilar, 32 foizi mexnatga layoqatli yoshdan kichiklar va 11 foizi keksalar hisoblanadi. O'zbekistonda o'rtacha umar

ko'rish 74,3 yoshni tashkil etadi. Bu ko'rsatgich ayollarda 76,6 yosh, erkaklarda 72,1 yosh.

Qozog'istonda mustaqillikdan keyin demografik vaziyat biroz boshqacha bo'lgan. Respublika aholisi 1987 yilda 16 milliondan oshgan edi. 1994 yilgacha aholi ko'paymadni va bir xilda turdi. Ya'ni mamlakatdan ko'p sonli ruslar, nemislar, chechenlar va boshqa millat vakillari ko'chib ketgan bo'lsa, ularning o'rniga Rossiya, Mongoliya, Xitoy, Qirg'iz Respublikasi, O'zbekiston va Turkmanistondan ko'plab qozoqlar ko'chib kelishdi. Shu tariqa aholi soni o'smagan bo'lsa ham muvozanat saqlandi. Biroq 1995 yildan boshlab aholi soni negadir keskin kamaya boshlandi. 1999 yilga kelib mamlakatda aholi soni 14 mln.ga tushib qoldi. Besh yil davomida aholi soni umuman ko'paymadni.

2004 yildan boshlab odamlar soni juda past ko'rsatgich bilan o'sa boshladi. 2010 yilga kelib 1987 yilgi natija, 16 millionik marra qayta zabit etildi.

Shundan so'ng mamlakat aholisi kichchik farq bilan bo'lsada ortib bora boshladi. Jumladan, 2013 yilda 17 mln, 2017 yilda 18 mln, 2021 yilda 19 mln nafardan oshdi. 2023 yil 16 noyabr kuni mamlakat prezidenti Qozog'iston aholisi soni 20 mln nafarga yetganini e'lon qildi. Aholi soni bo'yicha Qozog'iston dunyo davlatlari orasida 62 - o'rinni egallaydi.

Qozog'iston aholisining 10 millondan ortig'i ayollar, qariyb 10 mln. nafarini erkaklar tashkil etadi. Ayollar erkaklarga nisbatan 400 ming nafarga ko'p.

Qozog'istonda o'rtacha umr ko'rish 74,4 yoshni tashkil etadi. Shundan ayollarda 78,4 yosh, erkaklarda 70,2 yosh.

Qozog'iston hududi juda katta. Shu sababli bu yerda aholi zichligi uncha yuqori emas. Mamlakat bo'yicha o'rtacha 1 kilometr kvadratga 7,3 nafar odam to'g'ri keladi.

Markaziy Osiyoda aholi soni bo'yicha uchinchi o'rinda Tojikiston turadi. Respublika hududining 93 foizi tog', qir va adirliklarda, 7 foizi esa tekislikda joylashgan. Mamlakatda uy-

joy qurib, joylashish noqulay bo'lsa ham Tojikistonda aholi soni yuqori dinamika bilan o'sib kelyapti.

1992 yilda Tojikistonda fuqarolar urushi boshlandi va u 1997 yilgacha davom etdi. Shu jarayonda mamlakatda yashovchi rusiyabon aholining ko'pchiligi xorijiy davlatlarga ko'chib ketdi.

Mahalliy xalq vakillaridan ham bir qismi Rossiyaga, O'zbekistonga ko'chib o'tgan. Shunday bo'lsa ham Tojikiston aholisi keskin oshish dinamikasini ko'rsatib kelmoqda. Jumladan, 1991 yilda Tojikiston aholisi 5,3 mln kishi bo'lgan. 1998 yilda aholi soni 6 mln nafardan oshgan. 2007 yilga kelib 7 mln bo'lgan. 2014 yilda 8 mln, 2019 yilda 9 mlndan tashkil etgan, mamlakatda aholi soni 2023 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, 10 mlndan oshgan.

Tojikistonda aholi ancha zinch joylashgan. Bu yerda 1 kilometr kvadrat hududga 70,7 kishi to'g'ri keladi. Tojikiston aholi soni bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida 93-o'rinda joylashgan.

2023 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, Tojikiston aholisining 5 mln 124 ming naifarini ayollar, 4 mln 954 ming naifarini erkaklar tashkil etadi.

1991-2023 yillar orasida Tojikiston Markaziy Osiyo respublikalari orasida aholi soni o'sishi bo'yicha 1-o'rinda turadi.

1991 yil SSSR tarqab ketish arafasida Qirg'iziston aholisi 4,4 mln kishi bo'lgan. O'sha paytda bu respublikadan ham juda ko'p rusiyabon aholi ko'chib keta boshlagan.

Aholi soni 5 mlnga yetishi uchun bu davlatga 13 yil kerak bo'ldi va 2004 yilda bu marra zabit etildi.

Oradan 12 yil o'tib, 2016 yilda Qirg'iziston aholisi 6 mln bo'ldi. 2023 yilda esa 7 mlndan oshdi. Hozirda bu davlatda 7 mln 37 ming aholi bor. Mamlakatda 1 kilometr kvadrat hududga 34,5 kishi to'g'ri keladi.

2023 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, Qirg'iz Respublikasi

aholisining 3,6 mln nafardan oshiqrog'i ayollar, 3,4 mln nafardan ko'prog'ini erkaklar tashkil etadi.

Markaziy Osiyoning boshqa respublikalari kabi Qirg'iz Respublikasida ham aholi yuqori dinamika bilan ortib bormoqda. Shu sababli 2050 yilgacha mamlakat aholisi 10 mlndan oshishi taxmin qilinmoqda.

Turkmanistonda 1991 yilda 3,7 mln aholi istiqomat qilgan. Markaziy Osiyoda aholi soni bo'yicha tuzilgan ro'yxatda Turkmaniston Qirg'iz Respublikasi bilan bir qatorga joylashgan. Biroq bu davlat ko'p yillardan beri mamlakat aholisi sonini ochiqlamay kelmoqda.

2023 yil iyul oyida mamlakat raxbari 2022 yilda Turkmanistonda o'tkazilgan aholi ro'yxatga olish ishlarning yakuni bo'yicha aholi sonini ochiqlagan. Unga ko'ra, 2022 yil dekabr holatiga ko'ra Turkmanistonda 7 mln 57 ming aholi yashaydi. Boshqa manbalarda Turkmaniston aholisi 6,3 mln nafardan oshgani keltirilgan.

Turkmanistonda ham erkaklar sonidan ayollar soni ko'p. Jumladan mamlakat aholisining 51 foizini ayollar, 49 foizini erkaklar tashkil qiladi.

Aholining o'rtacha umr ko'rish yoshi 68,5 yosh. Bu ko'rsatgich erkaklarda 65,6 yosh, ayollarda 71,6 yoshga to'g'ri keladi.

Turkmaniston aholi soni bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida 114-o'rinda joylashgan. Bu yerda aholi zichligi 1 kilometr kvadrat hududga 12,9 nafer odam to'g'ri keladi.

Markaziy Osiyoda aholinig zichligi hududlar bo'yicha juda xilma-xil bo'lib, cho'l va tog'li mintaqalarda 1 km<sup>2</sup>ga ikki kishidan, daryo vodiylarida 300-400 kishiga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich mamlakatlar bo'yicha ham bir biridan farq qiladi: O'zbekistonda 1 km<sup>2</sup>ga 80,1 kishi, Tojikistonda 70,7 kishi, Qirg'iz Respublikasida 34,5 kishi bo'lgan holda Turkmanistonda 12,9 kishi, Qozog'istonda esa 6,9 kishi to'g'ri keladi.

Markaziy OSIYOdagi aholi eng zinch yashaydigan hudud  
AXBOROT RESURS MARKAZI

Andijon viloyati bo'lib, bu yerda 1 km<sup>2</sup>ga 516 kishidan to'g'ri keladi. Markaziy OSIYO aholisi tog' oldi, tog' oralig'i botiqlarida vodiy tipida joylashgan bo'lsa, tekisliklarda lenta simon joylashgan (asosan aholi manzilgohlari daryo bo'ylarida va aloqa yo'llari bo'y lab cho'zilgan), tog'li va cho'l rayonlarida (mintaqalarida) esa nuqtasimon joylashganligi bilan ajralib turadi. Tog'li rayonlarga ayniqsa qishda borish qiyin bo'ladi.

Mintaqada 120 dan ortiq millat vakillari istiqomat qilishadi. Bulardan ko'pchilikni tub joy (mahalliy) millatlari: o'zbeklar, qozoqlar, tojiklar, turkmanlar, qirg'izlar va qoraqalpoqlar tashkil etadi. Ular jami aholining 80% dan ortadi. Bundan tashqari boshqa millatlar: ruslar, ukrainlar, yevreylar, tatarlar, uyg'urlar, koreyslar, dunganlar va boshqalar ham yashaydi.

Markaziy Osiyo aholisi tez sur'atlar bilan ortib bormoqda. Mintaqadagi tabiiy o'sish MDHga a'zo davlatlardan ancha yuqori. Ayniqsa O'zbekiston va Tojikistonda tabiiy o'sish yuqori ko'rsatgichni tashkil etadi.

O'zbekistonda tug'ilish har ming kishi hisobiga 26 ta, o'lim esa 6 taga, Tojikistonda 25 va 6 taga to'g'ri keladi. Tabiiy o'sishi eng past Qozog'iston Respublikasi bo'lib, tug'ilish 15, o'lim esa 10 kishiga to'g'ri keladi. Turkmanistonda va Qirg'iz Respublikasida esa deyarli bir xil tug'ilish 22, o'lim esa 7 kishini tashkil etadi.

Markaziy Osiyo davlatlarida urbanizatsiya darajasi MDH davlatlariga nisbatan ancha past bo'lib, jami aholisining 43 foizi shaharlarda yashaydi. Mintaqadagi eng urbanizatsiyalashgan davlat Qozog'istondir. Bu yerda jami aholisining 56 foizi shaharlarda yashaydi. Bu ko'rsatkich Qirg'iz Respublikasida 38 foizni tashkil etgan holda Tojikistonda esa 33 foizga to'g'ri keladi.

Markaziy Osiyodagi ko'p shaharlar asosan aholisi 50 ming kishigacha bo'lgan shaharlar hisoblanadi. Eng yirik shaharlari Toshkent, Astana, Alma-Ata, Bishkek, Dushanbe, Ashgabat, Qaraganda, Namangan, Samarqand, Chimkent,

Andijon, Xo'jand, Buxoro va boshqalardir. Shaharlar aholisi asosan migratsiya hisobiga, ya'ni qishloqlardan shaharlarga ko'chib kelishi hisobiga ortib bormoqda. Bundan tashqari yangi yerlarning o'zlashtirilishi natijasida, tabiiy resurslar topilib ishga tushirilishi natijasida ham (Yangier, Moylisoy, Feruza va hakozo) yangi shaharlar barpo etilgan.

Mintaqada shaharlar aglomeratsiyalari ham tashkil topgan. Eng yirik aglomeratsiyalarga Toshkent, Dushanbe, Bishkek, Qarag'anda, Farg'ona- Marg'ilon kabilalarini ko'rsatish mumkin. So'nggi yillarda Qarag'anda aglomeratsiyasi tez rivojlanib bormoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari mehnat resurslari bilan yetarli ta'minlangan. Ayniqsa bu ko'rsatkich O'zbekiston va Tojikistonda yuqori hisoblanadi. Mintaqa aholisining bandlik darajasi bir-biriga o'xshash. Deyarli barcha Respublikalarda aholisining yarmiga yaqini qishloq xo'jaligidagi (Qozog'istondan tashqari), 20 foizdan ortiqrog'i sanoatda, 33 foizi esa xizmat ko'rsatish sohalarida banddir.

Mehnat resurslari ishlab chiqarish soxasida asosiy vazifani bajarganligi tufayli bu sohani o'rganish iqtisodiy geografiya zimmasidadir. Xozirgi iqtisodiy tushunchalar bo'yicha 16 yoshdan 59 yoshgacha erkaklar, 16 yoshdan 54 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlar mehnat yoshidagi aholi sanaladi va mamlakatni asosiy mexnat resurslari xisoblanadi. Bu yoshdagagi aholining xammasi xam ishlaydi deb bo'lmaydi, albatta. Masalan, ishlab chiqarishdan ajralgan xolda o'qiyotganlar va salomatligi yomonligi tufayli ishlay olmaydigan nogironlar va h.k. lar shular jumlasidandir. Aksincha nafaqa yoshidan oshib ketgan keksalar va shuningdek, hali 16 yoshga to'limgan ba'zi o'smirlar ham ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etadi. Bu mehnatga qobiliyatli aholi tushunchasini kiritishni taqozo qiladi. Mehnatga qobiliyatli aholi deganda har qanday mamlakatning yoshidan qat'iy nazar real mehnat resurslari tushuniladi. Bu mehnat resurslari soniga bevosita ta'sir qiladi.

Ishchi kuchidan foydalanish muammolarini yanada ratsional hal qilish maqsadida mehnatga qobiliyatli aholini ijtimoiy mehnat bilan bandlik darajasi va harakterini hisobga olish xalq xo'jaligi uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

Mehnat resurslari 5 guruhga bo'lib o'rganiladi.

1. 16 yoshdan - 19 yoshgacha ko'proq majburiy holdagi mehnat resurslari sifatidagi ishlar namoyon qilinadi.

2. 20 yoshdan - 29 yoshgacha. Bu davr mehnat resurslarining yoshlik davri bo'lib, asosiy vaqt va kuch mehnatga tayyorlanishga sarflanadi.

3. 30 yoshdan - 39 yoshgacha bo'lgan aholi aktiv mehnat resurslari hisoblanadi.

4. 40 yoshdan - 49 yoshgacha bo'lgan aholi mehnat resurslarini o'rta davridir. Bu davrda to'plangan bilim, ko'nikma va malakalar ishga solinadi.

5. 50 yoshdan - 59 yoshgacha bo'lgan davr mehnat resurslarining katta davridir.

Mehnatga yaroqli aholi o'z navbatida 2 guruhga bo'linadi: iqtisodiy aktiv aholi va iqtisodiy aktiv bo'lмаган aholi.

Mehnat resurslarini geografik jihatdan o'rganish mamlakatlar va rayonlar aholisining hududiy joylanishi uning yosh tarkibini o'rganish bilan birga mehnatga yaroqli aholining ishlab chiqarishda qatnashuvi va bu qatnashuvdagi fikrlar hamda ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etayotganlarning xalq xo'jaligi ayrim tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi xalq xo'jaligi ayrim tarmoqlarida ishchi kuchidan mavsumiy foydalanish xususiyatlarini o'rganish ham mehnat resurslaridan foydalanishni geografik tadqiqot qilishning muhim tomonlaridan biridir.

### 3. MARKAZIY OSIYO IQTISODIYOTI

Markaziy Osiyo o'zining boy tabiiy resurslari, strategik joylashuvi, iqtisodiy, transport, logistika va boshqa muhim sohalardagi imkoniyatlari bois, global va mintaqaviy yirik davlatlarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Zamonaviy siyosiy ma'noda Markaziy Osiyo bu Qирг'из Республикаси, О'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va Qozog'istondir. Biz mintaqani birinchi tor talqinini qo'llaymiz va ushbu ilgarigi Osiyo respublikalari iqtisodiyotidagi vaziyatni ko'rib chiqamiz. U yoki bu darajada ushbu mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, mentaliteti va madaniy kelib chiqishini shunga o'xhash deb atash mumkin.

Markaziy Osiyo davlatlarining o'sib borayotgan iqtisodiyoti, siyosiy erkinligi va ta'siri bilan bog'liq so'nggi ijobiy o'zgarishlar xalqaro maydonidagi yirik kuchlarning Markaziy Osiyo mintaqasidagi jarayonlarga bo'lgan e'tiborini yanada kuchaytirdi. Masalan, agar o'tgan yillarda AQSh va Yevropa Ittifoqi Markaziy Osipyoga nisbatan o'z strategiyasini qayta ko'rib chiqib yangilagan bo'lsa, boshqa tomondan, Rossiya va Xitoy ham Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (EOII) va "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'z hamkorligini mustahkamlashga intilmoqda. Ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyo davlatlari bilan faol hamkorlikka, shuningdek, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Eron, Hindiston va boshqa qator mamlakatlar ham qizg'in kirishmoqda. Markaziy Osiyo geosiyosatida ishtirok etayotgan mazkur yirik davlatlar mintaqada o'z manfaatlariga ega.

Markaziy Osiyo mintaqasi jahon iqtisodiyotining oddiy ulushini egallaydi - taxminan 0,3 foiz. Dunyo aholisining 1 foizga yaqin ulushi bilan iqtisodiyot YaIM bo'yicha qariyb 3 baravar ortda qolmoqda.

Ushbu mintaqaning yangi iqtisodiy roli bir qator omillarning mavjudligi bilan belgilanadi:

- mintaqalab qimmatbaho manbalarga, birinchi navbatda uglevodorodlarning katta zaxiralariga ega;
- mintaqalab Yevroosiyo materigining markazida joylashgan bo'lib, mintaqaning bir qismi xavfsizligi va barqarorligini saqlashda muhim rol o'yaydi;
- shuningdek, keng transport-kommunikatsiya tarmog'i mavjudligi sababli mintaqalab mamlakatlari tranzit davlatlar sifatida o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanadilar.

Jahon iqtisodiyoti uchun Markaziy Osiyo mintaqasi, avvalambor, xomashyo manbai sifatida qiziqarli. Hozirgi vaqtida neft, gaz, ko'mir va metallar eng ko'p talab qilinadigan eksport qilinadigan tovarlar bo'lib, o'z navbatida qishloq xo'jaligi sohasi mahsulotlari ham dinamik o'sishni ta'minlamoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun neft zaxiralarining umumiyyat hajmi 15-31 milliard barrelga, tabiiy gaz zaxiralarining umumiyyat hajmi esa 230-360 trln. kubometrni tashkil etadi, bu dunyo neft resurslarining 7,2% va gaz resurslarining 7% ni tashkil etadi. Mintaqalab qazib olish bo'yicha dunyoda 10-o'rinni va elektr energetikasini ishlab chiqarish bo'yicha 19-o'rinni egallab turibdi.

U qora, rangli va noyob metallarning katta zaxiralarini tashkil etadi; oltin ishlab chiqarishning umumiyyat hajmi bo'yicha (O'zbekiston - 90 tonna, Qirg'iz Respublikasi - 24, Qozog'iston - 18,9) 9-o'rinni egallaydi.

Markaziy OSIYO davlatlari asosan Qozog'iston, O'zbekiston va Turkmanistonda to'plangan kuchli tog'-kon, yoqilg'i-energetika, metallurgiya va kimyo sanoatiga ega.

Markaziy Osiyoda Qozog'iston neft qazib olish bo'yicha 1-o'rinni egallaydi (80 milliontonna); 2-Turkmaniston (6 milliontonna) va 3 - O'zbekiston (5 milliontonna). Turkmaniston tabiiy gaz konlariga boy bo'lib, zaxiralari bo'yicha MDHda Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Ko'mir konlari Turkmanistondan tashqari barcha respublikalarda uchraydi.

Markaziy Osiyoda elektr energetikasi nisbatan yaxshi

rivojlangan. Qozog'iston 90 milliard kVt soatgacha ishlab chiqaradi; O'zbekistonda 2022 yili 74,3 milliard kvt soat elektr energiya ishlab chiqarilgan.

Metallurgiya notejki rivojlangan. Yiliga 2,0 million tonnagacha po'lat eritadigan Qozog'iston va O'zbekiston (0,6 million tonna) ajralib turadi. Turli xil polimetall mahsulotlar: qo'rg'oshin, rux, mis, xrom (Qozog'iston); qo'rg'oshin, rux, mis, oltin, kumush va boshqalar (O'zbekiston).

Kimyo sanoati mineral o'g'itlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Qirg'iz Respublikasida kimyo sanoati rivojlanmagan.

Mashinasozlik jadal rivojlanmoqda. U yengil avtomobillar, yuk mashinalari va avtobuslar ishlab chiqariladigan Qozog'iston va O'zbekistonda to'plangan.

Yengil va oziq-ovqat sanoati u yoki bu darajada hamma joyda rivojlangan.

Markaziy Osiyo iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi muhim o'rinni tutadi. Yetakchi o'rinni qishloq xo'jaligiga tegishli. Sug'oriladigan yerkarning asosiy maydonlari texnik ekinlar va asosan paxta yetishtirishga ixtisoslashgan bo'lib O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikistonda joylashgan. O'z navbatida, Qozog'iston va Qirg'iz Respublikasi donli ekinlarni yetishtirishga ixtisoslashgan. O'zbekistonda don yetishtirish ham rivojlangan.

Chorvachilikda yetakchi o'rinni qo'yichilik egallaydi. Bu ko'proq darajada Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, O'zbekiston va Turkmanistonga tegishli. Qoramol boqish shahar atrofi va aholi zich joylashgan vohalar uchun xosdir.

Mintaqada inflyatsiya darajasi juda yuqori darajada. Ko'rib chiqilayotgan davrda o'rtacha 6-7 foiz. Shuningdek, narxlar dinamikasining o'zgaruvchanligini ham ta'kidlash lozim. Shunday qilib, 2016 yilda Qozog'istonda narxlarning keskin sakrashi kuzatildi va shu davrda O'zbekiston va Qirg'iz Respublikasida narxlarning pasayishi kuzatildi.

Qozog'iston tashqi savdo hajmi bo'yicha yetakchi o'rinni

egallaydi. 2014-2016 yillarda ushbu ko'rsatkichning pasayishi milliy valyutaning dollarga nisbatan kursi pasayishi va Qozog'istonning asosiy eksport tovarlari - neft narxlarining pasayishi tufayli qayd etildi. Tashqi savdo hajmi bo'yicha ikkinchi o'rinni ancha rivojlangan O'zbekiston va Turkmaniston egallaydi. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkich O'zbekistondagi eng barqaror ko'rsatkichdir (taxminan 25 milliard dollar). Tashqi savdoning eng kichik hajmi mintaqadagi sanoati va iqtisodiyoti kam rivojlangan mamlakatlarda: Qirg'iz Respublikasi va Tojikistonda kuzatiladi.

### **QOZOG'ISTON.**

Qozog'iston boshqa Markaziy OSIYO mamlakatlari orasida rivojlanish va iqtisodiy salohiyat jihatidan shubhasiz yetakchidir. 2019 yilda YaIM bo'yicha Qozog'iston 191 mamlakat orasida 46-o'rinni egalladi. Markaziy Osiyo mintaqasi yalpi ichki mahsulotining yarmidan ko'pi Qozog'istonga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, yuqori taqqoslash bazasi tufayli YaIM o'sishining dinamikasi mintaqaning boshqa mamlakatlariga nisbatan pastroq.

Qozog'iston Respublikasida mineral va energetik resurslarning muhim konlari mavjud – Mendeleev davriy jadvalining 110 ta elementidan 99 tasi mamlakat hududida topilgan, 70 tasi o'rganilgan, 60 dan ortig'i ishlatilgan, shu jumladan dunyo temir rudalarining 8 foiz zaxiralari va uranning taxminan 25 foizi Qozog'iston hissasiga to'g'ri keladi. Mamlakat Kaspiy mintaqasi eng kuchli neft va gaz salohiyatiga ega - Qozog'iston dunyodagi neft zaxiralarining qariyb 3 foizini va tabiiy gazning 1,2 foizini tashkil qiladi. So'nggi yillarda mamlakat energiya manbalarini ishlab chiqarish va ularni eksportini ko'paytirmoqda. Shu bilan birga Qozog'iston mintaqadagi asosiy bug'doy yetishtirovchi mamlakatlardan biri hisoblanadi.

### **TURKMANISTON.**

Turkmanistonda neft, gaz, oltingugurt va kaliy juda ko'p. Turkmanistonning asosiy tarmoqlariga neft va tabiiy gazni qayta ishlash; shisha, mato (asosan paxta) va kiyim-kechak ishlab chiqarish, oziq-ovqat sanoati kabilar kiradi.

Turkmaniston manfaatdor xorijiy kompaniyalarni Kaspiy dengizi bo'yidagi gaz konlarini o'zlashtirishda ishtiroy etishga faol ravishda da'vat etadi - 2030 yilga kelib respublikada gaz qazib olishning hozirgi ko'rsatkichlari uch baravar ko'payishi kutilmoqda.

Ushbu kichik mamlakat tabiiy gaz zaxiralari bo'yicha dunyoda 4-o'rinni egallab, ikkinchi yirik gaz koniga (Janubiy Iolotan) ega. Bundan tashqari, boy neft zaxiralari mavjud. Turkmanistonda neft va gazdan tashqari, qurilish va pardozlash sanoati uchun oltingugurt, yo'd, brom, mirabilit, qo'rg'oshin kabi turli xil xom ashyo zaxiralari mavjud.

Hozirgi vaqtida Turkmaniston iqtisodiyotining asosini yoqilg'i-energetika kompleksi tashkil etadi, u neft va gaz qazib olish hamda neftni qayta ishlash sanoatini o'z ichiga oladi, aynan ular asosiy valyuta tushumini keltiradilar va tashqi savdoning asosini tashkil etadilar.

Turli xil hisob-kitoblarga ko'ra (OPEK, mustaqil Amerika agentligi YEIA, Britaniyaning neft giganti BP), Turkmaniston har kuni 200-260 ming barrel (28-36 ming tonna) va har yili 70 milliard kubometr gaz ishlab chiqaradi. Gaz ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 11-o'rinda turadi.

Turkmanistonning ushbu sohani yanada rivojlantirish bo'yicha rejalar ulkan. Shunday qilib, 2030 yilgacha bo'lган davrda Turkmanistonning neft va gaz sanoatini rivojlantirish dasturiga binoan, 2030 yilgacha neft qazib olishni 110 million tonnagacha, tabiiy gazni esa 250 milliard kubometrgacha oshirish ko'zda tutilgan.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun Turkmaniston

hukumati milliy iqtisodiyotning ushbu sohasiga chet el investitsiyalarini jalb qilish choralarini ko'rmoqda. Mamlakat iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalarning aniq miqdori to'g'risida rasmiy ma'lumot yo'q.

Turkmanistonda paxtachilik keng tarqalganligi sababli to'qimachilik sanoati rivojlangan. Mamlakatda kimyo va metallurgiya korxonalari mavjud, Kaspiyda kemasozlik ham rivojlangan.

Turkmanistonda ham iqtisodiyotning agrar sohasi rivojlangan. Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i paxtachilik, g'allachilik ham yuqori darajada rivojlangan. G'allachilikda - bug'doy va sholiyetishtirish oldingi o'rinda turadi. Bog'dorchilik, polizchilik, sabzavotchilik bilan shug'ullanadigan fermer xo'jaliklari mavjud. Chorvachilik asosan ot boqish (Axaltekin otlarining vatani Turkmaniston), qo'ychilik va tuya yetishtirish, qoramol yetishtirish ham rivojlangan.

### ***QIRG'IZ RESPUBLIKASI.***

Respublika iqtisodiyoti asosan sanoat, xizmat ko'rsatish sohasining qishloq xo'jaligi sektoridan iborat bo'lib, mehnatga layoqatli aholining yarmidan kami xizmat ko'rsatish sohasida ishlaydi. 2011 yilda migrantlar tomonidan o'tkazilgan pul o'tkazmalari hajmi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 29 foizini tashkil etdi. Bular mamlakatda bandlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi ustun tarmoqlardir.

Sanoatda energetika va konchilik bilan shug'ullanadi. 1990-yillarda respublikada sanoatlashtirishda hatto Markaziy Osiyo standartlari bo'yicha katta pasayish yuz berdi: Qirg'iz Respublikasining YaIM 1990-2001 yillarda 10,35 baravarga kamaydi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining muhim qismi eksport qilinadi. Turizm Qirg'iz Respublikasi uchun muhim daromad manbai hisoblanadi.

Qirg'iz Respublikasida antimoni (Surma), simob, qo'rg'oshin, rux va boshqa qimmatbaho metallarning ulkan zaxiralari hamda muhim gidroenergetika resurslari mavjud.

### ***TOJIKISTON.***

Tojikiston iqtisodiyoti qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan, mamlakat mineral xom ashyolarga (ko'mir) boy. Tojikiston eksporti tarkibida taxminan 80 foiz xomashyodan (alyuminiy, paxta, tayyor oziq-ovqat mahsulotlari, qimmatbaho va yarim qimmatbaho metallar va toshlardan) iborat. Tojikiston suv resurslarining bitmas-tuganmas zaxiralariga ega, bu yerda mintaqadagi barcha suv resurslarining 55 foizidan ko'prog'i jamlagan.

Mustaqillik yillarida bandlik tarkibi juda o'zgarib ketdi, iqtisodiyotni sanoatlashtirish amalga oshirildi. Mamlakatda sanoat-agrar maqomiga erishish Tojikiston Respublikasining 2030 yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasining amalga oshirilishini ta'minlaydi. 2000 - yildan beri barqaror iqtisodiy o'sish 5-7 foizni tashkil etdi. Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun hukumat 4 ta erkin iqtisodiy zonani ochdi va ular bugungi kunda yaxshi ishlamoqda. EIZ sub'ektlariga qator iqtisodiy imtiyozlar beriladi. Ular soliqlar va bojxona to'lovlaridan ozod qilingan. EIZni rivojlantirish yo'lidagi barcha ma'muriy to'siqlar olib tashlandi. 1991-2020 yillarda qishloq xo'jaligida ish bilan band bo'lganlarning ulushi 36 foizdan 19 foizgacha kamaygan bo'lsa, sanoatda band bo'lganlar ulushi 21 foizdan 51 foizgacha, qurilishda 8 foizdan 3 foizgacha, xizmat ko'rsatishda 35 foizga o'zgardi.

Tojikiston iqtisodiyoti eksport tarkibining torligi va yuqori importga bog'liqligi sababli tashqi ta'sirlarga qarshi himoyasiz. Respublikaga mehnat migratsiyasining yuqori darajasi xosdir. Mamlakat aholisining juda katta qismi qashshoqlikda yashaydi.

Tojikiston iqtisodiyotining eng muhim sohasi qishloq

xo'jaligi bo'lib, uning hissasiga 2015 yilda YalMning chorak qismidan ko'prog'i to'g'ri kelgan. Keyinchalik quyidagilar yaniy sanoat, savdo, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish, qurilish va boshqa sohalar asta sekin rivojlana boshladi.

Tojikistonda asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari paxta hisoblanadi, yig'ilgan xom ashyoning to'qson foizigachasi eksport qilinadi. Tojikistonda don, sabzavot, meva, tamaki, kartoshka yetishtiriladi va chorvachilik rivojlangan.

Mamlakat kumush, oltin, temir, qo'rg'oshin, surma, ko'mir, osh tuzi, qimmatbaho toshlar, neft va gazning katta zaxiralariiga ega. Qidirilayotgan konlar kimyo, tog'-kon sanoati, metallurgiya, mashinasozlik kabi tarmoqlarni xom ashyo bilan ta'minlashga hissa qo'shadi.

Elektr energetikasi juda rivojlangan va istiqbolli sanoat tarmog'idi. Tojikiston elektr energiyasining yirik eksportchisi hisoblanadi va mamlakat gidroenergetika zaxiralari bo'yicha dunyoda sakkizinch o'rinni egallaydi.

Mamlakatda hali ham katta va eng muhim sanoat tarmog'i yengil sanoatdir. Tojikistonda qishloq xo'jaligi xom ashvosini qayta ishlaydigan ko'plab korxonalar mavjud. Paxtani qayta ishlash, ipakchilik, shuningdek, gilam to'qish, tikuvchilik va trikotaj fabrikalari shular julasidandir.

Tojikistonning asosiy tashqi savdo sheriklari Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Turkiya kabi davlatlardir. MDH sherik-davlatlari umumiylashqi savdo aylanmasining deyarli yarmiga to'g'ri keladi.

Xuddi sobiq SSSRning boshqa ko'plab mamlakatlarida bo'lgani kabi, Tojikistonda ham mehnat migratsiyasi juda keng tarqalgan. Mamlakatda mehnat migrantlarining asosiy qismi va ularning yarim milliondan ortig'i Rossiya Federatsiyasida ishlaydi. Ular pul o'tkazmalari orqali o'tkazadigan pullar YalMning muhim qismidir.

Tojikiston qashshoq davlat bo'lishiga qaramay, tahlilchilar uning iqtisodiyotini yanada rivojlantirish uchun juda

muvaffaqiyatli bashoratlarini berishmoqda. Iqtisodiy o'sish sur'atlari foydali ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy narsa bu Tojikistonning jahon iqtisodiyotiga qo'shilishidir. Bunday integratsiya usullaridan biri bu Bojxona ittifoqiga kirishdir. Bundan tashqari, tahlilchilar Tojikistonda eksportning asosiy moddalari bo'lgan alyuminiy va paxta narxlarining o'sishi uchun qulay prognozlarni berishadi, bu esa byudjetga qo'shimcha daromad keltiradi.

### 1-jadval

#### 2019 yil xisobidan Markaziy Osiyo davlatlarning yillik daromadi va jahondagi yalpi maxsulotlardagi ulushi

Jahonda o'rni	Davlat	Daromadi (mlrd. \$)	Jahonda yalpi mahsuloda ulushi % xisobida
46	Qozog'iston	509	0,38
66	O'zbekiston	245	0,18
99	Turkmaniston	96,2	0,07
135	Qirg'iz Respublikasi	35,2	0,03
139	Tojikiston	32,9	0,02

#### 4. MARKAZIY OSIYO SANOATI

Markaziy Osiyo davlatlari xalq xo'jaligi og'ir sanoat, oziq-ovqat va yengil sanoat bilan birgalikda rivojlangan qishloq xo'jaligi majmuasidan iborat.

Mintaqa MDH davlatlari orasida xom ashyo yetishtirishga ixtisoslashganligi bilan ajralib turadi. 80 yillarning boshlarida sobiq Ittifoqning 5 foiz sanoat mahsulotini, 16 foiz qishloq xo'jaligi maxsulotlarni yetkazib berilgan.

Hozirgi kunda ham MDH davlatlarida yetishtiriladigan paxtaning 95 foizi Markaziy Osiyo davlatlariga to'g'ri keladi. Bundan tashqari bug'doy, sholi, makkajo'xori kabi ekinlar xam ko'p yetishtiriladi. Shuningdek ko'plab miqdorda rangli metallar: surma, mis, (Qozog'istonda 400 ming tonna yoki jahonning 5,6 foiz misi qazib chiqariladi. MDHda Rossiyadan keyingi ikkinchi o'rinni), ko'plab miqdorda neft, gaz, ko'mir qazib chiqariladi.

#### 2-jadval

##### Ayrim MDH davlatlarida neft va gaz qazib chiqarish (2020)

Davlatlar	Neft mln.tonna		Gaz mlrd.m <sup>3</sup>	
	2010 y	2020 y	2010 y	2020 y
Qozog'iston	20,5	87	59	78
Rossiya	307	512,6	665	737
Turkmaniston	5,7	8,7	70	82,3
O'zbekiston	3,9	3,5	39	56
Ukraina	5,3	23,2	18,8	197
<b>Jami</b>	<b>342,4</b>	<b>635</b>	<b>851,8</b>	<b>1150,3</b>
O'zbekiston % hisobida	1,1	0,5	4,5	4,8

Jadvaldan ko'rinish turibdiki 2010 yilga nisbatan 2020 yilga kelib MDH davlatlarida neft va gaz qazib chiqarish nisbatan kamaygan. Rossiyada 2010 yili 307 mln tonna neft, 665 mlrd.

m<sup>3</sup> gaz qazib chiqarilgan. O'zbekiston Respublikasida esa aksincha mustaqillik yillarida neft va gaz qazib chiqarish ortgan. Masalan: 2010 yil 3,9 mln tonna neft, 39 mlrd.m<sup>3</sup> gaz qazib chiqarilgan bo'lsa mustaqillikka erishilgandan so'ng (2020) 3,5 mln tonna neft va 56 mlrd.m<sup>3</sup> gaz qazib chiqarilganligini jadvalda ko'rishimiz mumkin. Buning asosiy sababi Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida yirik neft va gaz konlari topilib ishga tushurilganligidir.

#### 3-jadval

##### MDH davlatlaridagi neftni qayta ishslash zavodaları

Zavodlar	Quvvati barrel kuniga	Xom ashyo	Manba	Tashib keltirilishi	Faoliyati
Qozog'iston					
Chimkent	160 000	Neft kondensat	Tumen,	Quvur yo'li,	Ishlaydi
		Neft	Turkmaniston,	temiryo'l	Ishlaydi
Pavlodar	162 666	Neft	O'zbekiston,	Quvur yo'li	Ishlaydi
Atirau	104 000		Tumen, Atirau	Quvur yo'li	
O'zbekiston					
Farg'ona	156 204	Neft kondensat	Farg'ona	Quvur yo'li,	Ishlaydi
		kondensat	Buxoro	temiryo'l	
Buxoro	51 383		Buxoro	Quvur yo'li	Ishlaydi
Turkmaniston					
Chardjoy	120 493	Neft kondensat	Chimkent, Buxoro	Quvur yo'li,	Ishlaydi
Turkmenbashi (Krasnovodsk)	88 000	Neft	orgali Ozarbayjon, Turkmaniston	temiryo'l	
Qirg'iz Respublikasi			tanker	Quvur yo'li va	Ishlaydi
Kant	7 500	Kondensat	Tumen oblasti	tanker	
Orlovka	1 500	kondensat	O'zbekiston		Ishlaydi
Kirgali/ KRS	10 000	kondensat	Farg'ona vodiysi va		Ishlaydi
			Qirg'iz Respublikasi		

Manba: O'zbekiston neftni qayta ishslash aksionerlik kompaniyasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Jadvalda ko'rinib turibdiki Markaziy Osiyodagi eng yirik neftni qayta ishlash zavodalari Qozog'istonning Pavlodar va Chimkent, O'zbekistonning Farg'onan zavodlaridir. Bu zavodlarda bir kunda 156,204 barreldan 162,666 barrelgacha neft qayta ishlanadi. Tozalangan neft maxsulotlari iste'molchilarga temir yo'l va quvur transportlari orqali yetkazib beriladi. Bir qismi esa horijiy davlatlarga eksport qilinadi.

Ko'mir qazib chiqarish bo'yicha Qozog'iston respublikasi Rossiya va Ukrainadan keyin uchinchi o'rinda turadi (Rossiya 232 mln tonna, Ukrainada 77 mln tonna, Qozog'iston esa 70 mln tonna).

Oltin qazib chiqarish bo'yicha O'zbekiston MDH davlatlari orasida Rossiyadan keyingi ikkinchi o'rinda, dunyoda esa sakkizinch o'rinda turadi (Dunyoda eng ko'p JARda 620 tonna atrofida, Rossiya 150 tonna, O'zbekiston 75 tonna).

Markaziy OSIYO davlatlari orasida Qozog'iston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Milliy daromad aholi jon boshiga hisoblanganda boshqa davlatlarga nisbatan ancha yuqori Qozog'istonda 4790\$, (O'zbekistonda 2230\$, Tojikistonda 350\$). Markaziy Osiyoda eng urbanizatsiya darajasi yuqori davlat ham Qozog'iston bo'lib, aholisining 59 foizi shaharlarda istiqomat qiladi.

Markaziy Osiyo davlatlari orasida Tojikiston Respublikasi xo'jaligining kam rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Respublika hududining katta qismi tog'lardan iborat bo'lganligi sababli, hamda mamlakatdagi nosog'lom vaziyatlar hozirgi kunda iqtisodiyotning rivojlanishiga salbiy ta'sir etgan. Umuman olganda bu ko'rsatkichlar Tojikiston Respublikasida nisbatan past.

Markaziy Osiyo MDH davlatlari orasida asosan xom ashyo va yarim xom ashyo maxsulotlari, qisman sanoat maxsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirilganligi bilan ajralib turadi. Sobiq Ittifoq davrida, Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston Respublikalarida tog-kon, yoqilg'i-energetika,

rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sanoat tarmoqlari shakllandi. 1980 yildan Tojikiston va Qирг'из Respublikasida energetika, oziq-ovqat va yengil sanoat, avtomobilsozlik, rangli metallurgiya sanoat tarmoqlari shakllana bordi. Albatta sanoat tarmoqlarini shakllanishi va joylanishuvida Respublikalardagi xom - ashyolar, mineral va suv resurslari muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, ko'p sanoat tarmoqlari urush yillari Rossiya va Ukrainadan Qozog'iston va O'zbekiston hududiga ko'chirib kelingan. Ularning bo'limlari respublikalar, viloyatlarda hamda Qozog'iston, Tojikiston hududlarida tashkil etilgan edi.

Urushdan keyingi tiklanish davrida ko'chirib olib kelingan sanoat korxonalarining ba'zi birlari shu hududda qoldirildi, ayrimlarini yana oldingi joylariga olib borib tiklandi.

Markaziy Osiyo sanoatida undiruvchi sanoat tarmoqlarining ahamiyati katta. Bularga yoqilg'i - energetika, metalurgiya, kimyo sanoatlari kiradi. Qurilish, yengil va oziq-ovqat sanoatlari ham rivojlanib bormoqda.

Markaziy Osiyo Respublikalari orasida Qozog'iston Respublikasi sanoat ishlab chiqarish bo'yicha ajralib turadi. Buning uchun yetarli miqdorda imkoniyatlar mavjud.

Hududda yoqilg'i sanoati uchun ko'mir, neft va tabiiy gaz zahirasi mavjud. Eng yirik havza Qarag'anda konidir. Bu yerda toshko'mir yani kokslanuvchi sifatli ko'mir qazib olinadi. Ekibastuz havzasidan ochiq usulda qo'ng'ir ko'mir qazib olinadi. Uning tannarxi juda arzon bo'lib, asosan issiqlik elektrostansiyalarida xom ashyo sifatida ishlatiladi.

Qozog'iston Respublikasida neft konlari Emba havzasida, Mang'ishloq va Shimoliy Ustyurtda mavjud. Kaspiy dengizi shel'fida, Mug'ojar tog'lari bilan Qozog'iston past tog'larining oralig'ida neft zaxiralari mavjud. Neft bor joyda gaz konlari ham bor.

Markaziy Osiyo hududida sanoat tarmoqlarini, shuningdek qishloq xo'jaligining shakllantirish va rivojlanishida yoqilg'i - energetika sanoatining ahamiyati nihoyatda katta. Har bir

respublika shu sanoat majmuasini shakllantirish, hududlar bo'ylab to'g'ri joylashtirish va rivojlantirishga harakat qiladi. Markaziy Osiyo davlatlari yiliga 200 mlrd. kv.t soatga yaqin elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Ba'zi bir Respublikalarda elektroenergiyani asosiy qismi issiqlik va ba'zi birlarida gidroelektrostansiyalardan ishlab chiqarilgan energiyaga to'g'ri keladi. Jumladan Qozog'iston elektroenergiyasining asosiy qismi issiqlik elektrostansiyalarida ishlab chiqariladi. Bu hol O'zbekistonga ham tegishlidir. Issiqlik elektrostansiyalarining ichida eng yirigi - Ermak GRESi bo'lib, uning quvvati - 2,4 mln.kv.t dir. Yirik elektrostansiyalar Almata, Qarag'anda, Petropavlovsk, Taraz, Shimkent, Pavlodar shaharlarida qurilgan. Yirik gidroelektrostansiyalardan yana Ust'-Kamenogorsk va Buxтарма GESlaridir.

Turkmaniston Respublikasida ham neft va gaz zaxiralari yetarli. Gaz zaxiralari hajmiga ko'ra Turkmaniston MDHda Rossiyadan keyingi ikinci o'rinda turadi. Shuning uchun ham mamlakatning asosiy sanoat tarmog'i, neftni qazib olish va qayta ishlash bilan bog'liq. Bu davlatda ham issiqlik elektrostansiyalarida elektr energiya ishlab chiqaradi. Elektr energiyaga bo'lgan ehtiyojini O'zbekiston va Tojikistondan oladi. Turkmaniston Rossiya, Ukraina, Eronga va Turkiyaga gaz va neft eksport qiladi. Tojikiston Respublikasida ham mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ko'mir, neft va gaz konlari mavjud. Ammo, gidroenergetik potensiali yuqori bo'lganligi sababli ulardan to'liq foydalanimaydi. MDH davlatlari orasida gidroenergiya quvvati bo'yicha Rossiya Federatsiyasidan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Vaxsh daryosida qurilgan Nurek GES asosiy energiya manbai hisoblanadi. Shuningdek Rogun, Pomir GESlari ham mavjud. Tojikistonning Farg'ona vodiysidagi hududlari Farhod GESi va O'zbekistondagi Shirin GRESi hamda Angren GESlarining energiyasidan bahramand bo'lishadi.

Qirg'iz Respublikasida ham qo'ng'ir va toshko'mir konlari mavjud. Neft va gaz zahirasi mahalliy ahamiyatga ega. Lekin

gidroenergetik resursga boy. Gidroenergiya potensiali bo'yicha Markaziy Osiyoda Tojikiston Respublikasidan so'ng 2 - o'rinda turadi. Norin daryosida To'xtagul GRESi ishga tushurildi. Yoqilg'i va energiyaning ma'lum qismini O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalaridan oladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida gaz zaxiralari neft va qo'ng'ir ko'mir hamda mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan toshko'mir konlari bor. O'zbekistonning Farg'ona vodiysida neft va gaz, Ohangaron vodiysida qo'ng'ir ko'mir, Buxoro va Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida gaz va neft zaxiralarini yirik konlari mavjud. Asosiy elektroenergiya manbai issiqlik elektroenergiya stansiyasidir.

Bular: Toshkent, Angren, Shirin, Navoiy, Taxiatosh GRESlari, Chorvoq, G'azalkent va boshqa GESlardir. O'zbekistonda yiliga 75 mlrd. kv.t soatdan ko'proq energiya ishlab chiqariladi. Respublika energiyasi eksport qilinadi, shuningdek gaz ham.

Markaziy Osiyo davlatlari orasida neft qazib olish bo'yicha Qozog'iston Respublikasi birinchi, O'zbekiston ikkinchi va Turkmaniston uchinchi o'rinda turadi. Agarda 1990 yilda bu Respublikalarda qazib olingan neft 25,8; 2,8 va 5,7 mln.t tashkil etgan bo'lsa , 1995 yilda 20,5 ; 7,8 va 4,7 mln.t ga yetgan. 90- yillardan keyingi davrda Qozog'iston Respublikasi va Turkmanistonda qazib olish ko'rsatkichi pasaygan. O'zbekistonda esa bu ko'rsatgich ortdi va 2000 yilda uning miqdori 8,0 mln.t dan oshdi. Shunday ko'rsatkichni gaz olishda ham ko'rish mumkin. 1990 yilda Qozog'iston, O'zbekiston Respublikalarida va Turkmanistonda 6,6; 38,0 va 81,8 mlrd.m<sup>3</sup> gaz olingan bo'lsa, 1995 ilda 5,9; 47,5 va 32,3 mlrd.m<sup>3</sup> gaz qazib olingan.

Markaziy Osiyo Respublikalarida yoqilg'i - energetika majmuasini yanada rivojlantirishga qaratilgan yangi chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Shulardan biri Markaziy OSIYODA yagona energetika sistemasini vujudga keltirish, neft va gaz

boyliklarini o'zlashtirish va ularni jahon bozoriga olib kirishdir.

#### 4.1 MARKAZIY OSIYO KIMYO SANOATI

Kimyo sanoati xo'jalikda og'ir sanoatning muhim tarkibiy qismidan biridir. Chunki hozirgi davrdagi ishlab chiqarishning plastik massalari, sun'iy tola, sintetik kauchuk, lak - bo'yoq, ishqorlar va kislota, qishloq xo'jaligini esa mineral o'g'it, gerbisit va pestisidlarsiz hamda boshqa kimyoviy maxsulotlarsiz tashkil qilish va rivojlantirish mumkin emas. Shuning uchun sobiq itifoq davrida va hozirgi mustaqillik yillarida ham kimyo sanoati maxsulotlarni respublikalar ehtiyojini hamda xorijiy mamlakatlarga eksport qilishni hisobga olgan holda, uni barpo etishga va rivojlantirishga katta e'tbior berildi va berilmoqda.

Mintaqada kimyo sanoati Markaziy Osiyo hududidagi neft, tabiiy gaz, turli xildagi tuzlar, fosforit va boshqa kimyoviy xom - ashya negizida barpo etilgan va rivojlantirilmoxda. Bu sanoatni shuningdek, neft bilan uchraydigan gaz, gaz kondentsatlari, elektr enrgiyasi hamda mehnat resurslariga boy rayonlarda tashkil qilish va taraqqiy ettirishga ko'proq e'tbor berilgan.

Markaziy Osiyoda kimyoviy xom - ashya, mehnat resurslari va elektr quvvati Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmanistonda hamda Tojikistonda yetartli. Qozog'iston, O'zbekiston va Turkmanistonda tabiiy gaz, neftdan boshqa osh va kaliy tuzlari Glauber (Merobilit) tuzi, fosforit, oltingugurt konlari va boshqa konlar topilgan. Shuningdek, rangli metallurgiya, paxta tozalash sanoati chiqindilari, sul'fat kislota xom ashysosi, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining ba'zi bir maxsulotlari va chiqindilari Markaziy Osiyo hududida kimyo sanoatini rivojlantirish uchun kerakli xom-ashyo hisoblanadi.

Kimyo sanoati o'ziga xos bo'lgan tarmoqlar majmuidan iborat. Markaziy Osiyo respublikalarida kimyo sanoatining asosiy o'rni qishloq xo'jaligiga xizmat qilishdir. Qirg'iz Respublikasidan tashqari barcha davlatlarda mineral

o'g'itlar ishlab chiqarish kimyo sanoatining yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Shuningdek, kimyo sanoati tarkibiga sul'fat kislotasi, soda, kimyoviy tolalar ishlab chiqarish tarmoqlari, gidroliz korxonalari, rezina maxsulotlari zavodlari, atir upa maxsulotlari birlashmalari va boshqalar kiradi.

Qozog'istonda maxalliy xom-ashyolar negizida fosforit o'g'itlar va u bilan bog'liq 80 dan ortiq turdag'i mahsulotlar hamda soda ishlab chiqarish, tog' - kon sanoati bilan bog'langan neftni qayta ishslash, avtomobil shinalari va rezina texnika, sul'fat kislotasi maxsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlangan.

Asosiy markazlari: Kustanay, Qarag'anda, Shimkent, Olg'a, Atirau, Taraz va boshqalardir.

Kimyo sanoati O'zbekiston Respublikasi sanoati iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega. Respublika kimyo sanoatida 750 dan ortiq nomda mahsulot ishlab chiqariladi va mamlakat sanoatlari yalpi maxsuloti hajmida uning salmog'i 4,6 foizni tashkil etadi. Mamlakatda mineral o'g'itlar Chirchiq elektr kimyo kombinati, Farg'ona azotli o'g'itlar, Navoiy kimyo birlashmalari, Qo'qon superfosfat, Samarqand kimyo zavodlari, Olmaliq "Ammofos" birlashmasida ishlab chiqariladi. O'zbekiston hududida sul'fat kislota ishlab chiqariladigan 5 ta, o'simliklarni himoya qiluvchi kimyoviy vositalar (defoliant, desikant, gerbisit, insektised, fungisidlar, oltingugurt kukuni) ishlab chiqaruvchi 4 ta yirik korxonalar joylashgan. Farg'ona va Navoiy viloyatlaridagi korxonalarida kimyoviy tolalar va iplar ishlab chiqariladi. Farg'ona furan birlashmasi, Yangiyo'l biokimyo, Andijon gidroliz zavodlariga texnik etil spirit, furfurol, ozuqa achitqilari, furl spirit, oziq-ovqat sperti ishlab chiqariladi.

Turkmanistonda kimyo sanoati tarmoqlari shaharlarda ishlab turibdi. Mustaqillik yillarida Markaziy Osiyoda kimyo sanoati majmuasi bilan bog'liq neftkimyo, gazkimyo, ko'mirkimyo tarmoqlari barpo etildi va rivojlantirilmoxda.

Markaziy Osiyo davlatlari kimyo sanoati tarmoqlari yangi texnologiya bilan jihozlangan, ishlab chiqarish quvvatini

oshirishga katta e'tibor bergen holda xorijiy mamlakatlar AQSh, Rossiya, Yaponiya, Germaniya va boshqalar bilan teng huquqli hamkorlik qilishmoqda.

## 4.2 MARKAZIY OSIYO METALLURGIYA SANOATI

Metallurgiya xalq xo'jaligini konstruksion materiallar bilan ta'minlaydigan tarmoqdir. Metallurgiya sanoati ikki yirik tarmoqni o'z ichiga oladi: qora va rangli metallurgiya.

**Qora metallurgiya**- Qorametalluriyasanoatitemirrudasi qazib olish, cho'yan, po'lat eritish, prokat va ferroqotishmalar ishlab chiqarishdan iborat.

Qora metallurgiya xalq xo'jaligining o'zagi hisoblanadi va uning asosiy tarmoqlari bilan bog'langan. U mashinasozlikka va qurilish industriyasiga metall beradi, qazib chiqariladigan ko'mirning katta qismini ishlatadi. Kimyo sanoatining asosiy xom ashyo manbalaridan biri hisoblanadi (koks ishlab chiqarish chiqindilaridan olinadi), qishloq xo'jaligiga tarkibida fosfor bo'lgan shlak-o'g'it beradi, temir yo'l izlari (reqlar), vagonsozlik, kemasozlik, avtomobilsozlik uchun metall beradi.

Metallning asosiy qismi metallurgiya kombinatlarida ishlab chiqariladi. Metallurgiya sanoatida xom ashyyoga ketma-ket ishlov beradigan kombinatlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Bunday kombinatlarda temir rudadan domna pechlarida cho'yan eritib olinadi, suyuq cho'yan va temir-tersakdan eritish pechlarida (konverter, marten elektr pechlarda) po'lat eritiladi, po'latdan esa prokat (tayyor maxsulot) olinadi.

Fan-texnika taraqqiyoti metallurgiya sanoatida metall eritishning chiqindisiz texnologiyasini, metall olishning yangi, unumliroq usullarini joriy qilishga olib keldi, bu po'lat sifatini oshirishni va prokatning xilma-xil turlarini olishga imkon berdi. Metall olishning eng yangi usuli metallni domnadan tashqarida olishdir.

Qora metallurgiyada ishlab chiqarishning markazlashuvi

tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Hozirgi paytda bitta yirik domnada bir qancha zavodda eritilgan miqdorda temir eritilmoqda.

Ammo ilmiy-teknika inqilobi natijasida temir eritishning yangi usullari ixtiro qilinishi va ishlab chiqarishga joriy qilinishi munosabati bilan kichik-kichik metallurgiya zavodlari qurish keng takomillashmoqda (bu hususiyat Yaponiya va boshqa rivojlangan davlatlar uchun xos).

Metallurgiya kombinatlari juda ko'p xom ashyo va yoqilg'i talab qiladi. Shuning uchun metallurgiya korxonalarini xom ashyo va yoqilg'i manbalariga yaqin yoki ular oralig'ida joylashtiriladi.

Bir tonna cho'yan ishlab chiqarishga sarf bo'ladigan materiallar miqdori metallurgiyaning texnik darajasiga bog'liq. Xom ashyo va yoqilg'i harajatlari cho'yan tannarxining 80 foizini tashkil qiladi.

Kokslanuvchi ko'mir qora metallurgiya uchun asosiy yoqilg'i bo'lib hisoblanadi. Tarkibida karbonat kalsiy bo'lgan oxaktosh va dolomitlar flyus sifatida ishlatiladi. Metallni eritish paytida flyuslar metallmas jins va koks kuli bilan birgalashib domna chiqindisini hosil qiladi. O'tga chidamli materiallar (po'latdan yasaladigan buyumlar) metallurgiya pechlari qurish uchun kerak bo'ladi. Qora metallurgiya zavodlari suvni ham ko'p ishlatadi. Suv metallurgiya agregatlarini sovitish, gazni tozalash va boshqalar uchun kerak bo'ladi. Metallurgiya zavodining 1 tonna maxsuloti uchun  $900\text{ m}^3$  suv ishlatiladi, agar aylanma suv ta'minotidan foydalanilsa  $15—20\text{ m}^3$  suv sarflanadi.

Shuning uchun metallurgiya korxonalarini joylashtirishda suv, elektr energiya, tabiiy gaz bilan ta'minlash va tabiatni muxofaza qilish masalalari e'tiborga olinadi.

Umumiy ruda yoki yoqilg'i resurslaridan foydalanuvchi va xalq xo'jaligining metallga bo'lgan asosiy extiyojini ta'minlovchi bir guruh metallurgiya zavodlari asosiy metallurgiya bazasi deb ataladi.

Qora metallurgiyaning asosiy xom ashysosi bo'lgan temir

rudasi hozirgi paytda 50 dan ortiq mamlakatda qazib olinadi, ammo asosiy qazib oluvchi davlatlar Rossiya, Braziliya, Xitoy, Avstraliya, AQSh, Kanada hisoblanadi. Eng yirik temir rudasi xavzalari ham shu mamlakatlarda joylashgan: Krivoy Rog (Ukraina), Kursk magnit anomaliyasi — KMA (Rossiya), Itabira va Karajas (Braziliya), Ak-shan (Xitoy), Yuqori ko'l (AQSH), Labrador (Kanada). Jahonda qazib olinadigan temir rudasining 50 foizi eksport qilinadi. Boy temir rudalari tarkibida foydali metallar miqdori 50 foizdan ortiq, qambag'al rudalarda esa 25—50 foiz bo'ladi.

Umuman ruda deb tarkibida hozirgi texnika imkoniyati doirasida ajratib olish iqtisodiy jixatdan foyda beradigan miqdorda foydali komponentlari (muhim elementlar yoki minerallar) bo'lgan tog' jinslari yoki mineral agregatlarga aytildi.

**Rangli metallurgiya-** Rangli metallurgiya rangli metallarni qazib chiqarish, boyitish, eritish hamda qotishmalar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Rangli metallar ilmiy-texnika inqilobi davrida mamlakatni elektrlashtirish, uning mudofaa saloxiyatini mustaxkamlash, atom texnikasi, aviatsiya, raketasozlikni rivojlantirish, qora metallurgiya va kimyo sanoati uchun muhim ahamiyatga egadir.

Rangli metallar 6 ta guruhga bo'linadi:

- 1) og'ir metallar (mis, qalay, qo'rg'oshin, nikel, rux);
- 2) yengil metallar (alyuminiy, magniy, titan);
- 3) qimmatbaxo metallar (oltin, kumush, platina);
- 4) qiyin eruuchi metallar (volfram, molibden);
- 5) nodir metallar (uran, germaniy va boshqalar);
- 6) legirlovchi metallar (xrom, nikel, titan, vanadiy).

Ular qator hususiyatga ega bo'lib, ba'zilari (qalay, qo'rgoshin, nikel) korroziyaga chidamli, ayrimlari issiqqa chidamli (titan), elektr tokini yaxshi o'tkazadi (alyuminiy, mis, kumush). Bundan tashqari, ruda tarkibida rangli metallar miqdorining ozligi va bir vaqtida bir necha rangli metallarning

uchrashi ularning muhim hususiyatlaridan biridir. Bu esa texnologik jarayonga va ishlab chiqarishni joylashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Og'ir metallar rudalari o'z tarkibida metall miqdorining kam bo'lishi bilan farq qiladi. Mis rudalari tarkibida odatda 0,5—2 foiz mis bo'ladi, 1 t mis olish uchun 100 t, 1 t qalay olish uchun esa 300 t dan ortiq ruda kerak bo'ladi. Shuning uchun juda ko'p miqdordagi keraksiz jinslarni ishlatmaslik maqsadida ular oldindan boyitiladi.

Foydali qazilmalarni boyitish deganda rudaning keraksiz qo'shilmalarini chiqarib tashlash yoki yangi moddalar qo'shish yo'li bilan ularning foydali sifatini yaxshilash tushuniladi.

Mis rudalarini boyitish natijasida olinadigan konsentratlar (foydali qazilmalarni boyitish natijasida hosil qilinadigan maxsulot) tarkibida metall 8 foizdan 25 foizgacha bo'ladi.

Shuning uchun og'ir metallarni boyitish va ishlab chiqarish zavodlari xom ashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi.

Demak, energiyani ko'p talab etmasligi va boyitilgan rudada misning kam (8 foizdan 25 foizgacha) bo'lishi tufayli, mis va nikel eritish zavodlari xom ashyyoga yaqin joylarda quriladi.

Og'ir rangli metall rudalarining yana bir hususiyati ularning komplekslidir. Mis, qalay, rux, qo'rg'oshin rudalarida o'nlab boshqa metallar, hamda oltingugurt bo'ladi, shu sababli rangli metallurgiyada xom ashyyoga kompleks ishlov berish kombinatlari quriladi. Masalan, Rossiyadagi Norilsk kombinatida nikel, mis va kobaltdan tashqari yana 14 xil maxsulot olinadi.

Konsentratlarni qaytargich pechlarida eritish natijasida boy mis rudalaridan yarim maxsulot — tarkibida 40 foizgacha sof mis bo'lgan shteyn olinadi.

Uni qayta ishlash natijasida tarkibida 98—99 foiz metall bo'lgan qora mis olinadi.

Qo'rg'oshin, rux va qalayning boyitilgan rudalari tarkibida

metall ko'p bo'ladi. Shu sababli ko'p energiya talab qiladigan rux ishlab chiqarish (qo'rg'oshin ishlab chiqarishdan farq qilib) ruda qazib olish rayonlaridagina emas, balki yoqilg'i manbalarini yonida ham joylashtiriladi.

Alyuminiy ishlab chiqarish ikki asosiy jarayondan iborat, ya'ni alyuminiy oksidlari (glinozyom) ishlab chiqarish va metall-alyuminiy olish. Bir tonna glinozyom olish uchun o'rta hisobda 2,4—4,0 t boksit, 2,6 t shartli yoqilg'i va 2,0—3,5 t oxaktosh kerak bo'ladi. Nefelindan glinozyom ishlab chiqarilganda bir tonna glinozyom olish uchun 1 t nefelin, 9 t oxaktosh, 3 t yoqilg'i zarur. Shuning uchun glinozyom ishlab chiqaradigan zavodlar xom ashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi.

Metall-alyuminiy elektroliz yo'li bilan glinozyomdan olinadi, bunda ko'p miqdorda elektr energiyasi (1 t alyuminiy olish uchun 20 ming kvt/soat) talab qilinadi. Shuning uchun yengil metall bo'lgan alyuminiy zavodlari arzon elektr energiya manbalariga yaqin quriladi. 1 t alyuminiy olish uchun 2 t glinozyom, 250 kg kriolit (glinozyomning erituvchisi, dala shpatidan olinadi), 1 t elektrod (ularni tayyorlash uchun antrait, grafit, gudron, toshko'mir unidan foydalilanadi) kerak bo'ladi. Alyuminiy turli qotishmalar tariqasida aviatsiya va avtomobil sanoatida, binokorlikda ishlatiladi. Alyuminiydan yasalgan simlarning elektr o'tkazish hususiyati mis simlarnikidan ancha past bo'lsa ham, ammo ular yengil bo'lganidan katta afzalliklarga ega.

Magniy alyuminiya qaraganda ancha yengil metall, u zinch qotishmalar, alyuminiy-magniy qotishmalarini olishda qo'llaniladi, u yorug'lik signallari uchun material bo'lib hisoblanadi, pirotexnikada (piro—olov) ham ishlatiladi. Magniy xom ashysi bo'lib xlорli magniy, magnezit va dolomitlar, xlormagniyli sho'r ko'llardagi rapalar (sho'r ko'llarning tuz miqdori yuqori bo'lgan suvlari) hisoblanadi. Magniy ishlab chiqarish alyuminiy ishlab chiqarishga nisbatan ko'p energiya talab qiladi (1 t magniy olish uchun 26—30 ming kVt/soat).

Nikel odatda mis, temir, kobalt bilan birgalikda uchraydi. U idish-tovoq, laboratoriya va texnika uskunalari yasashda ishlatiladi Turli xil metall buyumlarni qoplash, pardozlash (nikellash) uchun ham foydalilaniladi.

U temir, mis, rux va boshqa metallar bilan aralashtirilib qotishmalar ishlab chiqarishda ishlatiladi. Nikelni po'latga aralashtirganda po'latning pishiqligi ortadi. Yuqori sifatli po'lat va maxsus qotishmalar ishlab chiqarish (tanga, qurollar ishlab chiqarish, kemalarning qoplamlarini tayyorlash) munosabati bilan XIX asr oxirida nikel xalq xo'jaligida keng qo'llaniladigan bo'ldi.

Qalay rudalari boyitilishi natijasida tarkibida 65 foiz qalay bo'lgan kontsentratlar olinadi. Boyitish korxonalari xom ashyo manbalariga, qalay eritish esa iste'molchiga yaqin yerlarda joylashtiriladi.

Texnikaning rivojlanishi bilan yangi-yangi materiallarga talab oshdi. Bunday materiallarga turli xil qiyin eriydigan va nodir metallar (titan, niobi, berilli, tantal, kadmiy, germaniy, orkoni, uran va h.k.) kiradi.

Titan metali, titan kotishmalari aviatsiya soxasida qo'llaniladi. Germaniy yarim o'tkazgich material sifatida keng miqyosida ishlatiladi. Bu materiallar radio-texnikada, elektr texnikasida, elektrvakum sanoatida juda katta va tubdan o'zgarishlar yasamoqda. Germaniy toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir tarkidan ajratib olinadi (miqdori 0,001—0,002 foiz).

Qimmatbaho metallarni (oltin, kumush, platina) boyitish fabrikalari ham, eritish zavodlari ham xom ashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi.

Rangli metallurgiya juda ham murakkab va xilma-xildir. Uning har bir tarmog'i o'ziga xos hususiyatlarga ega, bu esa ushbu tarmoq korxonalarini joylashtirishda muhim o'rinn tutadi.

Rangli metallurgyaning boyitish korxonalari xom ashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi. Konsentrat tarkibida metall miqdori kam bo'lganligi metall erituvchi zavodlarni

ham xom ashyo manbalariga yaqin qurishni taqozo qiladi. Rux va nikel zavodlarini joylashtirishda yoqilg'i omili ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Elektr energiyasini juda ko'p sarflashni talab qiladigan alyuminiy, magniy va titan zavodlarini joylashtirishda arzon elektr energiya manbalari ahamiyatga ega.

Og'ir metallar turli maqsadlarda ishlataladi. Misdan sof xolida ham, qalay bilan (bronza), nikel bilan (melxior), alyuminiy bilan (duralyuminiy), rux bilan (latun) qotishma xolida ham elektrotexnikada va mashinasozlikda keng foydalilaniladi. Qo'rg'oshin akkumulyatorlar, elektr kabellari ishlab chiqarishda va atom sanoatida ishlataladi. Nikelning 80 foizdan ortig'i qora metallurgiyada ishlataladi. Temir buyumlar zanglamasligi uchun rux bilan sirlanadi. Qalaydan oq tunuka va podshipniklar yasashda foydalilaniladi.

Jahonda quyidagi mamlakatlarda rangli metallurgiya yaxshi rivojlangan: Rossiya, XXR, AQSh, Kanada, Avstraliya, Braziliya, Yaponiya va Yevropa davlatlarida.

Jahonda mis eritish bo'yicha AQSh, Yaponiya, Rossiya, Chili, Zambiya, Kanada, Belgiya, Germaniya, Polsha; ko'rgoshin va rux eritish bo'yicha AQSh, Yaponiya, Belgiya, Fransiya; qalay eritish bo'yicha Malayziya, Indoneziya, Braziliya; alyuminiy eritish bo'yicha Rossiya, AQSh, Avstraliya, Fransiya, Vengriya, Braziliya yetakchi. Yaponiya, Kanada, Norvegiyada alyuminiy sanoati chetdan keltirilgan xom ashyo asosida ishlaydi, asosiy boksit eksport qiladigan davlatlar — Avstraliya, Gvineya, Yamayka, Surinam.

Demak, rangli metallurgiya sanoati ham asosan rivojlangan davlatlarda yaxshi rivojlangan, rivojlanayotgan davlatlarda esa ko'proq qazib olish va boyitish korxonalari joylashgan.

#### 4.3 MARKAZIY OSIYO MASHINASOZLIK VA METALLNI QAYTA ISHLASH SANOATI

Mashinasozlik va metalni qayta ishlovchi sanoatlar birgalikda mashinasozlik majmuasini tashkil qilib, u Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining asosiy tarmog'i hisoblanadi. Uning ahamiyati ishlab chiqarish jarayonlarini texnik jihatdan qurollantirish va avtomatlashtirish, hozirgi zamон fan – texnika taraqqiyoti yutuqlarini xo'jalikning barcha tarmoqlariga joriy qilish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirishdadir. Mintaqadagi davlatlarning taraqqiyoti shu hududdagi mashinasozlik tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liq.

Mintaqada mashinasozlik geografiyasи shu hududdagi geografik shart-sharoit, ehtiyoj hamda ishlab chiqarishda ixtisoslashuv bilan bog'liq. Markaziy Osiyo davlatlarining aksariyati azaldan xom-ashyo va yarim xom-ashyo maxsulotlari yetkazib beruvchi tarmoqlarga ixtisoslashgan. Keyinchalik tog'-kon sanoati tarmoqlari rivojlandi. XX asrning 60 yillardan boshlab mamlakatlar iqtisodiyotida og'ir sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga katta ehtiyoj tug'ildi.

Bular o'z navbatida yengil, oziq - ovqat va og'ir sanoat tarmoqlarining iste'molini ta'minlovchi hamda tarmoqlararo integratsiyani takomillashtiruvchi, ichki va tashqi aloqalarni rivojlantirishga muhim ta'sir etuvchi mashinasozlik tarmoqlarini barpo etishga olib keldi. Buning uchun yetarli miqdorda mehnat resurslari va malakali kadrlar talab etiladi. Mashinasozlik sanoat majmuasini barpo etish va rivojlantirish uchun Markaziy Osiyo davlatlarida imkoniyat yetarli.

Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining ehtiyojidan kelib chiqqan holda, mintaqada mashinasozlikning quyidagi tarmoqlari barpo etildi va rivojlantirilmoxda. Bular; traktorsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi, paxta tozalash sanoati, to'qimachilik, qurilish va yo'l, tog'-kon sanoati,

kimyo va neft qazib olish, avtomobilsozlik, asbobsozlik, radioelektronika, kommunal xo'jaligi, madaniy - maishiy ro'zg'or texnikasi mashinasozligi va boshqalar.

Mintaqada mashinasozlik sanoati sobiq Ittifoq davrida barpo bo'ldi. Ungacha, Markaziy Osiyo hududida mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan kichik korxona va ustaxonalar bo'lgan. Asosiy korxonalarda temir yo'l mashina uskunalarini ta'mirlanadi, paxta tozalash va yog' zavodining ehtiyojlari qondiriladi.

Markaziy Osiyoda, sobiq ittifoqning dastlabki o'n yilligida, qishloq xo'jaligi, sanoat va transportni rivojlantirishdan kelib chiqqan holda ta'mirlash korxonalari qurila boshlangan va ularning quvvati oshirildi.

1930-yillarda O'zbekistonda "Toshpaxtasanoat" mexanika zavodi, "Qishloqmash" zavodi, ekskavator ta'mirlash zavodi, "Irmash" (hozirgi "ToshEKS" ishlab chiqarish birlashmasi) va boshqalar ishga tushurildi.

Qozog'iston va Turkmanistonda temir yo'l transporti, tog'-kon sanoatini ehtiyyot qismlari bilan ta'minlovchi korxonalar, mexanika ustaxonalarini tashkil etildi.

Markaziy Osiyoda mashinasozlik sanoati taraqqiyotini to'rt davrga yani urushgacha, urush davri, urushdan keyingi mustaqillikgacha va mustaqillik davrlariga bo'lish mumkin.

Urush davrida Markaziy Osiyoda mashinasozlikning sur'atlari va darajasi, tarkibi hamda ixtisosini sobiq Ittifoqning g'arbiy hududlaridan ko'chirib keltirilgan korxonalar hisobiga ancha o'zgardi. Birgina O'zbekistonga aviatsiya zavodi, "pod'emnik" va abraziv zavodlari, shuningdek Rostselmash kimyo mashinasozligi, "Krasniy - dvigatei" va boshqa zavodlar ko'chirib kelinib, asosan Toshkentda va Samarqandda joylashtirildi. Ular respublika mashinasozlik sanoatining tarkibi va ixtisosiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Urushdan so'nggi yillarda irrigatsiya qurilishi, ayniqsa, paxtachilik mashinalari ishlab chiqarish (O'zbekistonda tiklandi, kimyo, tog'-kon sanoati va xalq xo'jaligining boshqa

tarmoqlari uchun yangi asbob - uskunalar ishlab chiqarish boshlandi. Mashinasozlik va metallga ishlov berish sanoat korxonalari Qozog'istonda Kokchatau, Ust-Kamenogorsk, Qarag'anda, Toldiqo'rg'on, Almati, Kentau, Jusali, Aktyubinsk, Uralsk shaharlarida, O'zbekistonda - Toshkent, Chirchiq, Andijon, Samarqand, Buxoro, Nukusda, Qirg'iz Respublikasida - Bishkek, Tukmak, Oshda, Tojikistonda - Dushanbe, Qo'rg'on-tepada, Turkmanistonda - Krasnavodsk, Qizil-Arvat, Ashgabat, Chorjoy va Toshxovuz shaharlarida ishga tushurildi. Markaziy OSIYODA traktorsozlik va qishloq xo'jalik mashinalari ishlab chiqarishning yirik markazlari sobiq Selinograd, Semipalatinsk, Ust-Komenogrorsk, Povladarda, Toshkentda mavjud edi.

Mashinasozlik sanoati korxonalari tabiiy resurs omiliga bevosita bog'lanmaganligi uchun ko'proq xom - ashyo rayonida emas, balki, iste'molchiga yaqin hududlarda yaxshi rivojlantirildi.

Mustaqillik yillarda Markaziy Osiyo Respublikalarida mashinasozlik korxonalarining deyarli hammasida qaytadan ta'mirlash, zamонави texnologiyalar bilan jixozlash ishlari boshlab yuborildi. Natijada mashinasozlikda sifat o'zgarishlari yuz berdi va unumdorlik ortdi, yangi mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarilmoqda. Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iz Respublikasida mamlakat iqtidsodiyoti uchun zarur bo'lgan avtomobilsozlik, radioelektronika kabi sanoat tarmoqlari rivojlantirilmoqda, qishloq xo'jalik mashinasozligi, traktorsozlik, to'qimachilik mashinasozligi va boshqa mashinasozlik tarmoqlarining ishlab chiqarilish quvvati oshirilmoqda.

Markaziy Osiyo hududida mashinasozlik korxonalarining taraqqiyoti bugungi kunda va istiqbolda asosan xorijiy mamlakatlar bilan tuzilgan halqaro hamkorlik bilan bog'liq.

Mintaqadagi barcha respublikalarda bugungi kunga kelib halqaro hamkorlik asosida ish olib borayotgan mashinasozlik korxonalari yaxshi natijalarni qo'lga kiritmoqdalar. Buni

O'zbekiston misolida yaqqol ko'rish mumkin. Chunonchi 1992 yilda Janubiy Koreyaning DEU korparasiyasi bilan hamkorlikda Asaka shahrida "O'z DEU avto" qo'shma korxonasi, Rossiya bilan hamkorlikda "LIAZ" ishlab chiqarish birlashmasi (Samarqandda), O'zbekiston - Italiya qo'shma korxonasi ("O'z italmotor") shular jumlasidandir. Shuningdek, AQShning "Keys" firmasi bilan hamkorlikda yangi traktor va kombayinlar yig'ish yo'lga qo'yildi. 7 ta Qo'shma korxonalar barpo etildi ("Keys korporeyshin" kompaniyasi bilan hamkorlikda). Radioelektronika, elekrotexnika sanoatini birlashtirib turuvchi "O'zeltexsanoat" uyushmasida korxonalar Rossiya, AQSh, Singapur, Janubiy Koreya va boshqa davlatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishgan.

Markaziy Osiyo davlatlarining xorijiy mamlakatlar bilan olib borayotgan hamkorligi ijobiy natijalar bermoqda hamda bu hududda mashinasozlik sanoati tarmoqlarini rivojlanishini belgilamoqda.

## 5. MARKAZIY OSIYO QISHLOQ XO'JALIGI

Mintaqa xalq xo'jaligininig rivojlanishida qishloq xo'jaligi muhim ahamiyatga egadir.

Markaziy Osiyo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bo'yicha xilma-xildir. Mintaqa respublikalari o'rtasida hamda mamlakatlar ichkarisida ham ekin parvarishlash va agrar tuzilmalar bo'yicha tafovut bor. 1991 yildan buyon mintaqada ekin ekishning xilma-xil usullari ko'paydi, lekin ayrim mamlakatlar ma'lum darajada o'z ixtisosligini ham saqlab qoldi. Sovet ittifoqi paytda Markaziy Osiyo mamlakatlari ma'lum turdag'i ekin yetishtirishga ixtisoslashgan edi. Mintaqada Rossiya zabit etilgunga qadar asosan paxta yetishtirilgan. Biroq Rossiya hukmronligi va sovet davrining so'nggi yillariga kelib paxta yetishtirish hajmi sezilarli darajada oshgan. Turkmaniston, O'zbekiston va Tojikiston Sovet ittifoqida asosiy paxta yetishtiruvchi mamlakatlarga aylangan. Ayni paytda Tojikiston singari mamlakatlarda esa, asosan meva va sabzavot yetishtirilgan.

Bugungikundapaxtaavvalgidek Turkmaniston, O'zbekiston va Tojikiston iqtisodiyotining asosiy valyuta ekini hisoblanadi va uni yetishtirish ortiqcha qayta ishlovlar va qo'shimcha haq talab etmaydi. Oq oltin 1990 yillarda O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston iqtisodiyotiga salmoqli hissa qo'shdi: O'zbekiston paxta tarmog'i o'sha paytda mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 18 foizini egallagan edi. Turkmanistonda esa bu ko'rsatgich qariyb 25 foiz, Tojikistonda 10 foizni tashkil etgan. Bugungi kunda bu ko'rsatgich ancha pasaydi: paxta Tojikiston va O'zbekiston YalMning 5 foizini, Turkmanistonda – qariyb 2 foizni tashkil etadi. Janubiy Qozog'iston va Qirg'izistonning ayrim viloyatlarida ham paxta yetishtiriladi.

Bug'doy Markaziy Osiyodagi eng muhim ekin va mahsulot bo'lib, uni yetishtirish uchun ajratiladigan yer maydoni 1991 yildan buyon O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikistonda

tobora ortib bormoqda. Sovet hukumati davrida mazkur uch mamlakatdagi yirik xo'jaliklar asosan paxta va bug'doy yetishtirishga ixtisoslashgan edi. Ularning ayrimlarida al mashlab ekish kuzatilgan. Bugungi kunda ham bug'doy Markaziy Osiyoda tijorat fermerlari tomonidan asosan o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida yetishtirilayotgan asosiy ekinligicha qolmoqda. Qozog'iston mintaqada bug'doy yetishtirish bo'yicha yetakchi mamlakat hisoblanadi. Ushbu mamlakat Sovet hokimiyati paytida mintaqaning g'allaxonasi hisoblangan va bugungi kunda faqat Qozog'iston ushbu hududda bug'doya to'q davlat hisoblanib, u bug'doy (don) va unni qo'shni respublikalarga eksport qiladi. Shu bilan birga, Qozog'iston uni Tojikiston uniga qaraganda ancha sifatlari sanaladi ham. Tojikistonda bug'doya bo'lgan talabning teng yarmi Qozog'istondan keltirilgan mahsulot bilan qondiriladi.

Shuningdek, Markaziy Osiyo xilma-xil meva-sabzavotlari bilan ham mashhurdir. Mintaqaga muhiti va yeri bahordan kuz oylarigacha turli meva-sabzavotlarni yetishtirish imkonini beradi. Buyerda yetakchi tarmoqlar dehqonchilikda paxtachilik, donchilik, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavot va poliz ekinlari yetishtirish bo'lsa, chorvachilikda qo'ychilik, qoramolchilik, tuyachilik, yilqichilik, parandachilik yaxshi rivojlangan.

Markaziy Osiyoda keyingi paytlarda baliqchilik, asalarichilik va darrandachilik ham keng rivojlanib bormoqda.

Markaziy Osiyo davlatlarida vegetatsiya davridagi temperaturalar yig'indisi butun mintaqada bug'doy, makkajo'xori yetishtirishga, janubiy mintaqalarda esa qand lavlagi, tamaki, paxta, sholi, uzum yetishtirishga imkon beradi. Qozog'istonning shimoliy qismida iqlim va tuproq ancha yaxshi bo'lib, u yerda sug'ormasdan dehqonchilik qilinsa, markaziy qismlari esa cho'llardan iborat bo'lganligi sababli chorvachilikda foydalanish imkonini beradi. Mintaqaning janubiy qismlarida sug'orib dehqonchilik qilinadi. Qishloq xo'jaligida ayrim regional farqlar ham bo'lib, bular natijasida

O'zbekiston paxtachilik va don yetishtirishga, Qozog'iston don va chorvachilikka, Turkmaniston paxta va chorvachilikka, Tojikiston paxta va bog'dorchilikka, Qirg'iz Respublikasi esa mayin junli qo'ychilikka ixtisoslashgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning asosiy paxtasini yetkazib bersa, Tojikiston ingichka tolali paxtaning 50 foizini yetkazib beradi. Paxta bilan almashtirib beda, makkajo'xori ekiladi.

Lalmi yerlarda bug'doy, arpa yetishtiriladi, bular hatto baland tog'larda ham ekiladi. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarida qorako'l terisi (Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston) pilla (O'zbekiston, Tojikiston) yetishtirish ham yaxshi yo'nga qo'yilgan.

## 6. MARKAZIY OSIYO TRANSPORTI

Transport – xalq xo'jaligininig muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, xo'jalik va aholining yuklarga bo'lgan ehtiyojlarini o'z vaqtida taminlab turadi. Shuningdek, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylanishiga ta'sir ko'rsatadi. Xalq xo'jaligini transportsiz rivojlantirish mumkin emas, chunki transport sanoat bilan qishloq xo'jaligi o'rtasida ishlab chiqarish aloqalarini, mamlakatning turli rayonlari o'rtasidagi maxsulot almashinishi, uning ichki va tashqi aloqalarni ta'minlaydi.

Yangi hududlarni o'zlashtirishdan oldin ularga transport yo'llari o'tkaziladi. Transportning taraqqiyoti ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyoti bilan shuningdek texnikaning istiqboli bilan ham bog'liq. Transport qanchalik takomillashgan bo'lsada mamlakatning ichki qismida, shuningdek, jahon xo'jaligi miqiyosida ham ijtimoiy mehnatning hududiy taqsimlanishi taraqqiy etadi. Transportning taraqqiyoti mamlakatda va uning ayrim rayonlarida ishlab chiqarishning ixtisoslashuviga ta'sir ko'rsatadi. Transport mamlakatning siyosiy va madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega.

O'tmishga nazar tashlasak, Markaziy Osiyo hududidan "Buyuk ipak yo'li" o'tgan. Buyuk ipak yo'li g'arbiy Yevropani janubiy va sharqiy Osiyo bilan bog'lab turgan, uning shahobchalari Markaziy Osiyo hududi bo'ylab tarqalgan. Markaziy Osiyodagi halqlar bir-birlari bilan, shuningdek qo'shni hududlardagi xalqlar bilan ijtimoiy, madaniy aloqa qilganlar. "Buyuk ipak yo'li" ning ta'sirida yirik shaharlar, obod mahallalar barpo bo'lgan, madaniyat va ma'rifat taraqqiy etgan. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida dengiz yo'llarining ochilishi, shuningdek, yaqin va o'rta sharq mamlakatlarida vaziyatning keskinlashuvi oqibatida Buyuk ipak yo'lining Markaziy Osiyo hududidagi mavqeい pasayib borgan.

Chor Rossiyasi davrida Markaziy Osiyo hududlarining katta qismi bosib olinishi natijasida boy tabiiy va mineral resurslar

o'zlashtirildi. Mintaqa xom - ashyo yetkazib beruvchi o'lkaza aylantirildi. Natijada mintaqada transport aloqalari shakllandi. Dastlabki temir yo'llar Chor Rossiyasi davrida qurilgan bo'lib bu Turkmanboshi(Krasnovodsk)-Ashgabad-Chorjo'y-Kogon-Samarqand-Toshkent temir yo'lidi. O'zbekistonda temir yo'l qurulishi 1888 yilda boshlanib, Chorjo'y temir yo'l davom ettirilib Samarqandga olib kelingan, 1890 yilda esa temir yo'l Toshkentdan Andijonga yetkazildi. 1905 yilda Orenburg va Toshkent oralig'ida temir yo'l qurildi.

Sobiq ittifoq davrida 1931 yili Turksib temir yo'l magistralining (1445 km) ishga tushurilishi Markaziy Osiyoning iqtisodiy va madaniy hayotida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shunday qilib Markaziy Osiyo hududida Aris-Orenburg, Aris-Novosibrsk, Toshkent-Krasnovodskyo'nalishlaribir-birlaribilan bog'landi. Respublikamizning ichki hududlari ham temir yo'llar bilan ta'minlandi, natijada temir yo'l transportining zichligi ortib bordi. Jumladan, Qozog'istonda Petropavlovsk-Borovo temir yo'li Qarag'anda va Balxashga yetkazildi, Jarik-Jezkazg'an, Atiray-Orsk, janubiy Sibir temir yo'l magistrallari qurildi. Shuningdek, O'rta-Sibir magistrali (Kustanay, Ko'kchatov-Irtish-Karasuv) Baykal-Qo'ng'iroq (1972) va Makat - Aleksandr Gay temir yo'llari ishga tushurildi. Qirg'iz Respublikasida Lugovaya-Bishkek- Baliqchi; O'zbekistonda Chorjo'y- Qo'ng'iroq temir yo'li 1950-1955 yillarda, Navoiy - Uchquduq 1962 yilda, Termiz-Qo'rg'ontep-Yavon, Nukus - Chimboy (1990 yil), Tuyamo'yin - To'rtko'l va boshqa yo'nalishda temir yo'llar qurildi.

Sobiq Ittifoq davrida Markaziy Osiyo hududlarida shahar va qishloqlarni, tog'-kon sanoati markazlarini, chorvador tumanlarini birlashtiruvchi tranzit va mahалиy avtomobil yo'llari ham qurilib ishga tushurildi. Biroq bu temir yo'l, yoki avtomobil yo'li quvur hamda suv va havo yo'li bo'lsin, ular "markaz" ko'rsatmasi rejasi asosida barpo etildi. O'sha davrda mintaqadagi respublikalarning ixtiyorli markazning qo'lida edi. Shuning uchun ham ehtiyojdan kelib chiqqan holda biron

- bir transport tarmog'ining qurish va barpo etish "markaz" ko'rsatmasisiz mumkin emas edi. Bunga quvur transporti orqali gazlashtirishni misol qilib olsa bo'ladi.

Sobiq Ittifoq davrida transport yo'llarining zichligi ham respublikalarda bir xil emas edi. Masalan: har 1000 kv.km.ga to'g'ri keladigan temir yo'llar zichligi Qирг'из Respublikasida - 1,8 km, Turkmanistonda - 4,9 km, O'zbekistonda - 14,7 kmga, avtomobil yo'llarining zichligi Ukrainada 412,2 km bo'lgan holda, Turkmanistonda 43,2 km, Tojikistonda 133,4 km va O'zbekistonda 207,4 kmni tashkil qilgan.

Markaziy Osiyoda yuk va passajir tashishda temir yo'l transportining ahamiyati katta. Shuning uchun ham tranzit temir yo'llardan tashqari mahalliy temir yo'llar qurishga katta e'tibor berilmoqda. Transport yo'llarining ahamiyati respublikaning tabiiy sharoiti, ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir-biridan farqlanadi.

Masalan: Qирг'из Respublikasi va Tojikiston respublikalarida re'ef xususiyatini e'tiborga olganda avtomobil transportining hissasi salmoqlidir. Shuning uchun respublikalarda meridional va parallel yo'nalishdagi avtomobil yo'llarini qurishga katta e'tibor qaratilgan. Bunday avtomobil yo'llar Bishkek-O'sh, O'sh-Xorog, Dushanbe-Xorog, Dushanbe-Xo'jand, Toshkent-Termiz orasida, janubiy Turkmanistonda ham qurilgan. O'zbekistonda foydalilanidigan avtomobil yo'llarining uzunligi 43,4 ming km. Qozog'istonda avtomobil yo'llarining umumiyligi 96 000 kmdan ortiq. Asosiy Avtomobil yo'li magistrallariga Almati-Bishkek - Shimkent - Toshkent; Almati - Toldi Qurg'on - Ust - Kamenogorsk; Semipalatinsk - Pavlodor - Omsk yo'nalishlari kiradi.

Markaziy Osiyoda suv transpoti Balxash ko'lida, Amudaryo, Irtish, Ural kabi daryolarda mavjud. Markaziy Osiyo davlatlarini bog'lovchi Turkmanboshi porti dengiz transporti markazi vazifasini bajaradi. 1962 yilda Turkmanboshi - Baku paromi ochildi va undan har xil yuklar tashila boshlandi.

Amudaryo suv transportidan Tojikiston, Afg'oniston, O'zbekiston, Turkmaniston davlatlari foydalansa, Irtish daryosi transportidan Qozog'iston, Rossiya, Xitoy davlatlari foydalananishadi. Suv transportidda ayniqsa Kaspiy dengizining qisman Issiqko'lning ham salmoqli ulushlari bor.

Markaziy Osiyo hududida asosan Qozog'iston, O'zbekiston va Turkmanistonda, qisman Tojikiston va Qирг'из Respublikasida quvur trasporti rivojlangan. Jumladan O'zenden G'arbiy Qozog'istonga Atirau-Orsk, O'zen-Atirau-Sizran oralig'ida neft tashuvchi quvur transporti hisoblanadi. Neft tashuvchi quvur transporti O'zbekistonda dastlab 1908 yilda Chimyon neft konida Vannovsk (Oltiariq) neftni qayta ishslash zavodiga tortilgan. Respublikada uzunligi 100 km bo'lgan Ko'kdumaloq-Buxoro neft tashuvchi quvur transporti 1994-1997 yillarda qurilib ishga tushirildi. Eng uzun gaz tashuvchi quvur transporti markazda Turkmaniston, O'zbekiston va Qozog'iston hududlaridan o'tkazilgan. Nebitdog'-Krasnovosdsk (Turkmanboshi); Jarqoq-Buxoro-Samarqand-Toshkent; Muborak-Toshkent-Shimkent-Taraz-Bishkek-Olmaota shular jumlasidandir.

Markaziy Osiyoda havo transportining ham ahmiyati katta. Havo transporti respublikaning ichki qismlarini, shuningdek, respublikalar orasini hamda xorijiy davlatlarni birlari bilan bog'laydi va respublikalarning ijtimoiy, iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynaydi.

Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikga erishganlardan keyin transportning xo'jalikdagi va aholiga xizmat ko'rsatishni tubdan yaxshilash va transport boshqarish tizimini takomillashtirish masalalarida birqator ishlarni amalgaloshirishda ham chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Jumladan O'zbekistonda transport korxonalari davlat ishtirokida aksionerlik kompaniyalari, ochiq turdag'i aksionerlik, ma'suliyati cheklangan jamiyatlarga jamoa korxonalariga aylantirildi. Shuningdek, mamlakat mustaqilligi

va iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan, Xitoy, Koreya, Yaponiya, Eron, Turkiya va G'arbiy Yevropaning janubi bilan tutashtiriladigan TransOSIYO magistrali Istambul-Toshkent-Olmaota-Pekin qurilishida ishtirot etmoqda.

Respublika quruvchilari uzunligi 133 km bo'lgan Tajan-Seraxs temir yo'lini (133km) qurishda qatnashdilar. O'zbekiston Xitoya chiqish imkoniyatini beruvchi Andijon-O'sh-Ergashtom-Qashqar (1997), Xind okeaniga chiqishga imkon beradigan Toshkent-Termiz, Xitoy, Karachi (1995) avtomobil yo'li qurilishida qatnashdi.

Bunday hamkorliklar transportning boshqa turlari bo'yicha ham olib borilmoqda va ular ijobiy natijalar bermoqda.

Masalan: "O'zbekiston havoyo'llari" milliy aviakompaniyasi Germaniya, Fransiya, Rossiya firmalari bilan turli soxalarda hamkorlik qilmoqda. Shuningdek, Kaspiy bo'yida yangi portlar qurish, dengizda kema qatnovini yaxshilash bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida hamkorlik qilish hozirgi kunning eng muhim mavzusiga aylangan.

Markaziy Osiyo davlatlari o'z transportini takomillashtirish va rejalshtirishda ichki va tashqi aloqalarni kuchaytirishda hamkorlik shartnomalarini tuzishmoqda va yaratuvchanlik ishlarini amalga oshirishga harakat qilmoqda.

XXI asrning birinchi choragida Markaziy Osiyo hududida yagona transport tizimini vujudga keltirish uchun bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada Markaziy Osiyo davlatlarining ichki va tashqi ma'daniy, ma'rifiy, iqtisodiy va siyosiy aloqalari ortib boradi. Bu o'z navbatida mintaqada ishlab chiqarish kuchlarini jadal rivojlantirishga, samarali ixtisoslashuviga xizmat qiladi.

## 6.1 MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIGA XOS BO'LGAN UMUMIY MUAMMOLAR

Sobiq Ittifoqining parchalanishi natijasida mustaqil davlatlar shakllandi. Shu jumladan Markaziy Osiyo zaminida Qozog'iston, Tojikiston, Qирг'из Respublikasi, Turkmaniston va O'zbekiston davlatlari tarkib topdi. Ularni Mustaqil davlat sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va jahondagi juda ko'p mamlakatlar, nufuzli tashkilotlar tan olishdi, diplomatik munosabatlar o'rnatishdi. Tarixi, zamini, etnik kelib chiqishi, dini urf - odatlari, orzu - umidlari, maqsadlari, tabiiy sharoit va resurslari, istiqbol imkoniyatlari bir bo'lgan qozoq, qирг'из, tojik va o'zbek, turkman va qoraqalpoq halqlari yangi hayot qurishga va bu borada o'zaro hamkorlik, qilishga harakat qilmoqdalar.

Mazkur davlatlar uzoq hamda yaqin o'tmishda yaqin va yaxlit bo'lgan, A.Temur ta'kidlaganidek, ularning mulki Turon, millati turk bo'lgan. Markaziy Osiyo xalqlari jahon fani va ma'daniyatining rivojlanishiga juda katta hissa qo'shgan.

XX asrning 90 yillardan boshlab bu zaminda vaziyat o'zgardi. Dunyo siyosiy kartasida Mustaqil davlatlar tashkil topdi. Bu davlatlar hozirgi kunda va kelajakda ijtimoiy, ma'naviy jihatdan o'zaro bir-biriga yaqinlashishni hamkorlikni parchalanishga qarshi qo'ydilar. Tarixiy va zamin birligi, tenglik asosida iqtisodiy, texnikaviy va madaniy aloqalarni qayta tiklash va rivojlantirishga harakat qilmoqdalar.

Markaziy Osiyo davlatlari ma'lum bir geografik o'lkada joylashganligi uchun uning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari deyarli bir xil bo'lib, ba'zi tomonlardan bir oz farqlanadilar, shuning uchun ham bu o'lkaning tabiatini, tabiiy resurslarini, iqtisodiy va boshqa geografik imkoniyatlarini, davlatlar iqtisodiyotini rivojlantirish bilan bog'liq boshqa muammolarni alohida-alohida hal qilib bo'lmaydi. Markaziy Osiyo davlatlarida umumiylilik shu qadar ko'PKI, uni birgalikda qarash va birgalikda yechish davr taqazosidir.

Markaziy Osiyo hududining geografik o'rni va tabiiy resurslarini birgalikda o'rganish, ulardan foydalanishni hamda muammolarni birgalikda hal etish muhim ahamiyatga ega. Chunki ularning geografik va iqtisodiy jihatdan taqsimlanishi, mazmuni shu qadar o'ziga xoski, buni yakka tartibda yechib bo'lmaydi. Jumladan Markaziy Osiyoning tabiiy va iqtisodiy, madaniy, ichki va tashqi aloqalari mazmuniga, mohiyatiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan: Rossiya, Xitoy, Afg'oniston, Eron bilan, Kaspiy dengizi bilan bo'lgan chegara va qo'shnichilik aloqalarini olaylik. Shimolda Rossianing iqtisodiy jihatdan ancha rivojlangan Volga bo'yи, Ural, Shimoliy Kavkaz, G'arbiy Sibir kabi yirik iqtisodiy rayonlari bilan bog'langan. Bu ayniqsa Qozog'iston Respublikasining iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

Yoki Markaziy Osiyo davlatlari Kaspiy dengizi orqali Rossiya va G'arbiy Yevropadagi hamda O'rta dengiz bo'yи mamlakatlari bilan bog'lanish imkoniyatlariga egadirlar. Shuningdek, Xitoy orqali Tinch okeaniga, Eron, Afg'oniston, Pokiston orqali Osiyoning janubidagi davlatlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlariga egadirlar.

Markaziy Osiyo hududining g'arbiy qismini yirik neft-gaz mintaqasi kesib o'tgan. U Sayyoramizdag'i yirik neft-gaz mintaqasi (Fors qo'lting'idan toki G'arbiy Sibirigacha cho'zilgan) tarkibiga kiradi. Shuningdek MDHdagi tabiat resurslarining 2-4 foizi, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 47 foizi, va haydaladigan yerlarning 20 foizi shu o'lkada mavjutdir. Mintqa uchun suv resurslarning tanqisligi xos bo'lib, bu borada Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston qulay imkoniyatga ega.

Markaziy Osiyo davlatlari uzoq yillar davomida xom-ashyo yetkazib beruvchi mavqega ega bo'lgan. 80- yillarda Sobiq SSSR sanoat maxsulotining 5 foizi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini 16 foiziini ishlab chiqargan. Shuningdek sanoatda texnologik siklning to'liq darajaga ega emasligi, uning tugallanish darajasi unchalik rivojlanmaganligi bilan ajralib turgan. Shuning uchun

ham bularni mustaqilik yillarida yaxshilash har bir davlatning, qolaversa, shu mintaqadagi barcha mamlakatlarning hal etilishi lozim bo'lgan muammoli vazifasidir.

Resurslarning zahirasi taqsimlanishi ulardan foydalanishni birgalikda olib borishni taqazo etadi. Masalan Amudaryo suvidan foydalanish faqat O'zbekiston uchun emas shu jumladan Tojikiston va Turkmaniston uchun, Sirdaryo suvidan foydalanish faqat O'zbekiston uchun emas, balki Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston Qozog'iston uchun ham muhimdir. Bunday foydalanish barcha tabiat resurslari uchun ham xos. Jumladan Qoraqum va Qziliqum, Kaspiy va Orol dengizlaridan foydalanish neft va gaz hamda boshqa foydali qazilmalarni qazib olish va ulardan foydalanish Markaziy Osiyodagi barcha davlatlarning birgalikda hal qilish lozim bo'lgan ishidir. Yoki qishloq xo'jaligining chorvachilik, donchilik hamda texnika ekinlarini rivojlantirish uchun Markaziy Osiyodagi davlatlar o'z maqsadlaridan kelib chiqqan holda birgalikda ish olib borishlari lozim.

Markaziy Osiyo hududi xilma – xil shakl va ko'rinishga ega bo'lgan yer sayyorasining bir qismi bo'lib, unda kechadigan hodisa va jarayonlar tabiatga, butun borliqqa xos bo'lgan qonuniyatlar asosida sodir bo'ladi. Shulardan biri Markaziy Osiyo hududi bo'lib, uning asosiy qismi dunyodagi eng katta berk havzaning (Evroosiyo materigida) markazida joylashgan. Hududda kechadigan hodisa va jarayonlar berk havzaga xos bo'lgan qonuniyatlar bilan bog'liq.

Shuning uchun, berk havzaga xos bo'lgan qonuniyatlarini bilish ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga ega. Bilish asosidagina biz Markaziy Osiyo hududidagi ijtimoiy – iqtisodiy va ayniqsa, ekologik muammolarni bartaraft qilishimiz mumkin.

Markaziy Osiyo hududi umumiylar maydoning 90 foizdan ortiq qismi berk havzadan iborat. Hozirgi kunda bu hududda o'ziga xos ijtimoiy iqtisodiy va ekologik muammolar vujudga kelgan. Ularning kelib chiqish sabablari unga ta'sir etgan omillarni,

shuningdek ularni optimallashrtirish uchun ko'rileyotgan va qo'llanilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini o'rganish, tadqiqotlar olib borish hozirgi kun taqozosidir. Shu davrning asosiy muammolari Markaziy Osiyo hududida quyidagilardir:

**Ijtimoiy demografik muammolar** Markaziy Osiyodagi eng muhim muammo bo'lib hisoblanadi. Chunki Markaziy Osiyo hududida 80 milliondan ortiq kishi yashamoqda. Tabiiy o'sish aholining zichligi-joylashuvi, bilimdonlik darjasи, kasbi, mehnat resurslari bilan, ish bilan ta'minlanganligi va boshqa demografik ko'rsatkichlar respublikalarda turlicha. Shuningdek iqtisodiyotda rivojlanish darjasи moddiy texnika ba'zasi va ishlab chiqarish texnologiyasi bir xilda emas.

Kishilarning tabiatga va ishlab chiqarishga bo'lgan munosabati va ta'siri ham boshqa - boshqa. Ba'zi hududda ishlab chiqarish kuchlari, mehnat vositalari, xo'jalik tarmoqlari moddiy texnika ba'za to'planib qolgan, boshqa bir joyda esa uning aksi. Oqibatda inson-jamiyat-tabiat o'rtasidagi o'zarо munosabatda nomutanosibliklar bo'ladi. Bu hol ham tabiiy, ham ijtimoiy ekologik muammolarni vijudga keltirmoqda, buni biz O'zbekistonda, Qozog'istonda va boshqa respublikalarda ham ko'rmoqdamiz.

**Iqlim bilan bog'liq muammolar** keyingi 10-15 yil orasida xududda ilish kuzatilmоqda ( $\text{CO}_2$  konsentrasiyasining ortishi va antropogen omillar asosida). Suvga bo'lgan talab keyingi chorak asrda ortib borayotir. Sug'orib ekiladigan yerlar maydoni 1,5 barobarga ko'payib, hozirgi kunda bирgina O'zbekistonda 4,5 mln ga dan ortib ketdi. Oqibatda yirik daryolarimiz suvlari Orolga to'liq bormasligi natijasida Orol dengizi qurib bo'ldi.

Natijada harorat 1,5 gradusga ortdi, nisbiy namlik 10-15 foizga kamaydi. Orol, Orol atrofi va Orol havzasida ekologik muammolar vujudga keldi.

Yer usti suvlaringin ekologiyasida o'zgarishlar yuz berdi. Agarda daryoni suvi Markaziy Osiyo regionida 125-128 kub/ km ni tashkil etgan bo'lsa, shundan qishloq xo'jaligida 110

kub/km suv foydalanilmoqda. Natijada 35-38 kub km suv yuqori darajada mineralashib qoldi. Mineralashgan suvlar yana daryolarga va boshqa suv havzalariga quyilmoqda. Sanoat chiqindilari, tashlandiq suvlar toza suvning ifloslanishiga sabab bo'lmoqda.

Yer resurslaridan foydalanish va tuproqlarning ekologik holatida ham o'ziga xos ko'rsatkichlar mavjud. Tog' kon sanoatining rivojlanishi bilan antropogen buzilgan landshaftlar vujudga keldi va kelmoqda. Faqat O'zbekistonda 1956-1960 yillarda shamol eroziysi natijasida 200.000 hektar maydon paxtazorlar nobud bo'lgan.

Tuproqqa ishlov berishning qoloq usullaridan foydalanish natijasida tuproqning zichlashuvi kuchaydi, hosildorlik kamayib ketish hollari kuzatilmоqda. Pestisid va boshqa mineral o'g'itlarning tuproqqa ta'siri ularning meyoridan ortiqcha ishlatilishi natijasida ortib bordi.

Masalan: paxtachilikni rivojlantirish uchun O'zbekistonda har hektar yerga 300kg azot, 200kg fosfor, 110 kg kaliy o'g'itlari solinadi. Ayrim joylarda undan ham ko'p foydalaniladi.

Sug'orishni to'g'ri tashkil etmaslik va suvdan noto'g'ri foydalanish oqibatida ham suv resurslarini, sug'oriladigan yerlarning egologik holati yomonlashdi, chuchuk suv tanqisligi yuzaga kelmoqda. Su'niy sug'orish natijasida inson tabiatga juda katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Masalan: paxta suvni ko'p talab qiladi. Har hektar ekin maydoniga 5-8 ming kub metr suv sarf qilinadi. Birgina O'zbekistonda chigit ekilgan maydon 1,3 mln ga atrofida. Sug'orish tizimini to'g'ri tashkil etmaslik natijasida dala maydonlariga berilayotgan suvning yarmi yetib bormaydi. Mutahassislarining hisoblashlaricha Markaziy Osiyoning ba'zi bir joylarida me'yoriy suvga nisbatan 5-7 marta ko'p suv sarflanmoqda. Natijada yer sho'rlanishi kuchaymoqda va ayniqsa O'zbekiston, Turkmaniston hududlaridagi har 3 ta sug'orma yerlarga 1 ga sho'rangan yer to'g'ri keladi.

Chuchuk suv yetishmasligi muammosi turgan bir vaqtida shaharlarda suvdan foydalanish me'yorlari oshgan holda buzilmoqda. Me'yorga nisbatan Dushanbeda 1,6 martaga, Toshkentda 2,0 martadan ko'p, Buxoro va Navoiy viloyatlarida 3,0 marta ko'p chuchuk suv iste'mol qilinmoqda.

Tuproqlarning pasporti (xossa va xusiyatlarini tafsilotlari yig'indisi) ilmiy asosda o'rganilmay turib, ularning suvgaga bo'lgan talabchanligi hisobga olinmay turib, nazoratsizligi oqibatida behudaga suvlar sarflanmoqda. Natijada yerlarning melliorativ holati yomonlashdi. Jumladan, 1 hektar sug'oriladigan yerga o'simlik turlarini inobatga olgan holda o'rtacha 7-10 ming kub/metr suv sarflanishi kerak bo'lgan holda, nazoratsizlik oqibatida Turkmanistonda-20; Qozog'istonda-17.5; O'zbekistonda-15; Tojikistonda-14.5 ming kub metr suv sarflangan. Bu kabi salbiy holatlarni va yuzaga kelgan ekologik muammolarni hayvonot olami, o'simliklar dunyosi diqqatga sazovar landshaftlar misolida ham keltirish mumkin va hokzo.

Markaziy Osiyo hududida tabiat-inson-jamiyat antropogen landshaft munosabatlarini yurgizishda juda katta extiyotkorlik bilan ish olib borish kerak. Shuning uchun, birinchi navbatda berk havzaga xos bo'lgan tabiiy va ijtimoiy qonunlarni bilib olish, tabiatning insonga, insonning tabiatga ta'siri, sir asrorlarini ilmiy amaliy, tadqiqotlar orqali to'g'ri anglab yetish, tabiiy va ijtimoiy sharoitlarni ilmiy asoslab o'rganish va pasportini tuzish, ekologik ta'lif, tarbiya va madaniyatni yaxshilash, berk havzadagi hodisa va jarayonlarni, resurslarni dunyo mezoni bo'yicha baholashni bilish zarurdir.

## 7. MARKAZIY OSIYO TASHQI IQTISODIY ALOQALARI.

Markaziy Osiyo mamlakatlariga jahon mamlakatlari tovar oborotning taxminan 10 foizi to'g'ri keladi. Bundan tashqari Markaziy Osiyo davlatlari so'nggi yillarda qishloq xo'jalik hamda tabiiy resurslar bilan ham tashqi iqtisodiy aloqalarni ancha rivojlantirib bormoqda. Qozog'iston o'zining geosiyosiy mavqeい, tarixiy va iqtisodiy rivojlanishi tufayli tashqi iqtisodiy aloqalarni va birinchi navbatda savdoni rivojlantrish imkoniyatiga va ehtiyojlariga ega. Qozog'iston Respublikasi eksporti asosan energetika va xom ashyoga tegishli. So'nggi paytgacha Qozog'iston har yili umumittifoq fondiga 10-12 million tonna don, 300 ming tonnadan ortiq go'sht, 270 ming tonna sut eksport qildi. Mamlakatlar o'rtaqidagi savdo aloqalarining sabablari iqtisodiy va tabiiy resurslar, teng taqsimlanmaganligi, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish yangi texnologiyalarni talab qilgan. Shuning uchun Qozog'iston dunyoning boshqa mamlakatlari bilan savdo aloqalariga muhtoj. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, eksport salohiyatini rivojlantrish muvaffaqiyat garovidir. Hozirda Qozog'iston tashqi savdo aloqalarini quyidagilar bilan amalga oshirmoqda:

Dunyoning 70 dan ortiq mamlakatiga turli xil maxsulotlar eksport qiladi. Eksportchilar orasida AQSh, Angliya, Germaniya, Shveysariya va boshqalar bor. Qo'shma korxonalar, tarmoqlararo va tashqi iqtisodiy uyushmalar tashkil etilmoqda. Qozog'iston tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanishi haqida gapirganda, uchta yo'nalishni shartli ajratish mumkin.

Birinchisi, "do'stlik va yaxshi qo'shnichilik" zonasini deb ataladi, unga MDH va Rossiya davlatlari, Markaziy Osiyodagi qo'shnilar kiradi. Qozog'istonning deyarli barcha tashqi savdo aylanmasi ushbu mamlakatlarga to'g'ri keladi. Va hozirgi kunga qadar respublikaning deyarli 90 foiz eksporti va 80 foiz importi ushbu mamlakatlar bilan savdoga to'g'ri keladi.

Ikkinchisi - Qozog'iston atrofida tinchlik, ishonch va o'zaro

tushunish kamarini yaratishga yo'naltirilgan yo'nalish, bu uch tomonlama hamkorlikning eng kuchli bo'g'inlaridan biri bo'lishi mumkin bo'lган Xitoy, Turkiya, Eron, Pokiston, Janubiy Koreya, Hindiston, Yaponiya va boshqa mamlakatlarni o'z ichiga oladi.

Uchinchi yo'nalish - AQSh, Germaniya, Angliya, Fransiya, Belgiya, Kanada va boshqa mamlakatlarni o'z ichiga oladi, keyinchalik "G'arbning Sharqdan ajralmasdan yaqinlashishi" formulasiga o'zgartirish kiritildi. Bundan tashqari, AQSh, Germaniya, Avstriya, Fransiya va Angliya bilan aloqalar Qozog'iston tashqi iqtisodiy siyosatidagi ustuvoryo'nalishlarning mohiyatini saqlab qolishi kerak. Qozog'istonning har uchala sohasidagi munosabatlarni rivojlantirish davlat va milliy manfaatlardan kelib chiqadi va buning natijasi Qozog'iston iqtisodiyotining ko'tarilishi bo'lishi kerak.

Tashqi iqtisodiy aloqalar. Qozog'iston xalqaro iqtisodiy munosabatlarning to'la huquqli sub'ehti. Hozirgi vaqtida sherik mamlakatlar doirasi sezilarli darajada kengaytirildi va ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatildi. Respublika ishonchli ravishda jahon bozoriga integratsiyalashuv sari intilmoqda. Qozog'istonning savdo sheriklari ham Yevropa mamlakatlari, ham Osiyo mintaqasi davlatlari, Amerika, Afrika va Avstraliya mintaqalari hisoblanadi.

1997 yildan boshlab Qozog'iston tashqi savdosi geografiyasida MDHdan tashqari davlatlar bilan aloqalarni kengaytirish tomon sezilarli o'zgarish yuz berdi va bu respublikaning tashqi iqtisodiy faoliyatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi. Binobarin, mamlakat iqtisodiy rivojlanishini modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilish Qozog'iston davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirgi bosqichda Qozog'iston tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bu Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikni yanada rivojlantirishdir. Ushbu yo'nalishni amalga oshirish, ayniqsa, Yevropa Ittifoqining kengayishi va uning Qozog'iston

Respublikasi bilan siyosiy muloqotni faollashtirishga tayyorligi bilan bog'liq. Ayni paytda Qozog'iston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlар barqaror va uzoq muddatli bo'lib kelmoqda. Qozog'iston - Yevropa Ittifoqining Markaziy OSIYO va MDHdagi eng yirik savdo sherigi. Xususan, o'zaro manfaatli aloqalar neft-gaz kompleksi sohalarida eng jadal rivojlanmoqda. Kelajakda Qozog'iston Kaspiy neft va gaz manbalarini Yevropa bozorlariga yetkazib beradigan eng yirik davlatga aylanadi.

Bundan tashqari, transport, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida savdo-iqtisodiy aloqalar kengaymoqda. Qozog'iston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi o'zaro savdo hajmining dinamikasini tahlil qilish uning rivojlanishida ijobjiy tendensiya mavjud degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Rossiya Qozog'iston uchun strategik va asosiy savdo sheriklaridan biri, Qozog'iston iqtisodiyotining barqaror va doimiy investoridir. Xususan, o'zaro savdo aylanmasining ulushi respublika tashqi savdo hajmining 20 foizini tashkil etadi.

Qozog'iston nefti Atirau-Samara quvuri orqali tashiladi. Qayd etilayotgan neftning yillik hajmi 15 million tonnani tashkil etadi, shuningdek, mamlakat Kaspiy quvur liniyasi konsorsiumining asosiy aksiyadorlari hisoblanadi. Bugungi kunda ham Qozog'iston neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkilotiga (OPEK) Yevropa Ittifoqi bozoriga a'zo bo'lmagan mamlakatlar orasida uchinchi (Rossiya va Norvegiyadan keyin) yirik eksportchi hisoblanadi.

Qozog'iston gazini ishlab chiqarish va sotish hajmining oshishi munosabati bilan Rossiyada gazni qayta ishlash va uning eksporti uchun Rossiya transport infratuzilmasidan foydalanish bo'yicha hamkorlik faollashdi. Qorachaganak konidan gazni qayta ishlashga mo'ljallangan Orenburg gazni qayta ishlash zavodini yaratish katta ahamiyatga ega. Kelajakda Qozog'iston gazini qayta ishlash hajmi 15 milliard kubometrni tashkil qilishi kerak. Markaziy Osiyo gazini tashish sohasida Rossiya va Qozog'iston birgalikda Markaziy Osiyo - gaz transport tizimini

modernizatsiya qilish loyihasida ishtirok etmoqda. Xususan, gaz quvurlari tizimini qayta qurish dasturi doirasida hozirgi vaqtida quvvati mavjud 54,6 milliard kubometrdan bosqichma-bosqich oshirish ko'zda tutilgan bo'lib yiliga 80 milliard kubometrgacha yetkaziladi.

Xitoy Qozog'istonning yana bir yirik savdo sherigidir. Mamlakatlar o'rtaqidagi savdo-iqtisodiy aloqalar juda jadal rivojlanmoqda. Bugungi kunda Xitoyning Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa davlatlari bilan tashqi savdosida Qozog'iston Rossiyan dan keyin ikkinchi o'rinni egallab turibdi. Ayni paytda ikki tomonlama hamkorlikning ustuvor yo'nalishi, shubhasiz, energetikadir. Bugungi kunda Qozog'iston-Xitoy neft quvuri loyihasining ikkinchi bosqichi - Kenkiyak-Qumkol neft quvuri qurilishini amalga oshirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

O'tgan 2020 yilda Qozog'iston tashqi siyosati juda samarali va muvaffaqiyatli bo'ldi. Diplomatik faollikning barcha darajalarda kuchayishi davlatning nafaqat kuchli mintaqaviy kuch sifatida, balki global farqlar va nizolarni hal qilishda ta'sirchan omil sifatida nufuzini mustahkamladi.

Butun dunyo singari, avvalambor, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va ichki siyosiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan Qozog'iston diplomatiyasining haqiqiy samaradorligi ko'rsatkichlaridan biri bu Qozog'iston iqtisodiyotiga jall qilingan katta hajmdagi investitsiyalardir.

Qirg'iz Respublikasining tashqi savdo aylanmasi, shu jumladan jismoniy va yuridik shahslar tomonidan amalga oshirilgan eksport-import operatsiyalari hajmisoddalashtirilgan tartibda hisobga olingan 7503,9 million AQSh dollarini tashkil etdi, bu 2016 yildagidan 26,6 foizga yuqori. Ushbu davrda savdo balansining salbiy saldosi 3648,7 million dollarni tashkil etdi. Qirg'iz Respublikasi dunyoning 145 mamlakati, shu jumladan Qozog'iston bilan savdo-sotiq olib bordi. Ularning aksariyati bilan savdo aloqalari Jahon Savdo Tashkiloti doirasida bo'lib, Qirg'iz Respublikasi to'laqonli a'zosi hisoblanadi, integratsiya

guruhlari bo'yicha: MDH, YevroOSIYO, ShHT, EKO, OCAS. Biroq, oltindan tashqari tovarlarning G'arbiy Yevropaning qimmat va to'lovga qodir bozoriga chiqishi hali ham cheklangan. Sanoat mahsulotlari va boshqa tovarlarni eksport qilishda Qirg'iz Respublikasi MDH davlatlari o'rtaqidagi savdo-sotiqni egallaydi, birinchi navbatda Qozog'iston va Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keladi. Qirg'iz Respublikasining MDH davlatlariga eksportining umumiyligi hajmida Qozog'iston 28,4% "289,7 million dollar" ni egallaydi. Uning solishtirma og'irligi 23,8 foiz, sabzavot va mevalar - 20,7 foiz, sut mahsulotlari - 10,5 foiz, noorganik kimyoviy moddalar - 9,8 foiz. Qozog'istonga tovarlarni eksport qilish hajmining 1,6 barobar o'sishiga noorganik kimyoviy moddalar yetkazib berish 2,8 barobar, avtomobillar 2,3 barobar, elektr energiyasi 42,6 foizga ko'payganligi sabab bo'ldi. Shu bilan birga, parranda tuxumlarini yetkazib berish deyarli ikki baravar kamaydi. Qirg'iz Respublikasi 2021 yilda dunyoning 81 mamlakatiga eksport yetkazib berishni amalga oshirdi. Eksportning asosiy qismi Shveysariya, Birlashgan Arab Amirliklari, Rossiya va Qozog'istonga to'g'ri keldi. Qozog'istonga eksport qilinadigan tovar tarkibida tirik hayvonlar, hayvonot va o'simlik manbalaridan mahsulotlar ustunlik qildi. Qirg'iz Respublikasining asosiy import sheriklari Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog'iston, O'zbekiston, Germaniya va boshqalardir. MDH mamlakatlaridan importning umumiyligi hajmidagi Qozog'istonning ulushi 411 390,0 ming dollarni yoki 22,5 foizni tashkil etadi. Importning asosiy turlari bug'doy, mazut, ko'mir, dizel yoqilg'isi, benzin, noorganik kimyoviy moddalar va turli xil mahsulotlardir. Shuni ta'kidlash kerakki, eksport uchun raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish ko'p jihatdan energiya manbalarining importiga, ularning narx siyosatiga, shuningdek Qirg'iz Respublikasida ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan oraliq mahsulotlarga (mashina va uskunalar) bog'liqdir.


Jahon inqirozi uchta neft va gaz eksport qiluvchilarni (Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekiston) va ikkita

neft va gaz import qiluvchilarni (Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston) o'z ichiga olgan Markaziy Osiyoga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ushbu mamlakatlarda moliyaviy bozorlar nisbatan zaif bo'lishiga qaramay, inqiroz mintaqadagi tovarlarning pasayishiga ta'sir qildi va eksport talabi ayniqsa, Rossiyadan tushadigan pul tushumini kamaytirdi. Rossiyaning iqtisodiy roli Sovet Ittifoqi qulaganidan keyin ham Markaziy Osiyoda va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining qolgan qismida muhim bo'lib qolmoqda. Markaziy Osiyo davlatlarining aksariyati shimoliy qo'shnilarining pul o'tkazmalariga bog'liq. Rossiya va Qozog'istonagi hozirgi tanazzul qo'shni mamlakatlardan bir milliondan ikki milliongacha ishchilarning ishdan bo'shatilishiga olib keldi. Qirg'iz Respublikasidagi YalMning uchdan bir qismi va Tojikistondagi YalMning yarmi chet eldan pul o'tkazmalariga to'g'ri keladi. Qozog'iston jahon moliya bozoriga yaqin integratsiyasining muhim oqibatlarini boshdan kechirdi; xususan, bank tizimiga AQShdagi moliyaviy inqiroz sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Bunga javoban hukumat bankrotlikdan qutulgan banklar va qurilish kompaniyalarini qo'llab-quvvatlashdan tashqari, milliy valyuta bo'lgan tengeni mustahkamlash uchun 45 milliard dollarlik yalpi ichki mahsulotning uchdan bir qismini sarfladi. Qirg'iz Respublikasidagi moliya sektorining katta qismida Qozog'iston banklari hukmronlik qilmoqda va bu Qirg'iz Respublikasi YalM o'sishining pasayishiga yordam berdi. Garchi O'zbekistondagi bank sektori yuqori darajada markazlashgan davlat idorasi tomonidan boshqarilsada, unga Qozog'istonning bank va kredit berish tartiblari ham ta'sir ko'rsatdi. Turkmaniston moliya sektori ham tobora avtoritar davlat nazorati ostida. Turkmaniston tabiiy gaz va paxta eksportidan olinadigan daromadlarni, shuningdek sobiq vatanparvarlarning pul o'tkazmalarini qayta ishslash bo'yicha muhim operatsiyalarini amalga oshirmoqda. Aksincha, Tojikiston juda qashshoq bo'lib qolmoqda, bu esa global moliya tizimiga yaxshi integratsiya

qilish istiqbollarini pasaytiradi. Xulosa qilib aytish mumkinki, Markaziy Osiyo mamlakatlari global inqirozga javoban tegishli siyosat choralarini ko'rdilar, shu jumladan valyuta tushumini kamaytirish uchun valyuta qadrsizlanishi, pul yumshatish va kredit inqirozini cheklash uchun qisqa muddatli likvidlikni boshlash va boshqa moliyaviy stimullar. Shu bilan birga, ushbu mamlakatlarga raqobatdosh bo'lib qolish va milliy valyutani qadrlash uchun valyuta kursining moslashuvchanligini ta'minlash kabi qo'shimcha choralarни ko'rishni tavsiya qiladi; kambag'allarni himoya qilish uchun ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlarini takomillashtirish; moliya tizimining zaifliklari va tarmoq xatarlarini kamaytirish uchun qattiqroq bank nazoratini joriy etish va boshqalar.

Markaziy Osiyo hududida yagona transport tizimini vujudga keltirish uchun bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu o'z navbatida Markaziy Osiyo davlatlarining ichki va tashqi ma'daniy, ma'rifiy, iqtisodiy va siyosiy aloqalarini ortib borishiga, hamda mintaqada ishlab chiqarish kuchlarini jadal rivojlantirishga, samarali ixtisoslashuviga xizmat qiladi.

## 8. QOZOG'ISTON RESPUBLIKASI



Qozog'iston respublikasi bayrog'i va gerbi



Qozog'iston respublikasining kosmik surati va xaritasi




Qozog'iston respublikasi 1991 yil 16 dekabrda mustaqil davlat sifatida butun dunyo davlatlari tomonidan tan olindi. Hozirgi kunda Qozog'iston Birlashgan Millatlar tashkilotining teng huquqli a'zosidir. Qozog'iston respublikasi MDH davlatlari orasida hududining kattaligi bilan ajralib turadi. Uning maydoni  $2,7 \text{ mln.km}^2$  bo'lib, MDH davlatlari orasida Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda, dunyoda esa to'qqizinchiligi o'rinda turadi (Rossiya, Kanada, Xitoy, AQSh, Braziliya, Avstraliya, Hindiston va Argentinadan keyin).

Uning hududiga Eron, Iraq, Turkiya kabi davatlarni to'liq joylashtirish mumkin. Qozog'iston hududi Kaspiy dengizidan Oltay tog'lari gacha, Ural tog'laridan Tyanshangacha cho'zilib ketadi. Uning sharqiy va g'arbiy chekka nuqtalari orasidagi masofa qariyb 3000 km ni, shimoliy va janubiy nuqtalari orasidagi masofa esa 1700 km ga yaqinini tashkil etadi.

### Hududiy bo'linishi

Qozog'iston 17 ta viloyatdan va 3 ta respublika ahamiyatiga ega shaharlardan iborat.



Respublikaning chekka qismlari xo'jalikning xarakteri jihatidan qo'shni mintaqalarga o'xshaydi. Shimoliy va sharqiy

rayonlar G'arbiy Sibirni, Shimoliy G'arbi - Uralni, Janubi - O'rta Osiyoni eslatadi. Respublika maydonining kattaligi tabiiy resurslar zaxiralarining va shu jumladan qishloq xo'jalik ekin maydonining kattaligiga olib kelgan. Bu esa o'z novbatida respublika xalq xo'jaligini keng yo'nalishda rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birgalikda respublika maydonining o'ta kattaligi, bu yerdagi tabiiy resurslarni o'zlashtirishda ma'lum darajadagi qiyinchiliklarga olib keladi. Bunday qiyinchiliklar respublikaning turli qismlarida shahar va qishloq aholisi turar joyini ko'rishda, ularni bir-biri bilan transport va boshqa aloqa vositalari bilan bog'lashda yaqqol seziladi. Bunday ishlarni amalga oshirish katta kapital mablag'ni talab qiladi.

Qozog'iston Respublikasining hozirgi hududi Respublika Konstitutsiyasida qayd etilganidek, hozirgi chegarada bir butun, mustaqil va dahlsizdir. Qozog'iston Respublikasi barcha Markaziy Osiyo davlatlari kabi Yevroosiyo materigining qoq o'rtasida, Atlantika, Tinch va Hind okeanlaridan uzoqda joylashgan.

Shu sababli ham Qozog'iston respublikasida keng rivoj topgan dasht, chala cho'l va cho'l zonalari o'zining quruq va kontinental iqlimga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Iqlimning quruq va kontinentalligi sababli respublika qishloq xo'jaligida yaylov chorvachiligi va donchilik asosiy yerlarni egallaydi. Respublikaning ko'pchilik joylarida suv yetishmasligi ko'pgina qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarining, shu jumladan rangli va qora metallurgiya sanoat tarmoqlarini joylashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Respublikaning iqtisodiy geografik o'rnini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki u O'rta Osiyo davlatlari bilan, ayniqsa O'zbekiston Respublikasi bilan katta masofada chegaradoshligi, ushbu Respublika bilan keng ko'lama iqtisodiy aloqalar olib borish imkoniyatini beradi.

Qozog'iston Respublikasi g'arb va shimol tomonidan

Rossiya bilan chegaradosh. Bu esa Respublikaning Rossiya federatsiyasi bilan ham keng ko'lama iqtisodiy aloqalar olib borish imkoniyatini beradi.

Qozog'iston Respublikasining iqtisodiy geografik o'rnini baholashda shu narsani qayd qilish lozimki, 30-yillarga qadar uning iqtisodiy geografik o'rni ancha noqulay edi. Chunki, Qozog'iston Respublikasi iqtisodiy jihatdan yaxshi rivojlangan Rossiya Federatsiyasining Markaziy, Ukrainianing Donbas-Dnepr bo'yи iqtisodiy rayonlaridan uzoqda joylshgan. O'sha vaqtda respublikada temir yo'l tarmoqlari yaxshi rivojlanmaganligi sababli iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishda ancha qiyinchiliklarga duch kelinar edi. Hozirgi kunga kelib Respublikaning iqtisodiy-geografik o'rnining ahamiyati keskin ortdi. Qozog'iston g'arb va shimolda Rossiya Federatsiyasining iqtisodiy jihatdan kuchli rivojlangan G'arbiy Sibir, Volgabo'yи iqtisodiy rayonlari, janubda O'rta Osiyo Respublikalari bilan chegaradosh. Qozog'istonning O'rta Osiyo Respublikalari (O'zbekiston, Qirg'iz Respublikasi, Turkmaniston va Tojikiston) bilan qadimdan qo'shnichilik aloqalari 30-yillardan keyin respublikada temir yo'l tarmoqlarini o'tkazishi hamda respublika hududida qator boy temir rudasi konlarining ochilishi va ishga tushirilishi iqtisodiy aloqalarining yanada kuchayishiga olib keladi.

Qozog'iston Respublikasi hozirgi kunda ham Rossiya Federatsiyasi va Orta Osiyo Respublikalari o'rtasida hamda Xitoy va G'arbiy Yevropa davlatlari o'rtasida iqtisodiy aloqalarini olib borishda tranzit rolini o'ynaydi. Chunki O'rta Osiyo Respublikalarini va Xitoyni Rossiya Federatsiyasi va G'arbiy Yevropa davlatlari bilan bog'laydigan ko'pgina temir yo'l va avtomobil yo'llari Qozog'iston Respublikasi hududidan o'tadi. Bu esa respublika iqtisodiyotida muhim ahamiyatga egadir. Barcha Markaziy Osiyo davlatlari kabi Qozog'iston ham ochiq dengizga tutash emas, bu esa uning iqtisodiy aloqalarining yanada rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

## 8.1 TABIIY SHAROITI VA RESURSLARI

Tabiiy sharoiti-issiqlik, iqlim, re'lef, tabiiy resurslar qazilma boyliklar, suv, o'simlik, yer resurslari va hayvonot olami resurslari har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Har bir davlat hududida joylashgan tabiiy resurslar asosida ushbu davlatda sanoat, dehqonchilik, chovachilik, baliq, o'rmon sanoati kabi tarmoqlar tarkib topadi. Shu bilan birgalikda har bir joy tabiiy sharoiti sanoatda ham qishloq xo'jaligida ham to'g'ridan-to'g'ri foydalanilmaydi. Joyning tabiiy sharoiti u yoki bu ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun qulay yoki noqulay bo'lishi mumkin. Tabiiy resurslar ham ko'p yoki oz miqdorda bo'lishiga qarab foydalanish uchun qulay yoki noqulay bo'lishi mumkin.

Qozog'iston Respublikasining tabiiy sharoiti va resurslarini uning iqtisodiy rivojiga ta'sir nuqtai nazaridan baholab shu narsani qayd etish lozim, respublika tabiiy resurslarga nihoyatda boydir. Respublika hududida juda ko'plab qazilma boyliklarini katta zahiralari joylashgan, dehqonchilik qilish uchun juda katta yer zahiralariga ega. Respublikada yaylov va pichanzorlarning juda katta maydonlari mavjud. Tabiiy zahiralar ko'pchilik hollarda bir-biriga yaqin joylashgan, bu esa o'z navbatida bir joydan ko'p tarmoqli ishlab chiqarishni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birgalikda Qozog'iston iqlimining quruq va keskin kontinentalligi, ko'pgina joylarda suvni yetishmasligi tabiiy resurslarni o'zlashtirishda ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi.

Qozog'iston Respublikasi yer yuzasining 90 foiz qismi tekislikdan iborat, faqatgina uning 10 foiz qismi maydoni tog'larga to'g'ri keladi. Respublikada tekisliklar uning shimoliy va g'arbiy qismlarini egallab yotadi. Bu yerlarda yog'irgarchilikning asosiy qismi yilning issiq davriga to'g'ri keladi. Respublikaning markaziy, janubiy va janubiy-g'arbiy qismida joylashgan tekisliklarda yog'ingarchilikning juda

kamliqi tufayli asosan yaylov sifatida foydalaniladi.

Tyanshan va Oltoy tog'laridagi qor va muzliklardan respublikadagi daryolar o'z suvini oladi. Qor va muzliklardan boshlanuvchi daryolar respublikada sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish va arzon elektr energiyasini olish imkonini beradi.

Respublikaning asosiy boyligi bu rangli va qora metall rudalari hisoblanadi. Qozog'iston xrom, mis, qo'rg'oshin, rux, rangli metall rudalari, natriy sulfat tuzi zaxiralari jihatidan dunyoda ko'zga ko'rinarli o'rini egallaydi. Toshko'mir, temir rudasi, marganes, molibden, azbesiy, neft, mineral tuzlar, fosforit, nikel zaxirasi jihatidan hamdo'stlikdagi mustaqil davlatlar orasida oldingi o'rnlardan birini egallaydi.

Qozog'istondagi eng yirik mis konlari Jezqazg'an, Qo'ng'irot, Bo'stonyo'l hisoblanadi. Qozog'istondagi qo'rg'oshin, kumush va ruhning katta qismi polimetall rudalaridir. Respublikadagi Oltoy tog'lari ayniqsa polmetall ruda konlariga boydir. Bu yerda oltin konlari ham mavjud. Keyingi yillarda To'rg'ay viloyatining janubiy-sharqiy qismida yuqori sifatli allyuminiy xom ashyosi - boksit konlari topildi.

Qozog'iston temir rudalariga boyligi jihatidan Rossiya Federatsiyasi va Ukrainianadan keyin uchinchi o'rinda turadi. Kustanay viloyatida temir rudasining eng katta konlari mavjud. Bu yerdagi Kachar, Sarboy, Sokolov, Ayat, Kurjunko'l, Lisakova konlarida temir rudasi tarkibidagi temir miqdori Uraldagi magnit tog'idagi temir rudasidan ancha ko'p. Ruda tarkibida temir miqdori 45-50 foizni tashkil qiladi. Ruda tarkibida temirdan tashqari fosfor, vannadiy ham uchraydi. Kustanay viloyatidagi temir ruda konlari yer yuzasiga yaqin joylashganligi sababli uni ochiq usulda qazib olish mumkin.

Aktuba viloyatida yuqori sifatli xiromit, Mang'istovda, Jesqozg'on yaqinida marganes rudasi konlari mavjud. Qozog'iston Respublikasi ko'mir konlariga boy hisoblanadi. Ko'mir respublikaning deyarli barcha iqtisodiy rayonlarida topilgan. Ularning asosiy qismi ochiq usulda qazib olinadi.

Ko'mirning 90 foizdan ko'prog'ini toshko'mir tashkil etadi.

Respublikaning Qaraganda viloyati toshko'mirga boy. Bu yerda ko'mir kokslanuvchi bo'lsada uning kuli ko'p. Shu sababli ko'mirni ishlatalishdan oldin boyitish kerak bo'ladi. Ekibastuz, Maykyuban, Ubagan, Qo'shmurin kabi ko'mir havzalari respublikada katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Chunki ularning asosiy qismi ochiq usulda qazib olinadi.

G'arbiy Qozog'istonning katta maydoni Ural-Emba neft havzasida joylashgan. Neft konlarining asosiy qismi Atirau, Mangistau, Ural, Aktuba viloyatlarida joylashgan. Eng yirik neft konlaridan Kengiya(Aktuba-viloyatida), Koschagul, Kulsara, Dossor, Rakushi, Prorva, Tengiz (Atirau viloyati) konlari hisoblanadi. Mangitzau yarim orolining janubi (Jetiboy,Uzen va boshqalar) ayniqsa neftga boy. Bu hududlar tabiiy gazga ham boy hisoblanadi.

Qozog'iston Respublikasi hududidan turli xil tuzlar topilgan. Osh tuzi Orol dengizi, Kaspiybo'yи rayonlarida, Pavlodar rayonidagi sho'r ko'llarda keng tarqalgan. Balxashbo'yи, Orolbo'yи va boshqa hududlarida yirik sulfat konlar bor. Aktuba viloyatida katta zahiraga ega bo'lgan kaliy tuzlari topilgan. Fosforit konlari Janbil viloyati (Qoratosh) hududida mavjud.

Qozog'iston tabiiy sharoiti qiyin bo'lishiga qaramasdan bu yerda dehqonchilik qilish imkoniyatlari mavjud. Respublikani shimoliy qismida boshoqli don ekinlarini ekish uchun qulay bo'lsa, janubda issiqsevar o'simliklardan paxta, qandlavlagi, sholi va tamaki yetishtirish mumkin. Shu bilan birgalikda, respublika hududining asosiy qismida atmosfera yog'inlari yetishmasligi tufayli, shimoliy, shimoliy-g'arbiy va shimoliy-sharqi rayonlarida bahorikor dehqonchilikni rivojlantirish mumkin. Respublikaning janubida esa dehqonchilik asosan sug'orish asosida amalga oshiriladi.

Qosog'istonning tekislik qismidagi daryolar sug'orish uchun yaroqsiz hisoblanadi, chunki ular asosan bahorda qor suvlaringin erishi hisobiga toshadi. Yozda esa sayozlashib

qoladi. Tekislik daryolaridan faqatgina bahorda yaylovzorlarni liman usulida sug'orishda foydalanish mumkin. Respublikadagi Nura, Ishim, Tobol, Embla kabi daryolarida shahar va sanoat korxonalarini suv bilan ta'minlash maqsadida uncha katta bo'limgan suv omborlari qurilgan.

Qozog'istonning tekislik qismida shimoldan janubga tomon o'rmon dasht, chala cho'l va cho'llardan iborat tabiat zonalari almashinadi. Respublikaning sharq va janubi-sharqida joylashgan tog'lardan ham tog' etaklaridan tog' tepasiga tomon tabiat zonalari balandlik bo'ylab o'zgarib boradi. Har bir tabiat zonasasi o'ziga xos iqlimga, tuproq va o'simlikka ega. Ularning har biri qishloq xo'jaligida ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Barcha tabiat zonalar respublikaning juda katta yer fondini tashkil qiladi. Respublika umumiy yer fondi 272 mln gektarni tashkil qiladi, shuning 222 mln gektari qishloq xo'jaligida foydalilaniladigan yerlar hisoblanadi.

Tabiatni muhofaza qilish sanoat va qishloq xo'jaligini jadal sur'atlar bilan rivojlanishi atrof muhitga ta'sir ko'rsatadi. Sanoat va qishloq xo'jaligida tabiiy resurslardan jadal sur'atlar bilan foydalanish ko'p hollarda tabiiy resurslar zahiralarini kamaytirishga, atrof muhitning ifloslanishiga olib keladi. Qozog'iston Respublikasi tabiatni ifloslovchi asosiy manbalar yirik elektr stansiyalari, qora, rangli metallurgiya sanoati korxonalaridir, Respublika atrof muhitni ifloslovchi manbaning 70 foizi yuqorida nomlari tilga olingan sanoat korxonalariga to'g'ri keladi. Shu munosabat bilan respublikada ekologik muhitni yaxshilash uchun maxsus qonun va qarorlar qabul qilingan, ekologik muhitni yaxshilash borasida qator tadbirlar, choralar amalga oshirilmoqda. Jumladan, atrof muhitni ifloslantiruvchi sanoat korxonalarida atmosferani tozalab beradigan maxsus filtirlar o'rnatilmoqda. Ayrim korxonalarda iflos suvlarni tozalab beradigan maxsus tozalovchi asbob-uskunalar o'rnatilgan. Ko'pchilik korxonalarda chiqindini qayta ishlab chiqarish joriy etilgan. Qazilma boyliklarni ochiq usulda

qazib olish jarayonida buzilgan yerlarda tabiatni qayta tiklash (rekultivatsiya) ishlari amalga oshirilmoqda.

Respublikada suv, o'rmon resurslaridan tejab-tergab foydalanish borasida katta ishlari amalga oshirilmoqda. Respublikada yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonot dunyosini saqlab qolish uchun ularni qizil kitobga kiritish, ularni yanada ko'paytirish uchun qo'riqxonalar, maxsus joylar tashkil qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

## 8.2 AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI



Aholisi 20 mln kishidan (2023) ortiq bo'lib, shahar aholisi - 11,8 mln kishi (59 foiz), qishloq aholisi - 8,3 mln kishi (41 foiz) ni tashkil etadi. Jinsiy tarkibiga ko'ra 51,5 foiz ayollar, 48,5 foiz erkaklarga to'g'ri keladi. 2019 yil 1 noyabr bilan taqqoslaganda aholi soni 1,3 foizga ko'paygan. Ko'rib chiqilayotgan davrda eng katta o'sish mamlakatning uchta mintaqasida kuzatildi: Olmaota shahrida (64,8 ming kishi), Nur-Sulton shahrida (48,9 ming kishi) va Chimkentda (36,4 ming kishi). Aholi soni bo'yicha MDH davlatlarida to'rtinchchi o'rinda turadi (Rossiya, Ukraina va O'zbekistondan keyin), Poytaxti Astana shahri. Qozog'istonda tabiiy o'sish ancha past, bir yilda o'rtacha 400 ming atrofida tug'ilish kuzatiladi. Aholining o'rtacha umr ko'rish yoshi 74,4

ni tashkil etadi.

Qozog'iston Respublikasida aholi juda notekis joylashgan. Ilgarigi vaqtda mamlakatning yashash uchun qulay bo'lgan xududlarida ya'ni g'arbiy, shimoliy, sharqi Qozog'iston va respublikaning janubiy-sharqi qismlarida aholi zichligi yuqori bo'lgan. Barcha asosiy shaharlar ham shu mintaqalarda joylashgan.

Keyingi paytlarda respublika markaziy qismlarida Qarag'anda aglomeratsiyasining tashkil topishi holatni o'zgartirdi. Respublikada aholi 1 kmga 10-100 kishi to'g'ri keladigan joylar ham, shuningdek umuman aholiyashamaydigan joylar ham uchraydi. Respublika xududi kattaligi sababli aholi zichligi bo'yicha hatto Turkmanistondan ham keyingi o'rinda turadi.

Mamlakat aholisi MDH davlatlari orasida yoshlarning salmog'i ko'pligi bilan xarakterlanadi. Aholining jinsiy tarkibida ayollar ko'pchilikni tashkil etadi.

Respublikada sanoat va transportning rivojlanishi shaharlar sonining tez o'sishiga olib keldi. Yangi shaharlar va shahar tipidagi posyolkalar asosan foydali qazilma konlari, yo'l qurilishlari va yirik qishloqlar asosida vujudga kelmoqda.

Respublikaning yangi shaharlariga Qarag'anda, Temirtau, Balxash, Jezqazg'an, Orqaliq, Tekeli, Kentau, Xromtou, Qoratau, Janatas, Rudniy, Ekipastuz, Oqtov, Yangi Uzen va boshqalarni misol qilish mumkin.

Sobiq Ittifoq paytida respublikada asosan qadimiy shaharlar maydoni kengaydi, aholisi soni ortib bordi. Qadimgi shaharlar mamlakatning janubiy qismida joylashgan bo'lib bular Taraz (2000 yil oldin tashkil topgan bo'lib Qozog'istoning eng qadimiy shaharlardan biridir) Chimkent va Turkiston shaharlaridir.

Mamlakatning shimoliy va sharqi qismidagi oblast markazlari va yirik shaharlar esa Rossiya imperiyasining harbiy qo'rg'onlari sifatida tashkil etilgan edi.

Respublikaning hozirgi eng yirik shaharlari Olma-Ota (aholisi 2,2 mln. kishidan ortiq), Qarag'anda (519 ming kishidan ko'proq), Chimkent (1,2 mln. kishidan ko'proq), Pavlodar, Semey, Ust-Kamenogorsk va Taraz shaharlari hisoblanadi. Bu shaharlarda aholi soni 300 ming kishidan ortadi. Bundan tashqari yana oltita shaharda - Aktau, Qizilo'rda, Petropavlovsk, Temirtau, Kustanay va Uralskda aholi soni 200 ming kishidan ortiq. Qozog'istonda hozirgi paytda 83 ta shahar va 204 ta shahar tipidagi posyolkalar bo'lib, bularda 11,8 mln kishi istiqomat qilishmoqda.

4-Jadval

#### Qozog'iston Respublikasining yirik shaxarlarini

O'rn'i	Shaxar	Oblast	Axolisi	O'rn'i	Shaxar	Oblast	Axolisi
1	Almata	respublikaga bo'yinuvchi shaxar respublikaga bo'yinuvchi shaxar	2 211 198	12	Aktau	Mangistov	271 592
2	Astana	respublikaga bo'yinuvchi shaxar respublikaga bo'yinuvchi shaxar	1 409 497	13	Kustanay	Kustanay	267 077
3	Chimkent	respublikaga bo'yinuvchi shaxar respublikaga bo'yinuvchi shaxar	1 213 211	14	Uralsk	G'arbiy Qozog'iston	256 116
4	Aktoba	Aktyuba	567 745	15	Turkistan	Turkistan	225 675
5	Qarag'anda	Qarag'anda	519 381	16	Petropavlovsk	Shimoliy Qozog'iston	222 657
6	Taraz	Jambil	430 314	17	Kokchatov	Akmola	176 322
7	Ust-Kamenogorsk	Sharqiy Qozog'iston	354 099	18	Temirtau	Qarag'anda	171 609
8	Pavlodar	Pavlodar	334 861	19	Taldiko'r'on	Jettisuv	169 230
9	Atirau	Atirau	322 826	20	Ekibastuz	Pavlodar	128 746
10	Semey	Abay	309 955	21	Rudniy	Kostanay	111 803
11	Qizilo'rda	Qizilo'rda	280 885				

Manba: Muallif tomonidan internet ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Revolyusiyaga qadar respublika shaharlari ma'muriy va savdo markazlari funksiyasini bajargan bo'lsa, hozirgi kunda yirik sanoat markazlari, transport tugunlari, hamda madaniy markazlar vazifasini ham bajarmoqda.

Qozog'istonda eng xarakterli va ko'p sonli shaharlari tog'

kon sanoati markazlaridir. Bu esa MDH davlatlari orasida geografik mehnat taqsimotida respublikaning ko'mir, neft, temir rudasi, rangli metallar, fosforit va boshqa foydali qazilmalarga ixtisoslashganligini ko'rsatadi. Respublikaning 40 foiz shaharlarini shunday ishchi posyolkalar tashkil etadi.

Foydali qazilimalar asosida rivojlangan bunday shaharlarni to'rt gruppaga ajratish mumkin. Rudali markazlar (Orqaliq, Jetigara, Rudniy, Tekeli, Xromtau, Kentau va boshqalar), Ko'mir markazlari (Qaraganda, Abay, Shoxtali, Saran, Ekibastuz, Maykuben), neft sanoati markazlari (Makat, Kulsari, Jetiboy, Yangi Uzen va boshqalar), hamda kimyoiy mineral xomashyo markazlari (Qoratov, Janatas va boshqalar).

Bundan tashqari Qozog'istonda og'ir sanoat markazlari (Ust-Kamenogorsk, Pavlodar, Taraz, Atirau, Aktyubinsk, Balxash, Temirtau, Jezqazg'an) xamda yengil va oziq-ovqat sanoat markazlari (Olma-ota, Semey, Taraz, Chimkent, Kokchatau, Uralsk, Taldiko'r'gan va boshqalar)ga ham ajratiladi.

Qozog'iston uchun xarakterli bo'lgan shaharlardan ko'pchiligini transport tugunlari (Tobol, Mointi, Chuy, Aris, Ayaguz, Beyneu va boshqalar) ham tashkil etadi. Ular respublika shahar tipidagi posyolkalarning 26 foiziga to'g'ri keladi. Bular asosan Orenburg-Toshkent, Turksib, Petropavlovsk-Karaganda-Mointi-Chuy, Qartali-Ko'kchatov-Pavlodar magistral yo'llari asosida vujudga kelgan.

Shuningdek shahar tipidagi posyolkalar yirik qishloqlar o'rnida (Toldiqo'r'gon, Makinsk, Otbosar va boshqalar) vujudga kelgan bo'lib, ular asosan qayta ishlovchi sanoat markazlari vazifasini bajarmoqda. Bularidan tashqari sanatoriyl - kurort markazlari Janubiy Qozog'istondagi Sariag'ach, Pavlodar oblastidagi - Muyaldi, Qizilo'r'dada - Janakargan, Semeydag'i Aul, Olma-Ota oblastida - Olma-Orasan va boshqalar rivojlandi.

Respublikadagi yirik shaharlari atrofida yo'ldosh shaharlarning to'planishi shaharlari aglomeratsiyalarining tashkil etmoqda. Masalan Qarag'anda (Temirtou, Saran,

Shahtinsk, Abay, Dolinka, Novodolinskiy va boshqalar), Olma-Ota (Talgar, Issiq, Qapchag'ay, Kaskelen, Burunday, Fabrichniy va boshqalar), Chimkent Taraz, Ko'kchatov shu kabilardir.

Respublikada qishloq aholisi ham juda notekis joylashgan. Ularning asosiy qismi respublikaning shimolida, sharqida va janubida joylashgan bo'lib, bu yerlar qishloq xo'jaligi ayniqsa sug'orma dehqonchilik uchun qulay yerlardir. G'arbiy, markaziy chala cho'l va cho'llarda esa qishloq aholi soni deyarli 10 barobar kamdir.

Respublika qishloqlar sharoitiga ko'ra bir-biridan keskin farq qiladi. Respublikaning shimoliy, janubiy va janubiy sharqiy rayonlarida yirik qishloqlar ko'p bo'lib, ular asosan bir-biriga yaqin va daryo, ko'l, kanal va ariqlar bo'yida joylashganligi bilan xarakterlansa, markaziy va g'arbiy Qozog'istonidagi qishloqlar esa bir-biridan ancha uzoqda joylashgan va kichik qishloqlar hisoblanadi.

Qozog'iston Respublikasi uchun shahar aholisi sonining o'sishi, qishloq aholisi sonining kamayishi xarakterlidir. Aholi ro'yxati ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak 1958 yilda shahar aholisi 44 foiz, qishloq aholisi 56 foiz, 1979 yilda shahar aholisi 54 foiz qishloq aholisi 46 foiz, 1989 yilda shahar aholisi 57 foiz, qishloq aholisi 43 foizni tashkil etganligini ko'ramiz.

1990 yildan boshlab urbanizatsiya o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi, ya'ni 1992 yilda shahar aholisi 58 foizni tashkil etgan. Hozirgi kunga kelib esa respublika aholisining 59 foizi shaharlarda istiqomat qilishadi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun mehnat resurslari katta ahamiyatga egadir. Respublikada 16-62 yoshgacha erkaklar, 16-57 yoshgacha ayollar mehnatga layoqatli hisoblanadi.

2010 yilda Qozog'istonda mehnat resurslari jami aholining 55,0 foizni tashkil etgan. Aholi zich yashaydigan yerlarda mehnat resurslari ko'p bo'lgani holda, zichligi kam mintaqalarda mehnat resurslari tanqisligi yaqqol seziladi.

2010 yilda mehnat resurslarining 81,9 foizini iqtisodiy faol aholi, iqtisodiy faol bo'lmagan aholi esa 18,1 foizni tashkil etgan. Bular tarkibiga mehnat yoshidagi o'quvchilar, uy bekalari hamda har-xil sabablar bilan ishlamaydigan kishilar kiradi.

Respublika mehnat bozorining shakllanishi aholining davlat korxonalarida bandligini kamayishini, aksincha nodavlat sektorlarida qo'shma korxonalar, kichik va o'rta biznesda, fermer xo'jaliklarida ortib borishini ko'rsatmoqda.

Aholisining milliy tarkibida qozoqlarning salmog'i asta sekin ortib bormoqda. 1989 yil aholi ro'yxatidan keyin qozoq millatiga mansub aholi tabiiy o'sish hisobiga 1,5 mln. kishiga ortdi, bundan tashqari migratsiya hisobiga ham qozoqlar ortib bormoqda. Hozirgi kunda jami aholining 70,7 foizini qozoqlar tashkil etmoqda, ruslar esa aksincha kamayib 38 foizdan 14,7 foizga tushdi, shuningdek ukrainlar 5,4 foizdan 2,0 foizga kamaygan. Bundan tashqari mamlakatda o'zbeklar 3,2 foiz, uyg'urlar 1,5 foiz, nemislar 1,2 foiz, tatarlar 1,1 foiz va boshqa millat vakillari 5,1 foiz istiqomat qilishadi.

Qozog'iston respublikasi ma'muriy xududiy jihatdan 17 ta viloyatga bo'linadi. Bular o'z navbatida 5 ta iqtisodiy rayonga birlashtirilgan. Iqtisodiy rayonlar orasida eng yirigi G'arbiy Qozog'iston hisoblanadi. Uning maydoni 736,1 ming km<sup>2</sup>, undan so'ng Janubiy Qozog'iston (711,8 ming km<sup>2</sup>), Shimoliy Qozog'iston (565,7 ming km<sup>2</sup>), Markaziy Qozog'iston (428,0 ming km<sup>2</sup>) eng kichigi esa Sharqiy Qozog'iston bo'lib, uning xududi 283,3 ming km<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Eng ko'p aholi Janubiy Qozog'iston xududida istiqomat qilishadi - 6,5 mln kishi, aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 9,1 kishiga to'g'ri keladi. Keyingi o'rnlarda mos ravishda Shimoliy Qozog'iston 4,4 mln kishi (zichligi 7,3), G'arbiy Qozog'iston 2,2 mln kishi (zichligi 3,1), markaziy Qozog'iston 1,7 mln kishi (zichligi 4,2) istiqomat qiladi.

### **8.3 SANOATI VA UNING TARKIBIY XUSUSIYATLARI**

Hozirgi vaqtida hududiy mehnat taqsimotida Qozog'iston ixtisoslashgan tarmoqlar rangdor metallurgiya, ko'mir, kimyo (o'g'it ishlab chiqarish), mashinasozlik (ko'p metal ishlavtuvchi), chovrachilik, don yetishtirish xo'jaliklari bilan ishtirot etadi. Yangi ixtisoslashgan tarmoqlarga qora metallurgiya, neft, elektro-energetika tarmoqlari kiradi.

Qozog'iston xo'jaligida sanoat yetakchi o'rinda turadi. Sanoat o'z navbatida ikkita yirik guruhga bo'linadi: qazib oluvchi va qayta ishlovchi tarmoqlar.

Birinchi tarmoq qazib olish va boyitish bilan shug'llansa, ikkinchi tarmoq ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqaradi.

Ikkinci tomondan barcha sanoat tarmoqlari og'ir sanoat (sanoatning Aguruhi) ya'ni ishlab chiqarish va mehnat qurollari ishlab chiqarish va yengil sanoatga (sanoatning B guruhi) ya'ni xalq iste'mol buyumlari ishlab chiqarishga bo'linadi.

Qozog'iston sanoatida A guruh tarmoqlarning B gurux tarmoqlaridan ustunligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Qozog'iston rangli metallurgiya sanoati 50 ga yaqin rangli va nodir metallar, rangli metallurgiya sanoati asosida esa 70 ga yaqin turli xil kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Bu tarmoqning yarmiga yaqini (47 foiz) ko'rgoshin rux sanoatiga, 30 foizi mis, qolganini esa alyuminiy, oltin qazib olish, titan va magniy ishlab chiqarish, volfrom-molibden tashkil etadi.

Qo'rgoshin va rux sanoati sharqiy, janubiy va markaziy Qozog'istonda rivojlangan. Oltoya asosiy rangli metallurgiya kombinati ishlab turibdi. Ustkamenagorsk va Leninagorsk kombinatlarida rudalarni kompleks qayta ishlashni va undan 25 hilga yaqin rangdor metall eritib olishni ta'minlaydi. Kustanay oblastida boksitdan foydalanish asosida Pavladorda alyumin zavodi ishlab turibdi.

Mis qazib olish va eritish Qarag'anda oblastidagi Balxash

va Jezqazg'an tog' metallurgiya kombinati hamda Karsakpay mis eritish zavodlaridir. Barcha zavodlar Balxash bo'yi va Jezqazg'an konlari asosida ish olib boradi. Irtish mis eritish zavodi mis konsentratlarini Oltoy ruda boyitish kombinatidan oladi.

Qora metallurgiya Qozog'iston xalq xo'jaligining ixtisoslashgan muhim tarmog'idir. U respublika og'ir sanoatining yosh tarmoqlari qatoriga kiradi. Aktyubinsk yaqinidagi ferroxrom (temir-xrom) zavodi Qozog'iston metallurgiyasining yirik korxonasıdir. Mug'ojardan shimoli-g'arbda joylashgan Xromtau konlari bu zavodning xom ashyo bazasi hisoblanadi.

Respublikaning yoqilg'i sanoati ko'mir, neft va gaz sanoatlarinibirlashtiradi. Kokslanuvchiko'mirni Qozog'istondan tashqari Ural metallurgiya zavodlarida ishlataladi. Ekibastuz xavzasida ochiq usul bilan qazib olingan arzon ko'mir yirik GRESlarda yoqiladi. Neft sanoati muxim o'rinni egallaydi. Mang'ishloq yarim orolida (Uzen, Jetiboy), Emba havzasida, Qizil O'rda viloyatidagi konlar hamda Atirau, Pavlodar, Chimkent neftni qayta ishlash zavodlari katta ahamiyatga egadir. Neft konlaridan neftni qayta ishlash zavodlariga quvurlar orqali neft yuboriladi. G'arbiy Qozog'iston Fors qo'lting'i neft quvuri orqali xorijiy davlatlarga neft yuboriladi.

Qozog'istonda gaz sanoati eng yosh tarmoqlardan hisoblanadi. Tabiiy gaz asosan janubiy Mang'ishloq va Ustyurt platolaridan, shuningdek Emba va Mang'ishloq neft konlaridagi yo'ldosh gazlardan iboratdir. Qazib olingan gazning bir qismi o'sha joyning o'zidagi gazni qayta ishlash zavodlarida - Yangi Uzen, Janajol va Tengizda qayta ishlansa, asosiy qismi O'rta Osiyo - Markaz, Buxoro-Ural magistral gaz quvurlari orqali jo'natiladi. Respublikaning janubiy qismi esa Buxoro-Toshkent-Chimkent-Taraz-Bishkek-Olma-Ota gaz quvurlaridan foydalaniadi.

Hozirgi kunda Qozog'istonda 8 mlrd.m<sup>3</sup> gaz qazib olinadi. Ehtiyojni qondirish uchun esa 18 mlrd.m<sup>3</sup> gaz kerak. Kelajakda gaz qazib olish 40-44 mlrd. m<sup>3</sup>ga yetishi mo'ljallangan.

Elektroenergetika sanoati respublika xalq xo'jaligining muhim tarmog'idir. Asosan ko'mir va tabiiy gaz bilan ishlaydigan issiqlik elektr stansiyalari elektroenergetikaning asosini tashkil etadi. Hozirgi paytda 8 ta GRES, 50 ta issiqlik elektr markazlari, 20 ta GES ishlab turibdi. Qozog'istonda uran rudalari ham ko'p. Shu sababli respublikada AES lar qurilgan. Ular 1973 yildan 1999 yilgacha faoliyat yuritgan bo'lib Mustaqillik yillarda ularning faoliyati to'xtatilgan.

Hozirgi kunda Qozog'iston va Rossiya federatsiyasi raxbarlari Qozog'istonda 2 ta AES ni qurish masalasi bo'yicha kelishuvga erishgan. Yaqin kelajakda 600 MV li AES si qurilishi rejalashtirilgan. Bular Abay viloyatidagi Kurchatov shaxrida, hamda Olma - Ota oblastida Balxash ko'li bo'yidagi Ulken ishchilar posyolkasida bo'ladi.

Qozog'iston mashinasozlik kompleksi nisbatan kam rivojlangan. Ularning ba'zilari: Ostonadagi Qozoqselmash, Selinograd selmash, Pavlodarda o'rmalovchi kuchli traktorlar ishlab chiqaradigan zavodlar ishlamoqda. Kustanay va Olma - Otada turli qishloq xo'jalik mashinalari va ularning ehtiyyot qismlari ishlab chiqariladi. Qarag'andada tog'-kon uskunalarini zavodi, Olma-otada tog'-metallurgiyasi va energetika uskunalarini zavodlari, Ust-Kamenogorskda rangli metallurgiya uchun mashinalar ishlab chiqariladigan korxonalar, Atirauda neft sanoati uchun mashinalar ishlab chiqiradigan korxonalar bor. 1992 yilda Chimkent va Olma-Ota avtomobil remonti korxonalarida Rossiya bilan hamkorlikda Liaz, PAZ avtobuslari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Qozog'iston kimyo sanoati MDHda katta ahamiyatga egadir. Asosan boy mahalliy xom-ashyo asosida ishlaydi. Aktyubinsk va Jambulda fosforit o'g'itlari, Qarag'andada azot o'g'itlar ishlab chiqariladi. Chimkentda fosforli tuzlar, Temirtovda sintetik spirt, Atirauda polietilen ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Qozog'istonda oziq-ovqat sanoati orasida go'sht ishlab chiqarish yaxshi rivojlangan. Qishloq xo'jalik xom ashyosi

asosida yengil sanoatda qo'y terisini oshlash, charm-poyafzal, to'qimachilik rivojlangan.

#### 8.4 QISHLOQ XO'JALIGI

Qozog'istonda qishloq xo'jaligi ixtisoslashgan tarmoqlardan biridir. Asosan donli ekinlar yetishtiriladi. Donli ekinlardan bug'doy, eng ko'p ekilib, u barcha donli ekin maydonining 2/3 qismini egallaydi. Bundan tashqari donli ekinlardan tariq, sholi, arpa ekiladi. Texnika ekinlaridan paxta, kungaboqar, qandlavlagi ko'proq ekiladi.

Chorvachilik qishloq xo'jaligining ixtisoslashgan tarmoqlaridan biri bo'lib, ayniqsa qo'ychilik yaxshi rivojlangan. Bundan tashqari qoramol, yilqichilik, tuyachilik bilan ham qadimdan shug'ullanib kelishadi.

Qishloq xo'jaligi respublikada notejis rivojlangan. Jumladan sug'orib dehqonchilik qilish Janubiy Qozog'istonda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu yerda qadimdan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelinadi. Asosiy ekinlari paxta, qandlavlagi, tamaki, sholi, makkajo'xori xisoblanadi. Shuningdek bog'dorchilik va uzumchilik ham katta ahamiyatga ega. Chorvachilikda qo'ychilik, qoramolchilik yetakchi tarmoq hisoblanadi. Respublikaning shimoliy qismi esa ko'proq don yetishtirishga ixtisoslashgan. Bu yer mamlakatning asosiy ekin ekiladigan maydoni hamdir. Dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik xam rivojlangan. Chorvachilikda qoramolchilik va cho'chqachilik yetakchi tarmoq xisoblanadi.

Markaziy Qozog'istonda yaylovlar ko'p bo'lib bu yerda xam qo'ychilik, qoramolchilik, yilqichilik xamda tuyachilik yaxshi rivojlangan bo'lib shaharlar atrofida sut-go'sht chorvachiligi, qurg'oqchil mintaqalarda esa go'sht chorvachiligi ustun turadi.

Dehqonchilikda don yetishtirish rivojlangan. Shu bilan birga texnika ekinlaridan pista va zig'ir yetishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Sharqiy Qozog'iston o'zining chorvachiligi bilan

ajralib turadi. Bu yerda sut-go'sht chorvachiligi (qoramolchilik) xamda cho'chqachilik rivojlangan. Bundan tashqari bu mintaqasi respublikaning yagona bug'uchilik rivojlangan mintaqasi ham hisoblanadi. Tog'li hududlarda asalarichilik bilan ham shug'ullanishadi. Bu mintaqada dehqonchilik bilan lalmikor yerlarda shug'ullanishadi.

## 8.5 TRANSPORTI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI

Transport-xalq xo'jaligining asosiy tarmog'i «Qon tomiri» hisoblanadi. Qozog'iston hududining katta qismi quruqlik bo'lib ularda tabiiy suv yo'llari juda ham kam. Shu sababli yuk va yo'lovchi tashishda quruqlik transportining ahamiyati kattadir.

Respublikada tashiladigan yuklarning 90 foizi avtomobil va temir yo'l transportlari hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek mamlakatda yuk va yo'lovchi tashishda suv, havo va quvur transportlari ham ishtirok etadi.

Qozog'iston transporti asosan sobiq ittifoq davrida rivojlangan. Mamlakatda mavjud bo'lgan temir yo'lning (14.5 ming km) 85 foizi, shuningdek avtomobil, havo va quvur transportlari to'lig'icha o'sha vaqtarda qurilgan.

Mamlakat transportida temir yo'l transporti yetakchi hisoblanadi. Temir yo'llar uzunligi bo'yicha MDX orasida Rossiya va Ukrainadan keyin uchinchi o'rinda turadi. Dastlabki Transsibir va Orenburg-Toshkent temir yo'llari revolyusiyadan oldin qurilgan. Hozirgi kunda respublika hududida parallel va meridional yo'nalihsda bir necha magistral yo'llar ishlab turibdi, bular meridional yo'nalihsdagi Transqozog'iston (Petropavlovsk-Qarag'anda-Mointi-Chuv), Turksib (Aris-Olma-Ota-Semipalatinsk) va Orenburg-Qizilo'rda-Toshkent, parallel yo'nalihsda Transsibir, O'rta Sibir (Troitsk-Kustanay-Kokchatov-Qorasuk) va Janubiy Sibir (Magnitogorsk-Oqmola-Pavlodar-Barnaul) temir yo'llaridir.

Temir yo'lda asosan ko'mir, temir rudasi, rangli metallar,

don, neft va neft mahsulotlari, mineral o'g'itlar, qurilish materiallari kabi yuklar tashiladi. Respublikadan jo'natilgan yuklar nisbatan ko'p bu aktiv transport ballansiga ega ekanligini ko'rsatadi. Mamlakat yuk oborotining 73,6 foizi temir yo'l transportiga to'g'ri keladi.

Respublika transportida Avtomobil transporti ham katta ahamiyatga ega. Avtomobil yo'lining uzunligi 115 ming kmga yetadi. Shundan 93 ming kmdan ortiqrog'i qattiq qoplamlari yo'llardir. Avtomobil yo'llarining uzunligi bo'yicha ham Rossiya va Ukrainadan keyin 3-o'rinda turada. Mamlakat yuk oborotida avtomobil transporti hissasiga 14,5 foiz yuk to'g'ri keladi.

Eng yirik avtomagistral yo'llar Janubiy Qozog'iston hududiga to'g'ri keladi. Bu yo'l Olma-Otani Toshkent, Bishkek, Chimkent shaharlari bilan tutashtiradi. Mamlakat ho'jaligida Olma-Ota-Chilik-Karag'anda-Oqmola-Ko'kchatov-Petropavlovsk, Qarag'anda-Kustanay-Atirau, Oqtov-Jetiboy-Yangi Uzen yo'llari ham katta ahamiyatga ega. Avtomobil transporti rayonlararo, ho'jaliklararo hamda boshqa mintaqalar orasida yuk tashishda o'ziga xos o'rinda turadi.

Yuk tashish xajmi bo'yicha keyingi o'rindarda quvur transporti turadi. Bu respublikaning eng yosh transport tarmog'i hisoblanadi. Quvur orqali neft va neft mahsulotlari, gaz kabilar tashiladi. Uning umumiy uzunligi to'rt ming km dan ortadi.

Tashiladigan yuklarning asosiy qismi qurilish materiallari, un va un mahsulotlari, o'rmon va yog'ochsozlik, neft va neft mahsulotlari, ko'mir va boshqalardir. Suv yo'li orasida Irtish daryosi katta ahamiyat kasb etadi. Uning hissasiga suvda tashiladigan yuklarning 90 foizi to'g'ri keladi. (Zaysan ko'li bilan birga uzunligi 1750 km). Ikkinci o'rinda Ural daryosi turadi, uning uzunligi 1100 kmga yetadi. Ili, Ishim, Sirdaryo daryolaridan foydalanish ancha qiyinchiliklar tug'diradi.

Kaspiy dengizida dengiz transporti rivojlangan. Kaspiy dengizi respublikani 2300 km masofada yuvib turadi. Neft

konlarining ochilishi natijasida dengizda yuk tashish rivojlandi. Bu yerda Atirau portidan tashqari Oqtov, Bautiko va Yeraliev portlari qurilgan. Bu portlar orqali Qozig'iston Ozarbayjon, Dog'iston, Turkmaniston Respublikalari hamda Quyi Volga bo'yи rayoni bilan aloqa qiladi. Dengiz orqali neft va neft mahsulotlari, qurilish materiallari, baliq, mashina va dastgohlar hamda halq iste'mol buyumlari tashiladi.

Hududning kattaligi sababli eng tez transport havo transporti ham katta ahamiyatga ega. Respublikaning ko'plab shaharlaridan yaqin va uzoq horij mamlakatlariga havo yo'llari ochilgan. Respublikaning havo yo'llari 1000 km dan, ortadi. Barcha oblast markazlarida zamonaviy aeraportlar qurilgan. Har yili o'rtacha Qozog'iston aeraportlaridan sakkiz milliondan ortiq yo'lovchilar, 80 ming tonna tez buzuluvchi va qimmatbaho yuklar tashiladi.

Respublika mustaqillikka erishgandan so'ng yangi yo'llar qurilishi davom etmoqda. Qozog'istondan Xitoya ochilgan temir yo'li shular jumlasidandir. Bundan tashqari Eron va Turkiyaga O'zbekiston va Turkmaniston respublikalari orqali qurilayotgan temir yo'l ham katta ahamiyatga ega. Shuningdek aloqalarni yaxshilash maqsadida yangi yo'llar loyixalari ishlab chiqilgan.

## 8.6 IQTISODIY RAYONLARI

Qozog'iston shartli ravishda beshta iqtisodiy rayonlarga ajratiladi. Barcha iqtisodiy rayonlar tabiiy sharoiti va resurslarning xilma xilligi bilan bir-biridan farq qiladi.

Janubiy Qozog'iston yirik sug'orib dehqonchilik qiladigan, intensiv qishloq xo'jaligi rivojlangan mintaqadir. Bu yerda qadimdan qimmatbaho texnika ekinlari: paxta, qandlavlagi, makkajo'xori yetishtiriladi. Janubiy Qozog'iston mamlakatning yirik sanoat rayonidir. Bu mintaqada fosforit va polimetall rudalari qazib olish, rux va qalay ishlab chiqarish, superfosfat,

har xil mashina va dastgohlar ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Iqtisodiy rayon yengil va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha respublikada birinchi o'rinni egalaydi.

Shimoliy Qozog'iston asosiy aholi yashaydigan xududlardan biri bo'lib, bu MDHning eng yirik don xo'jaligi va go'sht-sut chovachiligi mintaqasi hisoblanadi. Shu bilan birga qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashda ham alohida o'rinni egallaydi. Ayniqsa go'sht, sut, un, un mahsulotlari sanoati yaxshi rivojlangan. Bu mintaqqa respublikaning yirik temir rudasi qazib chiqarish, hamda boshqa tog'-kon sanoati markazi hamdir. Shular asosida mintaqada qora va rangli metallurgiya sanoati rivojlanib bormoqda. Shuningdek mashinasozlik, ko'mir va elektroenergetika sanoati ham yaxshi rivojlangan.

Markaziy Qozog'iston nafaqat respublikaning balki MDHdagi eng yirik ko'mir va temir bazasi hisoblanadi. Shuningdek bu yerda rangli metallurgiya, ko'p metall talab etuvchi mashinasozlik, hamda kimyo sanoati yaxshi taraqqiy etgan. Yangi yerlarning o'zlashtirilishi bilan qishloq xo'jalik mahsulotlari - don yetishtirish, go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Sharqiy Qozog'iston - mamlakatning va MDH davlatlarining eng yirik rangli metallurgiya va gidroelektroenergiya ishlab chiqarish markazi hisoblanadi. Shuningdek mintaqqa iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi ham katta ahamiyatga egadir. Don yetishtirish, go'sht chovachiligi, qo'ychilik asosida yengil va oziq-ovqat sanoati yaxshi rivojlangan.

G'arbiy Qozog'iston - mamlakatning yagona neft qazib olish sanoati rivojlangan mintaqadir. Shu bilan birga bu yerda nikel va xrom qazib chiqarish, neft sanoati mashinasozligi, hamda mineral o'g'itlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Mintaqada baliq ovlash va ularni qayta ishlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, ayniqsa chovachilik va donchilik yaxshi rivojlangandir.

Bu barcha beshta iqtisodiy rayonlar Qozog'iston

respublikasi yagona xalq xo'jaligi kompleksini tashkil etadi va geografik mehnat taqsimotida katta o'ringa egadir.

### 5-Jadval

#### Qozog'iston respublikasi iqtisodiy rayonlari

Iqtisodiy rayon	Oblastlar va respublikaga bo'yinuvchi shaxarlar	Axolisi, ming kishi (2023)	Maydoni ming. km <sup>2</sup>
1. Sharqiy	1. Sharqiy Qozog'iston oblasti 2. Abay oblasti	1 972 683	283,226
2. G'arbiy	1. Aktyubinsk oblasti 2. Atirau oblasti 3. G'arbiy Qozog'iston oblasti 4. Mangistov oblasti	3 081 359	736,241
3. Shimoliy	1. Oqmola oblasti 2. Astana sh. 3. Kustanay oblasti 4. Pavlodar oblasti 5. Shimoliy Qozog'iston oblasti	3 237 246	565,678
4. Markaziy	1. Qarag'anda oblasti 2. Ulitov oblasti	1 603 300	427,982
5. Janubiy	1. Olma Ota oblasti 2. Olma Ota shaxri 3. Jambul oblasti 4. Qizil O'rda oblasti 5. Turkiston oblasti 6. Chimkent sh 7. Jettisuv oblasti	10 296 955	712,125

### 8.7 G'ARBIY QOZOG'ISTON

G'arbiy Qozog'iston - to'rtta viloyatni o'z ichiga oladi: Bular G'arbiy Qozog'iston, Aktyubinsk, Atirau va Mang'ishloq. Bu iqtisodiy rayon mamlakatning eng katta xududini egallaydi (736,2 ming km<sup>2</sup>), aholisi soni bo'yicha esa uchinchi o'rinda turadi (3 081 359 kishi). Respublika xududining 27 foizi, aholisining esa 13,2 foizini tashkil etadi. Aholi zichligi eng past bo'lib, 1 km kvadratga 4,2 kishi to'g'ri keladi.

Bu ko'rsatkich respublika umumiy ko'rsatkichidan deyarli ikki marta past. Mintaqa xududi asosan tekislik va past tekisliklardan iborat. MDHning eng past nuqtasi Qoragiyo (Botir) botig'i ham shu yerda bo'lib, dengiz sathidan -132 metr pastda joylashgan. Mintaqa xududi sharqqa tomon asta-sekin ko'tarilib boradi. Buyerda Ural tog'larining Janubiy qismi bo'lgan Mug'ojar tog'lari joylashgan. Bu tog' qadimgi, yemirilgan va past tog' bo'lib, eng baland nuqtasi Boqtiboy - uning balandligi 656 metrni tashkil etadi. Mang'ishloq yarim orolida Oqtov tog'i joylashgan, uning balandligi 700 metrdan oshmaydi.

G'arbiy Qozog'iston foydali qazilmalarga juda boy. Asosiy boyligi neft bo'lib, u ko'plab MDH davlatlariga eksport qilinadi. Mang'ishloq yarim orolida neftdan tashqari marganes, ko'mir, temir rudasi, fosforit, oxaktosh kabi foydali qazilmalar topilgan. Mug'ojar tog'larida esa temir rudasi konlari topilgan. Shuningdek Aktyubinsk viloyatida fosforit, xromit, nikel, kobalt rudalari, marmar, shisha qumi, ohaktosh va boshqa qimmatbahoi minerallar topilgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek mintaqa hududida aholi zichligi ancha past. Eng yuqori ko'rsatkich uning shimoliy qismida bo'lib, 1 km kvadratga 10 kishi atrofida to'g'ri keladi. Hozirgi kunda jami aholisining 59 foizi shaharlarda istiqomat qiladi. Shahar aholisi asosan viloyat markazlarida (Aktyubinsk, Atirau, Mang'ishloq) ko'pchilikni tashkil etadi. Bu viloyatlardan farqli o'laroq G'arbiy Qozog'iston viloyatida qishloq aholisi

ko'pchilikni tashkil etadi. Mintaqada 14 ta shahar bo'lib, shundan yarmi Aktyubinsk viloyatiga to'g'ri keladi. Yirik shaharlari Aktyubinsk, Uralsk, Oqtov, Atirau bo'lib bularning har birida 150-300 ming kishi istiqomat qilishadi. Bundan tashqari Oqsoy, Yangi Uzen, Xromtov, Chelkar kabi shaharlari ham bor.

G'arbiy Qozog'iston MDH davlatlaridagi kelajagi porloq neft-gaz mintaqasi hisoblanadi. Dastlab bu yerda Jetiboy, Uzen konlari, keyinroq Tanga, Tasbulat, Karamandibas konlari ochilgan edi. Hozirgi kunga kelib yangi konlar: Shimoliy Bo'zagan, Kalamkas, Karajanbas va boshqalar topildi. Mintaqada Makat-Beynev, Shevchenko-Uzen temir yo'li tortilgan. Oxirgi stansiyasi asosida Yangi Uzen shahri tashkil etildi.

Mang'ishloqda qazib olinadigan neft Uzen-Atirau-Samara quvur transporti orqali Volga bo'yiga, Uzen-Aktau neftquvurlari orqali Oktau portiga keltirilib MDH davlatlariga jo'natiladi.

Mintaqa hududida Mang'ishloq HIChM rivojlangan. Bu HIChMsi neftni qayta ishlash, gaz, kaliy sanoati va qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Uning geografik o'rni juda qulay bo'lib, hududidan Volgabo'y, Shimoliy Kavkaz, Ural, Kavkaz orti va O'rta Osiyo respublikalarini tutashtiruvchi temir yo'llari o'tgan. G'arbiy Qozog'istonda respublikaning asosiy gaz konlari joylashgan. Lekin gaz qazib chiqarish hozirda ko'p emas. Qazib olingan gaz Qozog'iston (Yangi Uzen) gaz qayta ishlash zavodida tozalanib iste'molga jo'natiladi. Bir qismi esa O'rta Osiyo - Markaz gaz quvur orqali Rossiyaga yuboriladi.

Atirau viloyatida neft-gaz kompleksidan tashqari metallurgiya, kimyo sanoat kompleksi ham shakllangan. Mintaqaning kimyo sanoati neft gaz sanoatidan tashqari xilma-xil kimyo xom ashyosi qazib olish sanoati bilan ham chambarchas bog'liqdir. Bu mintaqada Atirau polietilen va Oqtov plastmassa zavodlari ishlab turibdi.

G'arbiy Qozog'istonda oziq-ovqat sanoati ham, ayniqsa baliqni qayta ishlash yaxshi rivojlangan. MDH davlatlarida

ovlanadigan osetr balig'ining 70 foizini G'arbiy Qozog'iston iqtisodiy rayoni yetkazib beradi. Baliq asosan Kaspiy dengizida va Ural daryolarida ovlanadi. Bu yerda MDH davlatlaridagi eng yirik konserva kombinatlaridan biri - Atirau baliq konserva kombinati joylashgan. Shuningdek mintaqada un va un mahsulotlari, go'sht, sut ishlab chiqarish ham yaxshi taraqqiy etgan.

G'arbiy Qozog'iston xo'jaligida qishloq xo'jaligi ham yetakchi o'rinda turadi. Ayniqsa chorvachilik yaxshi rivojlangan bo'lib, chorvachilikda yetakchi tarmoqni qo'ychilik egallaydi. Mintaqaning janubiy chalacho'l va cho'l hududlarida qorako'lchilik yaxshi rivojlangan. Shimoliy hududlarida esa yirik shoxli qoramollar boqiladi. Qadimdan mintaqada yilqichilik bilan shug'ullanib kelishadi. Janubiy g'arbiy xududlarida tuyachilik rivojlangan bo'lib, umumiy soni bo'yicha respublikada birinchi o'rinni egallaydi.

Dehqonchilik mintaqada kam rivojlangan. Bu yerda respublikaning atiga 10 foiz shudgor qilinadigan yeri joylashgan. Dehqonchilikda donchilik yetakchi o'rinda turadi. Asosan bug'doy, tariq, arpa ekiladi. Shuningdek poliz ekinlari, pista yetishtirish ham yaxshi yo'lga qo'yilgan.

1. G'arbiy Qozog'iston va Aktyubinsk viloyatlarining shimoliy qismlari dehqonchilikka chorvachilikka ixtisoslashgan. Bu yerda intensiv dehqonchilik rivojlangan bo'lib, asosan bug'doy yetishtiriladi, yordamchi tarmoq esa go'sht sut chorvachiligi va mayin yungli qo'ychilik hisoblanadi.

2. Aktyubinsk va G'arbiy Qozog'istondan markaziy qismlari chorvachilik va dehqonchilikka ixtisoslashgan. Bu yerda go'sht va jun yetishtirish yetakchi o'rinda turadi. Dehqonchilik esa yordamchi tarmoq hisoblanadi.

3. G'arbiy Qozog'iston va Aktyubinsk viloyatining janubiy qismlari, Atirau va Mang'ishloq viloyatlari barcha hududlari chorvachilik zonalari hisoblanadi. Mintaqaga go'sht va jun uchun qo'ychilik, qorako'lchilik, yilqichilik va tuyachilikka

ixtisoslashgan.

Mintaqa transportida yetakchi o'rinni temiryo'l transporti egallaydi. Avtomobil transporti va suv yo'llari ham katta ahamiyatga egadir. Respublikaning boshqa hududlariga nisbatan quvur transporti oldingi o'rirlarda turadi. Shuningdek dengiz transporti ham yaxshi rivojlangan.

G'arbiy Qozog'istonidan ko'plab sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari qo'shni rayonlarga tashiladi. Asosiy olib chiqiladigan mahsulotlar neft va neft maxsulotlari, gaz, nikel rudalari, xromit, turli xil mashinasozlik maxsulotlari, baliq, konserva, trikotaj, tikuvchilik maxsulotlari, mineral o'g'it va boshqalardir.

## 8.8 SHIMOLIY QOZOG'ISTON

Shimoliy Qozog'iston to'rtta viloyatni o'z ichiga oladi. Bular - Kustanay, Shimoliy Qozog'iston, Aqmola va Pavlodar viloyatlaridir. Hududiga ko'ra uchinchi o'rinda (565,7 ming km<sup>2</sup>), aholisi soniga ko'ra esa ikkinchi o'rinni egallaydi (4,4 mln kishi). Shimoliy Qozog'iston Respublika hududining 20,8 foizini, aholisining 26,6 foizini tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 8,5 kishi to'g'ri keladi.

Mintaqa hududi asosan tekislikdan iborat. Shimoliy qismi G'arbiy Sibir tekisligi bilan qo'shilgan bo'lsa, janubiy qismi Qozog'iston past tog'laridan iborat (balandligi 300-400 m).

Shimoliy Qozog'iston foydali qazilmalarga juda boy. Bu yerda yirik temir rudasi konlari, Toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir, boksit, rangli va nodir metallar, qurilish materiallari va boshqa konlar topilgan. Mintaqada yirik boksit (Arqalik), oltin (Stepnyak, Maykalen), asbest (Jetigora), osh tuzi va mirobilit (Pavlodor), sement xom ashyosi, oyna qumlari konlari joylashgan.

Shimoliy Qozog'istonda 4,4 mln. kishi istiqomat qiladi. Aholi zichligi 1km<sup>2</sup> ga 8,5 kishini tashkil etadi. Aholi milliy

tarkibi juda xilma-xil. Shimoliy Qozog'iston va Kustanay viloyatlarida aholi zichligi yana ham yuqori bo'lib, 10-15 kishiga to'g'ri keladi. Aholining milliy tarkibida qozoqlar va ruslar ko'pchilikni tashkil etadi. Bundan tashqari ukrainlar, beloruslar, tatar, udmurt, boshqird, mordva, nemis va boshqalar ham yashashadi. Qozoqlar barcha hududlarda joylashgan. Lekin asosiy qismi markazi va janubiy qismlarda yashashadi.

Mintaqa aholisining 49 foizi shaharlarda yashaydi. Shimoliy Qozog'iston viloyatida qishloq aholisi 5 foizni tashkil etadi. Shimoliy Qozog'istonda 24 ta shahar va 45 ta shahar tipidagi posyolka bor. Pavlodar (61 foiz) va Aqmola (59 foiz) viloyatlarida shahar aholisi ko'pchilikni tashkil etadi. Yirik shaharlari viloyat markazlari hisoblanadi. Eng yirik shahar Pavlodar bo'lib, 350 ming dan ortiq aholi yashaydi. Bu yerda Petropavlovsk (250 ming) Kustonay (267 ming). Kokchatov (137 ming) kabi yirik shaharlari bor. Bundan tashqari Arqalik Rudniy, Lisokovsk, Ekibastuz, Yermak, Irtish kabi shaharlari ham shu mintaqada joylashgan. Shimoliy Qozog'istonda Maykuben ko'mir basseyni (xovzasasi) joylashgan bo'lib, uning zahirasi 10 mlrd tonna atrofida deb baholangan. Arzon ko'mir asosida Ekibastuz yoqilg'i energetika kompleksi rivojlangan. Elektroenergiya Ekibastuz -Ural – Markaz, Ekibastuz-Qoratov, Ekibastuz - Barnaul elektr uzatish liniyalari orqali MDH davlatlariga yuboriladi.

Shimoliy Qozog'istonda temir rudalari qazib chiqarish, boksit, ko'mir, asbest, qurilish materiallari kabi sanoat tarmoqlari shakllangan. Oxirgi o'n yilliklarda sanoat tarmoqlari keskin o'sdi. Oziq-ovqat va yengil sanoat xajmiga nisbatan og'ir sanoat tez rivojlandi.

Qora metallurgiya Kustanay temir xavzasidan qazib olish va boyitish asosida rivojlangan. Magnitli rudalarni Sokolov-Sarboy hamda Ko'char tog' boyitish kombinati beradi.

Mashinisozlik sanoati qishloq xo'jaligi uchun mashina va dastgohlar yetkazib beradi. Bular Pavlodar traktor zavodi,

Aqmoladagi ikkita qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi Makinsk va Atbazardagi qishloq xo'jalik mashinalari detallari zavodi va boshqalardir.

Rayon iqtisodiyotida oziq-ovqat sanoati katta axamiyatga egadir. Bu tarmoq jami sanoat maxsulotining to'rtadan bir qismini tashkil etadi. Yetakchi tarmog'i go'sht sanoatidir. Petropavlovsk, Kustanay, Kokchatov, Pavlodar, Ekibastuz kabi shaharlarda yirik go'sht kombinatlari joylashgan.

Shimoliy Qozog'iston - Respublikaning yirik don yetishtirishga ixtisoslashgan mintaqasi hisoblanadi. Uning hisobiga respublikadagi 60 foiz ekin maydoni, 80 foiz non mahsulotlari ishlab chiqarish to'g'ri keladi. Shu bilan birga shimoliy Qozog'iston yirik chorvachilik rayoni hamdir. Mintaqada respublikaning 50 foiz yirik shoxli qoramoli, 60 foiz cho'chqa, 30 foiz yilqi, 16 foiz qo'y va echkilari boqiladi.

Chorvachilik – shimoliy qismida sut va go'sht, janubiy qismida go'sht va jun yetishtirishga ixtisoslashgan. Yirik shoxli qoramollar Kustanay, Shimoliy Qozog'iston viloyatlarida, qo'y va echikilar Pavlodar, Oqmala, Kustanay viloyatlarida, cho'chqa Kustanayda, Shimoliy Qozog'istonda va Oqmala viloyatlarida ko'pchilikni tashkil etadi. Deyarli barcha viloyatlarda yilqichilik va parrandachilik rivojlangan. Ayniqsa Kustanay yilqi zotlari ko'plab boqiladi.

Shimoliy Qozog'iston Rossiyaning Ural va G'arbiy Sibir iqtisodiy rayonlari bilan chegaradosh bo'lib, uning xududidan Transsibir, O'rta Siber, Janubiy Siber, Transqozog'siton transport yo'llari kesib o'tgan. Shuningdek Irtish daryosi Qozog'istonning asosiy suv yo'l hisobladi. Shu sababli tashqi iqtisodiy aloqalarida temir yo'l transporti va suv transportining ahamiyati kattadir.

Keyingi yillarda boshqa zamонави transport turlari (avtomobil va quvur)ning ahamiyati ortib bormoqda.

Rayondan asosan temir rudasi, ko'mir, elektroenergiya, alyuminiy, traktorlar, buldozerlar, qishloq xo'jalik mashinalari, kimyoiy maxsulotlar, oziq-ovqat, to'qimachilik maxsulotlari,

neft maxsulotlari chetga olib ketiladi.

Don maxsulotlari, qurilish materiallari, tuz, neft maxsulotlari tashishda Irtish daryosining axamiyati kattadir. Daryo orqali G'arbiy Sibirdan Sharqiy Qozog'istonga va aksincha Tranzit yuklar ham tashiladi.

## 8.9 MARKAZIY QOZOG'ISTON

Markaziy Qozog'iston iqtisodiy rayoniga ma'muriy jihatdan Qarag'anda va Ulitov viloyatlari kiradi. Maydonining kattaligi va aholisi soniga ko'ra iqtisodiy rayonlar orasida to'rtinchı o'rinda turadi. (Maydoni 428 ming km<sup>2</sup>, aholisi 1.8 mln kishi). Respublika hududining 15,7 foizini, aholisining 10,8 foizini tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 5,8 kishi to'g'ri keladi.

Iqtisodiy rayon Nura va Sarisu daryolari havzasida joylashgan. Rel'efi tekislikdan iborat bo'lib, mutlaq balandligi 400-500 m dan oshmaydi. Mintaqaga yer osti boyliklariga nixoyatda boy. Bu yerda MDH ning eng yirik ko'mir, mis, volfram, molibden, rux, qalay, nodir metallar, temir rudasi, kimyoiy xom-ashyo va qurilish materiallari konlari topilgan.

Markaziy Qozog'iston hududida doimiy oqar daryolar kam. Asosiy dayolari Nura va Sarisu bo'lib, qorlarning erishidan to'yinadi. Shu sababli daryo bahor oyalarida to'lib oqadi. Yozda Nura daryosidan tashqari barcha daryolari qurib qoladi. Shu sababli daryo suvlaridan unumli foydalanish maqsadida suv omborlari shifobaxshliligi bilan axamiyatlidir.

Ko'llar ko'p ular 2000 atrofida bo'lib tog'li mintaqalarda chuchuk suvli, tekisliklarda sho'r suvli ko'llar joylashgan, ba'zilari shifobaxshliligi bilan axamiyatlidir.

Mintaqaning Janubiy-Sharqiy qismida Balxash ko'li joylashgan bo'lib, xo'jalik faoliyatida muhim o'rinni egallaydi. Shu bilan birga yer osti suvlarini ham ko'p, ulardan ayniqsa Janubiy qismlarida foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Markaziy Qozog'istonda aholi zichligi nisbatan past.

Faqatgina G'arbiy Qozog'iston dan oldinda turadi. Aholi mintaqasi hududida notekis joylashgan. Ko'pchiligi mintaqaning shimoliy qismida shahar va shahar tipidagi posyolkalarda istiqomat qilishadi. Eng yuqori zichlik Qarag'anda va Temirtov rayoni hududida bo'lib, 1 km<sup>2</sup> ga 120 kishi atrofida to'g'ri keladi. Aksincha Betpaq Dalada va Balxash bo'yida esa 1km<sup>2</sup> ga 2-3 kishini tashkil etadi. Iqtisodiy rayonning shimoliy qismida shahar va qishloqlar avtomobil va temir yo'llar bo'yida, daryo va ko'l sohillarida joylashgan bo'lib ancha yirikligi bilan ajralib turadi. Janubiy qismida ovullar joylashgan va ular juda kichik va tarqoqdir.

Iqtisodiy rayon aholisi milliy tarkibi xilma-xil bo'lib 30 dan ortiq millatlar istiqomat qiladi. Qozoqlar va ruslar ko'pchilik bo'lib, jami aholining 60%ini tashkil qiladi.

Iqtisodiy rayon aholisining 82 foizi shaharlarda yashashadi. Bu MDH davlatlaridagi eng urbanizatsiyalashgan mintaqalardan biridir. Rayonda 10 ta shahar va 50 dan ortiq ishchi posyolkalari bor. Eng yirik shaharlari Qaraganda (519 381), Temirtau (212 ming) Jesqazg'an(109), Saran, Shahtinsk, Balxash va boshqalar.

Markaziy Qozog'iston Donbass, Kuzbass kabi MDH davlatlarining sanoati rivojlangan markazlardan biridir. Sanoatning yetakchi tarmog'i ko'mir sanoati, rangli va qora metallurgiya, mashinasozlik va kimyo sanoati hisoblanadi. Mintaqa respublikada qazib olinadigan toshko'mirning hammasini, cho'yan, po'lat, prokat hamda ko'plab miqdorda rangli metallarni yetkazib beradi. Markaziy Qozog'iston korxonalarida tog'-kon sanoati uchun mashina va dastgohlaringin asosiy qismi ishlab chiqariladi. Bundan tashqari mintaqada rezina texnika mahsulotlari, qurilish materiallari, poyafzal, trikotaj va tikuvchilik materiallari ishlab chiqaziladi. Sanoat korxonalaridan eng mashhurlari to'liq siklli Qaraganda metallurgiya kombinati, Temirtov "Qozog'iston magniti", Balxash tog' metallurgiya kombinati, Jezqazg'an metallurgiya

kombinati va boshqalardir.

Markaziy Qozog'istonning katta qismi yaylovlardan iboratdir. Shu sababli bu yerda qo'ychilik, yilqichilik, yirik shoxli qoramollar, tuyachilik yaxshi rivojlangan. Qishloq xo'jaligida don yetishtirish ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Mintaqaning shimoliy va janubiy qismlarida daryo vodiylarida dehqonchilik bilan shug'ullanishadi. Asosiy ekinlari bug'doy, texnika ekinlaridan esa pista va zig'ir ko'p ekiladi.

Markaziy iqtisodiy rayon chorvachiligidagi qo'ychilik va qoramolchilik yetakchi o'rinda turadi. Shaharlar atrofida va sug'oriladigan yerlarda sut-go'sht chorvachiligi, qurg'oqchil mintaqalarida esa go'sht chorvachiligi yo'lga qo'yilgan. Qo'ychilik barcha hududlarda, qorako'lchilik esa mintaqaning janubiy qismida rivojlangan.

Mintaqa xo'jaligida temir yo'l transporti yetakchi o'rinda turadi. Bu yerdan Trans Qozog'iston temir yo'li o'tgan. Avtomobil va havo transporti mintaqani MDH davlatlari bilan bog'laydi. Markaziy iqtisodiy rayondan ko'plab yuklar Uralga, Volga bo'yiga, Sharqiy va Janubiy Qozog'iston hamda O'rta Osiyo respublikalariga tashiladi. Asosiy tashiladigan yuklar ko'mir, marganes, rangli va qora metallar, don mahsulotlari, xalq iste'mol buyumlari kabilardir.

## 8.10 SHARQIY QOZOG'ISTON

Bu iqtisodiy rayon - Sharqiy Qozog'iston hamda Abay viloyatlaridan iborat. Respublika hududining atiga 10 foizini tashkil etadi (283,2 ming km<sup>2</sup>). Aholisining soniga ko'ra ham respublikada oxirgi o'rnlarda turadi (1972683 kishi, 10 foiz). Aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 7 kishi to'g'ri keladi.

Uning hududi Irtish daryosining yuqori havzasida Xitoy bilan chegaradosh joylashgan. Janubiy sharqdan Shimoliy g'arbg'a tomon Irtish daryosi oqib o'tadi. Suv yo'li orqali G'arbiy Sibir va Uralga chiqish imkoniyatiga ega. Sharqiy Qozog'iston

Turksib temir yo'li orqali G'arbiy va Sharqi Sibir, Janubiy Qozog'iston hamda O'rta Osiyo Respublikalari bilan bog'langan.

Tabiiy sharoiti juda xilma-xil. Bu yerda baland Janubiy Oltoy tog'lari, Oltoy oldi dashtlari, Qozog'iston past tog'larining sharqiy qismi, Balxash-Olako'lbotig'i, Irtish dashtlari joylashgan.

Tabiiy sharoitining xilma-xilligi bo'yicha faqatgina Janubiy Qozog'istondan keyinda turadi. Tabiiy boyliklari bo'yicha esa Ural bilan tenglasha oladi.

Sharqi Qozog'iston tog'lari tabiiy resurslarga boy. Oltoy tog'larida 1000 ga yaqin rangli metallar konlari topilgan. Asosiy boyligi polimetall rudalari rux, qalay, mis, oltin, kumush, surma, simob, volfram, molibden va boshqa nodir metallardir.

Sharqi Qozog'istonda yonuvchi foydali qazilmalar nisbatan kam. Ulardan Kenderli toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir koni, hamda Zaysan botig'idagi yonuvchi slanes konlari ahamiyatlidir.

Shu bilan birga bu yerda qurilish uchun zarur bo'lgan tabiiy tosh materialari ko'plab tarqalgan. Bundan tashqari barcha hududlarda gips, ohaktosh, sement xom ashyolari ham uchraydi.

Sharqi Qozog'istonda, ayniqsa uning tog'li hududida daryolar va ko'llar ko'p. Asosiy daryosi Irtish bo'lib, uning boshlanishi respublikadan tashqarida Mongoliya Oltoyidadir. Irtishning yirik irmoqlaridan Kurchum, Buxtarma, Ulba kabilar sersuv va GESlar qurish uchun qulaydir.

Respublikaning 50 foiz Gidroenergiya zahirasi Sharqi Qozog'istonga to'g'ri keladi. Uning bir qismidan hozirgi kunda foydalanimoqda. Ko'plab GESlar qurilgan bo'lib, ulardan eng yiriklari Ust Komenagorsk, Buxtarma gidroelektr stansiyalaridir. Daryo suvlaringin ko'pchiligi sug'orishga sarflanadi.

Sharqi Qozog'iston ko'llari juda go'zaldir. Ulardan Zaysan, Markakol, Sassiqlik va boshqalar kattaligi bilan ajralib turadi. Markakol ko'li Oltoydagi eng yirik ko'l bo'lib, u dengiz sathidan 148 metr balandlikda joylashgan. Bu yerda Markap Kol

qo'riqxonasi tashkil etilgan.

Sharqi Qozog'iston respublikaning boshqa hududlariga nisbatan o'rmon resusrlariga boy. Mamlakatning 40 foizdan ortiq o'rmoni shu yerda joylashgan.

Aholisining soniga ko'ra oxirgi o'rinda bo'lsada, zichligi bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. Rudali Oltoy va shimoliy g'arbiy tog' oralig'i botiqlarida aholi zichligi ancha yuqori. Yirik aholi punktlari ham shu yerda joylashgan, qishloqlar ham ancha katta. Zaysan botig'i, Qozog'iston past tog'larida aholi zichligi nisbatan kam.

Sharqi Qozog'iston aholisining deyarli 90 foizini ruslar va qozoqlar tashkil etadi. Shuningdek ukrainlar, tatarlar, mordvalar, bolgarlar, nemislar va boshqa millat vakillari ham yashashadi.

Qozoqlar jami aholining 30%ini tashkil etadi va ular asosan Qozog'iston past tog'larida, Torbog'otoyda va Zaysan botig'ida joylashgan.

Mintaqa aholisining 57 foizi shaharlarda istiqomat qilishadi. Urbanizassiya darajasiga ko'ra Markaziy va G'arbiy Qozog'istondan keyingi o'rinda turadi.

Iqtisodiy rayonda 9 ta shahar va 30 ga yaqin shahar tipidagi pasyolkalar mavjud. Eng yirik shaharlari Semey (Semipalatinsk), Ust-Kamenogorsk bo'lib bularda 300 mingdan ortiq aholi yashaydi. Shuningdek nisbatan yirikroqlari Leninogorsk, Ziryanovsk, Ayaguz va boshqalardir.

Semey (Semipalatinsk) respublikadagi eng yirik sanoat markazlaridan biri bo'lib, asosiy transport tuguni hamdir. Semey (Semipalatinsk) go'sht kombinati MDH davlatlaridagi yirik korxonalardan biri hisoblanadi (3-o'rinda). Shaharda uchta oliy o'quv yurti, 10 dan ortiq texnikumlar mavjud, bularda minglab o'g'il qizlar ta'lim olishadi.

Ust-Kamenogorsk - mamlakatning va MDH davlatlarining eng asosiy rangli metalluriya markazi hisoblanadi. Bu yerdagi kombinatda qalay, rux, oltin, kumush, volfram, molibden,

kadmiy kabi 20 dan ortiq minerallar olinadi. Rangli metallurgiya iqtisodiy rayonning ixtisoslashgan tarmog'i hisoblanadi. Mintaqada Leninogorsk, Ziryanovsk, Glubokoe, Usttalovka kabi rangli metallurgiya markazlari bor.

Kimyo sanoati rangli metallurgiya bilan chambarchas bog'liqidir. Ayniqsa oltingugurt kislotasi ishlab chiqarish rivojlangan. Kimyo va rangli metallurgiya sanoati elektr energiyani ko'p talab etadi. Shu sababli daryolarga ko'plab GESlar qurilgan.

Bundan tashqari Kuzbass ko'miri asosida ishlaydigan Semey (Semipalatinsk), Ust-Komengorsk, Leninogorsk. Ziryanovsk va boshqalar joylashgan. Barcha elektrostansiyalar Oltoy energosistemasiiga birlashtirilgan.

Energetika va rangli metallurgiya Sharqiy Qozog'istonning asosiy sanoat tarmoqlari hisoblanadi. Bular bilan bog'liq ravishda mashinasozlik va qurilish materiallari sanoati ham rivojlangan. Ust-Kamenogorskdagi "Vostokmash" korxonasiada metallurgiya zavodlari uchun mashina va dastgohlar ishlab chiqariladi. Semey (Semipalatinsk) kabel zavodi qurilgan.

Sharqiy Qozog'istonda sanoat bilan birga qishloq xo'jaligi ham katta ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligida chorvachilik yetakchi o'rindadir. Mintaqa hududining 80 foizi yaylov uchun qulay. Chorvachilikda qo'ychilik yaxshi rivojlangan va barcha hududlarda boqiladi.

Qoramolchilik Oltoy, Torbogotoy etaklarida suto'go'sht chorvachiliga, qolgan hududlarda esa go'sht-sut yetishtirishga ixtisoslashgan. Yevropa millatiga mansub aholi cho'chqachilik bilan shug'ullanishadi. Sharqiy Qozog'iston - respublikadagi asosiy bug'uchilik rivojlangan mintaqadir. Bug'uning shoxlaridan meditsinada dori-darmon olish uchun foydalilanildi.

Oltoy va Torbogotoy yonbag'irlarida asalarichilik rivojlangan. Bu yerda olinadigan asal MDHdagi eng toza hisoblanadi.

Dehqonchilik chorvachilikdan keyin turadi. Sug'orib

dehqonchilik qilishga nisbatan lalmikor dehqonchilik ustun bo'lib, ekin ekiladigan yerlarning 70 foiziga donli ekinlar ekiladi. Ayniqsa bug'doy yetishtirish yaxshi rivojlangan. Tog' yonbag'irlarida suli, tariq, grechka yetishtiriladi. Texnika ekinlaridan - pista yetishtirishga ixtisoslashgan.

## 8.11 JANUBIY QOZOG'ISTON

Janubiy Qozog'iston Qizil O'rda, Jambul, Turkiston, Jettisuv va Olma-Ota viloyatlarini o'z ichiga oladi (maydoni 712,1 ming km<sup>2</sup>). Jami aholisi 10296955 kishi.

Respublika maydonining 26 foizini, aholisining esa 51 foizini tashkil etadi. Mintaqa hududining kattaligi bo'yicha Shimoliy Qozog'istondan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Shu bilan birga bu mintaqada aholi zichligi eng yuqori bo'lib, 1 km<sup>2</sup> ga 14,4 kishi to'g'ri keladi. Bu iqtisodiy rayon mamlakatning iqtisodiyoti rivojlangan hududlaridan biridir. Uning qulay tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari agrosanoat komplekslaridan: paxtachilik, donchilik, meva va uzum yetishtirish, qand lavlagi, tamaki, sholi yetishtirishga ixtisoslashishga olib kelgan.

Janubiy Qozog'istonda sanoat ham yaxshi rivojlangan. Unda tog' kon sanoati, kimyo, mashinasozlik, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlari yaxshi rivojlangan.

Bu rayonda Olma-Ota sanoat uzeli, Chimkent va Qoratov - Jambul HIChM lari rivojlangan.

Janubiy Qozog'iston hududida qadimdan bir qancha xalqlar yashab kelishgan. Mintaqa aholisining 45 foiziga yaqini qozoqlar, 40 foizga yaqinini ruslar tashkil etadi. Bundan tashqari ukrainlar, o'zbeklar, uyg'urlar, dungan, tatar va boshqalar ham yashashadi.

Janubiy Qozog'istonda qishloq aholisi ko'pchilikni tashkil etadi. Jami aholisining 58 foizi qishloqlarda 42 foizi esa shaharlarda yashaydi. So'nggi 20 yil davomida qishloq aholisi 3 foizga ortdi.

Mintaqada shaharlar soni ko'pchilikni tashkil etadi. Bu

yerda 25 ta shahar, 50 ta shahar tipidagi posyolka joylashgan. Qadimgi shaharlardan Taraz, Chimkent, Turkiston bilan bir qatorda yosh sanoat shaharlari Takali, Langar, Kentau, Qoratov, Janatas va boshqalar bor.


Mintaqada respublikaning yirik shahri Olma-Ota joylashgan bo'lib, yaqin vaqt largacha poytaxt vazifasini bajargan. Aholisi 2,2 mln kishini tashkil etadi. Olma-Ota yirik sanoat va madaniyat markazidir. Shaharda 20 ga yaqin oliv o'quv yurtlari, 100 dan ortiq ilmiy-tekshirish institutlari joylashgan. Chimkent - aholisi soni bo'yicha respublikada uchinchi o'rinda turadi (1,2 mln dan ortiq). Mintaqadagi yirik sanoat markazlaridan biridir. Shahar XII asrda buyuk ipak yo'li bo'yida vujudga kelgan. Shaharda 70 dan ortiq sanoat korxonalari mavjud. Ulardan asosiyлari kimyo-farmatsevtika, qo'rg'oshin zavodi, temirchilik presslash, fosforit, neftni qayta ishlash, shina va boshqa korxonalardir. Shuningdek Qozog'istonning yirik sement zavodi ham shu shaharda joylashgan. Ko'plab yirik korxonalar qishloq xo'jalik mahsulotlari: paxta tozalash, yog' ekstraksiya, qorako'l, konserva va boshqalarni qayta ishlashga ixtisoslashgan.

Taraz - Janubiy Qozog'istonning uchinchi yirik shaharidir. Aholisi 430 ming kishidan ortiq. Qadimgi shaharlardan biri bo'lib VI asrlarda tashkil topgan. Shaharda sariq fosfor ishlab chiqarish, superfosfat zavodi, charm-poyafzal, jun, shakar zavodi va boshqalar joylashgan. Shahar Qoratov - Jambul HIChMning asosi. Bu yerda MDHdagi eng yirik fosforit havzasi joylashgan. Taraz - respublikaning yirik oziq-ovqat va yengil sanoat markazidir.


### **Mustaxkamlash uchun savollar**

1. Qozog'istonning tabiiy geografik o'rniiga ta'rif bering.
2. Qozog'istonning eng rivojlangan sanoat tarmoqlarini ayting.
3. Respublikaning yirik ko'mir, neft, gaz va rudali konlari qaysi xuduudda joylashgan.

## **9. QIRG'IZ RESPUBLIKASI**



**Qirg'iz Respublikasi bayrog'i va gerbi**



**Qirg'iz Respublikasining kosmik surati va xaritasi**




## **QIRG'IZ RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI, GEOGRAFIK O'RNI, TABIIY SHAROITI VA BOYLIKHLARI**

1991-yil 31-avgusda respublika Oliy Kengashi Qirg'izistonni mustaqil, suveren, demokratik davlat deb e'lon qilgan. 1993-yil 5-maydan Qirg'iz Respublikasi deb nomlandi. Qirg'iz Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlarining Sharqiy qismida joylashgan. Uning maydoni 198,5 ming km<sup>2</sup> bo'lib Markaziy Osiyo davlatlari orasida to'rtinchchi o'rinda turadi. Qirg'iz Respublikasi BMT ning a'zosidir.

Aholisi 7 037 ming (2023) kishi. Uning 72,6 foizi qirg'izlar, 14,3 foizi o'zbeklar, 10,6 foizi ruslar va 8,3 foizi tochiklar, 5 foiz boshqa millat vakillaridan iborat. Umuman mamlakatda 90 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilishadi.

Aholi zichligi 1 km<sup>2</sup>ga 35,7 kishi to'g'ri keladi. U Markaziy Osiyo davlatlarining 4,9 foiz xududini, 8 foiz aholisini tashkil etadi. Poytaxti - Bishkek shahri, respublika shimolida Qozog'iston, g'arbida O'zbekiston, janubiy g'arbda Tojikiston, janubi va sharqda Xitoy bilan chegaradosh. Ma'muriy jihatdan 7 ta viloyat va respublikaga bo'yсинувчи шахарга бо'linadi. Respublikaga bo'yсуновчи шахарлар Bishkek va O'sh shaxarlaridir.



### **Qirg'iz Respublikasi ma'muriy hududiy bo'linishi**

**1. Chuy viloyati** - ma'muriy markazi - Bishkek shahri. Chuy viloyatiga 8 ta tuman - Alamedin rayoni, Jayil rayoni, Kemin

rayoni, Moskva rayoni, Panfilov rayoni, Sokuluk rayoni, Chuy rayoni va Issiq-Ota rayoni kiradi.

**2. Talas viloyati** - ma'muriy markazi - Talas shahri. Talas viloyati tarkibiga 4 ta tuman - Bakay-Ota rayoni, Qora-Buurin rayoni, Manas rayoni va Talas rayoni kiradi.

**3. Issiqko'l viloyati** - ma'muriy markazi - Qorako'l shahri. Issiqko'l viloyati 5 ta tumanni o'z ichiga oladi - Oq-Suv, Jeti-O'g'uz, Ton, Tup va Issiqko'l rayonlari.

**4. Norin viloyati** - ma'muriy markazi - Norin shahri. Norin viloyati tarkibiga 5 ta tuman - Oq-Talin rayoni, At-Bashi rayoni, Jumgal rayoni, Qochkor rayoni va Norin rayoni kiradi.

**5. O'sh viloyati** - ma'muriy markazi - O'sh shahri. O'sh viloyati 7 ta tumanni o'z ichiga oladi - Oloy rayoni, Aravon rayoni, Qora-Quldjin rayoni, Qora-Suv rayoni, Noovkat rayoni, O'zgan rayoni va Chon-Oloy rayoni.

**6. Jalolobod viloyati** - ma'muriy markazi - Jalolobod shahri. Jalolobod viloyati 8 ta tumanni o'z ichiga oladi - Oqsi rayoni, Ola-Buqa rayoni, Bozorqo'rg'on rayoni, Nooken rayoni, Suzoq rayoni, Tog'uz-Toru rayoni, To'xtog'ul rayoni va Chotqol rayoni.

**7. Botken viloyati** - ma'muriy markazi Botken shahri. Botken viloyati tarkibiga 3 ta tuman - Botken, Qadamjoy va Laylak tumanlari kiradi.

**8. Bishkek** - Qirg'iz Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq Qirg'iz Respublikasining poytaxti Bishkek shahri hisoblanadi. Bishkek shahri siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, ma'muriy, tarixiy va madaniy markaz bo'lib, respublika davlat hokimiyatining yuqori organlari, elchixonalari va xorijiy davlatlarning vakolatxonalarini joylashgan.

Qirg'iz Respublikasi tog'li respublika sifatida ajralib turadi. Bu yerda Tyan-Shan va Pomir-Oloy sistemasidagi tog' tizmalari joylashgan. Balandligi 7000 m dan ortadigan (G'alaba 7439 m) cho'qqilari ko'p. Yuksak tog' zanjirlarining cho'qqilari abadiy qor va muzliklar bilan qoplangan. Respublika hududining 1/3

qismi dengiz sathidan 3000 m va undan balandda joylashgan. Hududining yarmiga yaqin 1000-3000 m balandda joylashgan. Tog' vodiylari va yaylovlari halq ho'jaligi uchun katta ahamiyatga egadir. Hududining 30 foizga yaqin qismini o'rmonlar tashkil etadi.

Qirg'iz Respublikasi tog'lari Markaziy Osiyo davlatlari uchun katta ahamiyatga ega. G'arbdan keladigan nam xavo massalarini to'sib, ko'plab miqdorda yog'in yog'ishiga sabab bo'ladi. Yog'inxarning bir qismi yer ostiga singib ketadi, bir qismi esa Norin, Chuv, Talas havzalari daryolari to'yinishinga sabab bo'ladi. Respublika xududida Markaziy Osiyoning 50 foiz suv oqimi hosil bo'lgani holda, uning 5/1 qismi sug'orishga sarf bo'ladi. Suvning qolgan qismi esa qo'shni respublikalar O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'istonda ishlataladi.

Daryolarining asosiy qismi tog' daryolari bo'lganligi sababli sug'orish va gidroenergetika sifatida katta ahamiyatga ega. Gidroenergetika resurslari bo'yicha MDHda Rossiya va Tojikistondan keyingi o'rinda turadi. (Norin kaskadlari)

Iqlimi quruq keskin kontinental. Yog'in miqdori 100-120 mm dan ayrim joylarda 700-1000 mm gacha tushadi.

Tabiat respublika xududida ko'plab go'zal manzarani yaratgan. Bularidan asosiyлари Issiqko'l bo'lib jahonda baland tog'dagi eng katta va chuqur ko'llardan biri hisoblanadi. Respublika xududida Markaziy Osiyoda kattaligi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadigan Inilchek muzligi joylashgan. Uning uzunligi 60 km dan ham ortiq. Tog'lardagi daryolar daralari chiroyliligi bilan ajralib turadi. Respublikada davlat muhofazasiga olingan xududlar bo'lib, ularda Issiqko'l, Sari-Chelak, Betorol kabi qo'riqxonalar tashkil etilgan. Bular o'z navbatida respublika rekreatsiya resurslariga boyligini ko'rsatadi. Tabiat go'zalliklaridan baxramand bo'lish uchun bu joylarga respublikaning turli xududlaridan va qo'shni respublikalardan ko'plab dam oluvchilar va turistlar tashrif buyurishadi.

Respublikada ko'plab foydali qazilma konlari topilgan. Yirik oltin konlari (Issiqko'l oblastida) Surma va simob (Qadamjoy, Haydarkent) rudalari, toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir konlari (Toshko'mir, O'zgan, Ko'k yong'oq), volfram (Moylisoy) hamda Farg'ona vodiysida qisman neft va gaz konlari topilgan. Rangdor metallurgiya Qirg'iz Respublikasining ixtisoslashgan tarmoqlaridan biridir. Respublika tog'li xudud bo'lganligi sababli tabiiy resurslarni o'zlashtirishda ayrim qiyinchiliklar tug'iladi.

## 9.1 AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI

Respublikaning aholisi 7 037 ming (2023) kishi bo'lib aholining milliy tarkibida qirg'izlar ko'pchilikni tashkil etadi (70 foizdan ortiq). Respublika ham shu millat nomi bilan ataladi. Inqilobgacha ular qoraqirg'iz deb atalgan.

Aholisi milliy tarkibi bo'yicha ayrim rayonlari bir-biridan farq qiladi. Farg'ona vodiysining O'sh viloyatining sug'oriladigan yerlarida o'zbeklar istiqomat qilishadi. Ruslar, ukrainlar asosan Chuy vodiysida hamda Issiqko'l bo'ylerda, qozoqlar esa Talas vodiysida yashashadi. Bundan tashqari tatarlar, uygurlar, tojiklar, dunganlar, nemislar va boshqalar istiqomat qilishadi.

Respublika aholisi yildan yilga tabiiy o'sish hisobiga ortib bormoqda. Milliy tarkiblar bo'yicha eng yuqori o'sish qirg'izlarda kuzatilgan. Ya'ni 1979 yil aholi ro'yxati bo'yicha 1687 ming qirg'izlar yashagan bo'lsa, 1989 yilda 2230 ming kishi, 1999 yil ma'lumoti bo'yicha esa 3128 ming kishini yoki jami aholining 64,9 foizini qirg'izlar tashkil etgan.

Aksincha rus millatiga mansub kishilar mustaqillik yillari ancha kamaygan. 1979 yilda 912 ming kishi, 1989 yilda 916 ming kishi yashagan bo'lsa 1999 yilda 603 ming kishini tashkil etgan, yoki 1979 yilda 25,9 foizdan 1999 yilda 12,5 foizga tushib qolgan. Shuningdek nemis, tatar, ukrain millatlariga mansub aholi sonining ham kamayishi kuzatilgan.

**Qirg'iz Respublikasi aholi dinamikasi**

Xudud	Aholi soni		Umumiy o'sish	
	01.01.2020	01.01.2023	Ming kishi	%
Respublika bo'yicha	6 523,50	7 037,00	517,7	9,2
Botken viloyati	537,3	570,9	33,6	5,9
Jalolobod viloyati	1 238,80	1311	73,8	9,4
Issiqko'l viloyati	496	538,4	42,4	9,2
Norin viloyati	289,6	308,4	18,8	6,1
O'sh viloyati	1 368,10	1 460,40	92,3	6,4
Talas viloyati	267,4	273,5	6,1	2,3
Chuy viloyati	959,9	1 068,7	108,8	10,2
Bishkek shahri	1 053,90	1 145,00	91,1	8,0
O'sh shahri	312,5	361,3	48,8	13,6

Jadval taxlillari shuni ko'rsatadiki 2020 yildan 2023 yilgacha respublika axolisi tabiiy o'sish hisobiga 517,7 ming kishiga yoki 9,2 foizga ortgan. Shu davr ichida aholi soni O'sh, Bishkek shaxarlarida hamda Chuy, Jalolobod va Issiqko'l viloyatlarida nisbatan ko'p ortganini ko'ramiz. Eng past ko'rsatgich Talas va Botken viloyatlarida kuzatilgan.

**9.2 IQTISODIYOTI**

Qirg'iz Respublikasi xo'jaligi Markaziy Osiyo davlatlari xo'jaligidan farq qiladi. Respublikada mashinasozlik sanoati, ayniqsa ko'p mehnat talab qiladigan-elektornika, radiotexnika, priborsozlik hamda qishloq xo'jalik mashinasozligi yaxshi rivojlangan. Bishkekdagagi avto-yig'uv va fizika priborlari zavodlari, Qirg'izkabel, Qirg'izelektorodivigatel, Moylisoy lampa zavodi mamlakatning yirik korxonalar hisoblanadi.

Respublika sanoati mahalliy yoqilg'i va mineral xom

ashyolar asosida rivojlanib bormoqda. Sanoat korxonalarining 3/2 qismi Bishkek, O'sh, Toqmoq, Jalolobod shaharlarda joylashgan. Oxirgi yillarda sanoatni kompleks rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Kichik va o'rta shaharlarda ham bir qancha yangi sanoat korxonalari tashkil etilmoqda. Prijevalsk, Norin, Ribache, Qora-bolta, Toshko'mir, Qizilqiya va boshqa ko'plab shaharlar va qishloqlar shular jumlasidandir. Qirg'iz Respublikasi Markaziy Osiyoda surma, simob, o'rvu-yig'uv mashinalarni ishlab chiqarish, jun gazlamalar ishlab chiqarish, hayvon yog'i kabi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha alohida o'rinda turadi.

Mehnat resurslarining ortib borishi respublikada mehnat resurslarining ko'p talab qiluvchi mashinasozlik tarmoqlarini rivojlantirishga imkon yaratdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha mashinasozlik yetakchi tarmoqlardan (30 foiz) biridir. Mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha respublika Markaziy Osiyo davlatlari orasida yetakchi o'rnlarda turadi.

Respublika mashinasozlik korxonalarida xilma-xil mahsulotlar-metall qirquvchi stanoklar, qishloq xo'jalik mashinalari, avtosamosvallar, elektr mashinalari va elektrodvigatellar, fizik o'lchov asboblari, elektron hisoblash mashinalari, elektronasoslar, kir yuvish mashinalari (Kirgiziya) elektorlampalariga boshqalar ishlab chiqariladi. Bu mahsulotlar respublika extiyojidan tashqari ko'plab xorijiy mamlakatlarga eksport qilinadi.

Mamlakatda rangdor metallurgiya sanoati ham yaxshi rivojlangan. 1970 yilda Janubiy G'arbiy Qirg'izistonda tog' kombinati qurilgan. Kombinatda surma mahsulotlari ishlab chiqariladi. (Surma qazib olish bo'yicha MDH da 1-chi o'rinn). Shuningdek Janubiy G'arbiy Qirg'iz Respublikasida Haydarkent to'la siklli simob zavodi ishga tushirilgan. Bu yerda qazib olishdan tortib simob rudalari ishlab chiqarishgacha yo'lga qo'yilgan.

Urushdan keyingi yillarda Chuy vodiysining sharqiy qismlarida ham rangdor metallurgiya sanoati rivojlandi. Bu yerda qalay qazib oladigan va boyitadigan tog'-boyitish kombinati ishga tushirilgan. Respublika xududida topilgan oltin va rux konlari asosida oltin va ruh rudalari kombinatlari tashkil etilgan.

Qирг'из Respublikasi iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri yengil sanoatdir. (Bu tarmoqda respublikaning 1/4 qism ishlab chiqarish kuchlari band). Ayniqsa to'qimachilik, tikuvchilik, charm-mo'yna, poyafzal ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Yengil sanoat uchun hom ashyo respublikaning o'zida tayyorlanadi (paxta, jun, teri, ipak va boshqalar). Qирг'из Respublikasida tayyorlangan yengil sanoat mahsulotlari qo'shni respublikalarga eksport qilinadi.

Respublikadagi yirik yengil sanoat korxonalaridan O'sh paxtani qayta ishlash kombinati, To'qmoq jun qayta ishslash fabrikalari bo'lib, bular respublikaning asosiy mahsulotlarni ishlab chiqaradi.

Oziq-ovqat sanoati asosini un va un mahsulotlari, non kombinatlari, konditer, qand-shakar, vinochlik, sut, go'sht, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish tashkil etadi. Bu tarmoqlar respublikaning barcha hududlarida rivojlangan. Respublika qo'shni mamlakatlarga qand-shakar, o'simlik moyi, tamaki mahsulotlarini sotadi.

Og'irsanoattarmoqlariorasidako'mir sanoati ham yetakchi o'rinda turadi. Ko'mir respublikada uncha katta bo'limgan, qadimdan taniqli bo'lgan Qizilqiya, Sulyukta, Ko'k-yong'oq, Toshko'mir kabi konlardan qazib olinadi. Katta ahamiyatga ega bo'lgan konlari Qovoq va O'zgen ko'mir havzalarida bo'lib, ularda kokslanuvchi toshko'mir ochiq usulda qazib olinadi.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida qurilish materiallari sanoati ham o'ziga xos o'rinda turadi. Sanoat korxonalari, uy-joy, yo'llar qurilishi uchun xizmat ko'rsatadigan temir beton kombinatlari, uy qurilish kombinatlari, sement,

onya, marmar, granit ishlab chiqarish zavodlari tashkil etilgan. Respublikada yoqilg'i, metallurgiya va kimyo sanoatlari nisbatan kam rivojlangan.

### 9.3 QISHLOQ XO'JALIGI

Respublika qishloq xo'jaligi ham yaxshi rivojlangan. Qishloq xo'jaligi ko'p tarmoqli, mexanizatsiyalashgan tarmoqlardan bo'lib, chorvachilikka ixtisoslashgan. Ayniqsa qo'ychilik yetakchi tarmoq hisoblanadi. Qирг'из Respublikasi jun yetishtirish bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari orasida yetakchi o'rnlarda turadi.

Respublikada 1,3 mln. ga haydaladigan yerlar (1 mln. ga sug'oriladi) va 10 mln. ga yaqin tog' va tog' oldi yaylovlar mavjud.

Qирг'из Respublikasi tog'lari va tog' oldi yaylovlarida yaylov chorvachiligi rivojlangan. Bu yerlarda arzon go'sht va mayin junlar tayyorlanadi. Daryo vodiylari va tog' oralig'i botiqlarida sug'orib dehqonchilik qilish rivojlangan.

Respublikaning sug'oriladigan yerlarda 85-90 foiz dehqonchilik mahsulotlari tayyorlanadi. Bu yerlarda asosan qimmatbaho texnik ekinlar hamda chorvachilik uchun yem-xashak mahsulotlari ekiladi. Keyingi yillarda tamaki yetishtirish rivojlanib bormoqda.

Sug'orishni yaxshilash maqsadida bir qancha kanallar va suv omborlari bunyod etilgan. Ayniqsa Chuy kanali, Toxtagul, Kirov, Nayman, Norin kabi suv omborlari sug'orishda katta ahamiyatga egadir. Qирг'из Respublikasi agroqlim resurslari o'ziga xos va xilma-xildir. Qирг'из Respublikasi janubida respublikaning asosiy paxta ekiladigan maydonlari joylashgan.

Farg'ona va Talas vodiylari tog' yonbag'rlarida yuqori sifatlari sariq tamaki yetishtiriladi. O'sh viloyatining janubiy g'arbiy qismlari uzumchilik, bog'dorchilik, anor kabi o'simliklarni yetishtirish uchun qulay. Chuy vodiysida pista,

uzum, qandlavlagi yetishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Issiqko'l bo'ylarida esa olma, shaftoli, qora smarodina, malina kabi o'simliklar ekiladi.

So'nggi yillarda chorvachilik yana ham rivojlanib bormoqda. Jumladan mayin junli qo'ychilik, sut va go'sht chorvachiligi, cho'chqachilik, broyler jo'jachiligi, parrandachilik yaxshi yo'lga qo'yilgan. Yildan yilga qo'y va echkilar soni ortib bormoqda. Mahalliy seleksionerlar yordamida yangi qo'y zotlari yaratilgan. Jumladan - Qирг'из mayin yungli qo'ylari, Tyan-shan – yarim mayin yungli, Oloy dag'al yungli Olatov yirik shoxli qoramollari, yangi zotdor Qирг'из otlari shular jumlasidandir.

#### **9.4 TRANSPORTI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI**

Respublikada barcha zamonaviy transport turlari mavjud. Tashqi iqtisodiy aloqalar olib borishda temir yo'l transporti yetakchi o'rinda turadi. Temir yo'l transportining asosiy markazlari Shimoliy Qирг'из Respublikasi va Janubiy Qирг'из Respublikasi hisoblanadi. Tog'li respublika bo'lganligi sababli mamlakat ichki aloqalarini olib borishda avtomobil transporti katta ahamiyatga ega. Avtomagistrallar orqali Chuy vodiysi Talas vodiysi, Issiqko'l, Norin viloyatlari hamda O'sh viloyatlari bilan bog'langan. Avtomobil yo'llarining umumiyligi 35 ming km dan ortadi. Yirik avtomobil traktlari Bishkek-Ribache-Norin-Torugart-O'sh-Bishkek, O'sh-G'ulcha-Seriton-Xorog, Bishkek-Toshkent, Bishkek-Olma-Ota va boshqalar.

Ushbu avtomagistrallar respublikada ichki yuk va yo'lovchilar tashishdagina emas, balki Markaziy Osiyo davlatlari hamda Xitoy bilan ham iqtisodiy aloqalar qilishda muhim ahamiyatga egadir.

Ayrim avtomobil yo'llari tog' yaylovlari gacha cho'zilgan. Iqtisodiy zonalarga ichki havo liniyalari o'tkazilgan. Yirik shaharlar Bishkek, O'sh, Cho'lpon ota va boshqalardan qo'shni respublikalarga to'g'ridan-to'g'ri havo yo'llar ochilgan.

Keynigi yillarda quvur transporti ham rivojlanib bormoqda. Bularda O'zbekistondan olinadigan tabiiy gaz tashiladi. Qирг'из Respublikasida barcha aloqa vositalari ham yaxshi rivojlangan. Hattoki eng uzoq masofada joylashgan vodiylarda ham telegraflar, radio, televizor programmalar va boshqalar mavjud.

Qирг'из Respublikasi transport tarmoqlari orqali xorijiy davlatlar bilan har tomonlama aloqa qiladi. Ayniqsa Markaziy Osiyo davlatlaridan O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston bilan yaxshi aloqalar yo'lga qo'yilgan. Mazkur davlatlar bilan mavjud bo'lgan temir yo'l va avtomobil transportlaridagi aloqa, Markaziy OSIYODA yagona transport tizimining yaratilishiga katta imkon beradi.

Mamlakatdan xorijiy mamlakatlarga ko'mir, rangli va nodir metallar, mashina va dastgohlar, jun, gazlama, oziq ovqat va boshqa mahsulotlar chiqariladi. O'z navbatida respublika xorijiy mamlakatlardan, ma'lum miqdorda mineral o'g'itlar, neft mahsulotlari, don va boshqa mahsulotlarni sotib oladi.

#### **9.5 ICHKI TAFOVUTLARI**

Respublika relefining, iqlimining o'ziga xosligi asosida yettita iqtisodiy rayon ajratilgan. Bular o'z navbatida uchta iqtisodiy zonani tashkil etadi. Shimoliy (Chuy, Issiqko'l, Talas), Markaziy (Norin), Janubiy (O'sh-Jalolobod, Quyi Norin, Qadamjoy - Haydarkent) iqtisodiy zonalar.

##### **SHIMOLIY IQTISODIY ZONA** (Chuy, Issiqko'l, Talas)

Chuy vodiysi Qирг'из Respublikasining shimolida joylashgan bo'lib Qozog'iston bilan chegaradosh. Mintaqqa (vodiylar) tabiiy resurslarga unchalik boy emas. Asosiy boyliklari polimetall rudalari, qurilish materiallari va boshqalardir. Shuningdek bu yerda issiq mineral buloqlar ham topilgan bo'lib, ular asosida Issiq-ota kurorti ishga tushirilgan. Chuy vodiysi respublikaning qulay transport-geografik o'rnini egallaydi. Uning hududi orqali

muhim transport magistrallari Lugovoy - Bishkek - Ribache temir yo'li, Toshkent - Bishkek - Olma-Ota avtomobil yo'llari o'tkazilgan. Chuy vodiysi Respublikaning asosiy sanoat va qshloq xo'jalik miintaqasi hisoblanadi. Asosiy sanoat tarmoqlaridan mashinasozlikda fizik priborlar, elektrotexnika mahsulotlari, qishloq xo'jalik mashinalari, avtomobillar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Shuningdek yengil, oziq-ovqat va qurilish materiallari sanoati ham yaxshi rivojlangan. Chuy vodiysi - mamlakatning asosiy sug'oriladigan mintaqasidir. Bu yerda respublika sug'oriladigan yerlarining 1/3 qismi joylashgan. Haydaladigan yerlarda qandlovlagi, don, poliz ekinlari, sabzavotlar ekiladi. Don yetishtirish bo'yicha Chuy vodiysi yetakchi o'rinda turadi. Respublikada yetishtiriladigan donning 40 foizi shu yerga to'g'ri keladi. Donli ekinlardan bug'doy ko'pchilikni tashkil etadi. Bundan tashqari tariq, makkajo'xori yetishtirish ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bishkek, Toqmoq, Qora-bolta kabi sanoat markazlari atroflarida sabzavotchilik rivojlangan. Chuy vodiysida Respublikaning 60 foizdan ortiq sabzavotlari yetishtiriladi. Bog'dorchilik va uzumchilik ham sug'oriladigan yerlarda joylashgan. Vodiya sut - go'sht chorvachiligi ustun turadi. Shuningdek qo'ychilik, cho'chqachilik, parrandachilik ham yaxshi rivojlangan.

Chuy vodiysi boshqa rayonlarga nisbatan yuqori darajada urbanizatsiyalashgan. Jami aholisining 55 foizga yaqini shaharlarda yashaydi.

Uning hududida respublika aholisining 1/3 qismi istiqomat qiladi. Vodiya aholi zichligi 1 km kvadratga 75 kishidan ortadi.

Vodiying markaziy qismida mamlakat poytaxti Bishkek shahri joylashgan. Shaharda xilma-xil sanoat korxonalarini qurilgan. Bulardan yirik qishloq xo'jalik mashinasozligi, avtomobil yig'ish, elektron hisoblash mashinasi, charm-poyabzal, trikotaj va boshqa sanoat korxonalarini ishlab turibdi.

Bishkek yirik madaniyat markazi hamdir. Bu yerda ko'plab oliy o'quv yurtlari, texnikumlar va umumta'limg maktablari

mavjud. Shaharda barcha zamonaviy transport turlari rivojlangan. Shahar o'zining ko'kalamzorligi, zamonaviyligi bilan ajralib turadi. Bishkekdan tashqari vodiya Toqmoq va Qorabolta shaharlari joylashgan.

Toqmoqda yirik korxonalaridan to'quvchilik fabrikasi, oyna zavodi, junni qayta ishlash fabrikalari ishlab turibdi. Shuningdek shaharda shakar, sut, go'sht, un va un mahsulotlari, konserva ishlab chiqarish va boshqa oziq-ovqat korxonalarini bor. Mashinasozlikni asosini avtoremont zavodi tashkil etadi.

Qora-bolta shahri Bishkekdan 60 km g'arbda joylashgan yosh shaharlardan biridir. Shahar yirik transport markaziga aylangan. Uning hududidan Bishkek - O'sh, Bishkek - Toshkent avtomagistrali o'tgan. Shaharda shakar, spirit, sut zavodlari, un va un mahsulotlari sanoati, elektrotexnik o'yinchoqlar zavodi va boshqa korxonalar ishlab turibdi.

Issiqko'l vodiysi respublikaning 12 foiz xududini tashkil etadi. Issiqko'l botig'i shimolda Kungay Olatov, Janubda Terckoy Oltovi bilan o'ralgan. Tabiiy resurslaridan toshko'mir, qalay rudalari, turli qurilish materiallari va boshqalar topilgan. Shuningdek vodiya mineral buloqlar va shifobaxsh balchiqlar ham topilgan bo'lib, ular asosida Jeti - Ogiz, Oksu, Jergalan kabi kurort - sanatoriylari ishlab turibdi.

Vodiya xo'jaligida mayin yungli qo'ychilik, go'sht va sut chorvachiligi, yilqichilik yetakchi o'rinda turadi.

Dehqonchilik asosan vodiying sharqiy qismida rivojlangan. Bu yerlarda donchilik, kartoshka yetishtirish, hamda chorva mollari uchun ozuqabop ekinlar yetishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bog'dorchilikda olma, shaftoli, qora smorodina kabilari ekiladi.

Mintaqa sanoati qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Bundan tashqari qurilish materiallari, ayrim mashinasozlik tarmoqlari, tikuvchilik, yog'ochsozlik, ko'mir, baliq sanoati va boshqalar rivojlangan. Issiqko'l vodiysi rekreatsion resurslarga boyligi bilan ajralib turadi.

Bu yerga nafaqat MDH davlatlaridan, balki boshqa xorijiy mamlakatlardan ham dam oluvchilar tashrif buyurishadi.

Vodiying 70 foiz aholisi qishloqlarda yashaydi. Asosiy shaharlari Prijevelsk (Qorako'l) Ribache, Cho'lpon ota kabilardir.

Talas vodiysi Respublikaning eng kam rivojlagan rayondir. Bu yerda asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanishadi. Vodiy chovachiligidagi mayin yungli qo'yichilik, qoramolchilik, yilqichilik dehqonchilikda esa tamaki yetishtirish, makkajo'xori, bug'doy, sabzavot va mevachilikka ixtisoslashgan.

Sanoati mahalliy qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydi. Oxirgi yillarda elektroenergetika sanoati ham rivojlanib bormoqda. Tog' kon sanoati shakllanmoqda. Markazi Talas shahri. Shaharda poyabzal va tikuvchilik fabrikalari, sut zavodlari, qurilish materiallari va boshqa sanoat korxonalarini joylashgan. Talasdan tashqari Qorako'l shahri ham bor. U Toxtako'l suv omborining quriliishi bilan tashkil topgan.

### **MARKAZIY IQTISODIY ZONA (NORIN VILOYATI)**

Respublika hududining 26 foizini, aholisiniing esa 6 foizini tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km kvadratga 5,5 kishi to'g'ri keladi. Mintaqalardan iborat bo'lib, boshqa iqtisodiy zonalar va asosiy temir yo'llardan olsida joylashgan. Mintaqani - Qirg'iz Respublikasining shimoliy bilan dovon orqali o'tgan Norin-Ribache-Bishkek avtomobil yo'l bog'lab turadi. Iqtisodiy zonaning asosiy boyligi - Norin daryosi va uning irmoqlaridagi gidroenergiya resurslari, hamda bepoyon yaylovlardir. Mintaqaning foydali qazilmalari qo'ngir ko'mir, temir rudasi, oltin, mineral tuz va boshqalar bo'lib hali to'liq o'rganilmagan.

Mintaqalardan iborat mayin yungli qo'ylar boqiladi. Respublikada yetishtiriladigan junning 1/5 qismini yetkazib beradi. Dehqonchilik yaxshi rivojlanmagan.

Mintaqaning ayrim hududlarida don yetishtirish, tibbiyot

uchun dorivor ko'knori hamda chorva uchun ozuqabop ekinlar ekiladi.

Aholi manzilgohlari daryo vodiylarida va tog' oralig'i botiqlarida joylashgan bo'lib, bir-biridan ancha uzilib qolgan. Iqtisodiy rayonning ma'muriy markazi Norin shahri bo'lib, Norin daryosiniing chap qirg'og'ida, dengiz satxidan 2037 metr balandda joylashgan. Shaharda go'sht-sut kombinatlari, sut zavodi, tikuvchilik fabrikasi va boshqa korxonalar ishlab turibdi.

### **JANUBIY IQTISODIY ZONA**

#### **(O'sh-Jalolobod, Quyi Norin, Qadamjoy - Haydarkent)**

Janubiy iqtisodiy zona - Respublika hududiing 33 foizini, aholisining esa 43 foizini tashkil etadi. Aholi zichligi 1km kvadratga 30 kishi to'g'ri keladi.

Mintaqaning katta qismi Farg'ona vodiysida joylashgan. Baland tog'lar Shimoliy iqtisodiy zonadan ajratib turadi. Shimoliy iqtisodiy zona bilan Janubiy iqtisodiy zona Bishkek - O'sh avtomobil yo'li bilan aloqa olib borishadi.

Relefida tekisliklar bilan bir qatorda tog'oldi va baland tog'liliklar ham bor.

Janubiy iqtisodiy zona tabiiy resurslarga boyligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa bu mintaqada yoqilg'i - energetika resurslari va rangdor metallurgiya konlari ko'p. Jumladan qo'ng'ir va toshko'mir konlari, neft, gaz, surma, simob, rux, qalay, oltingugurt, mineral tuz va boshqalar. Shuningdek mintaqada shifobaxsh mineral buloqlar ham ko'p.

Iqtisodiy zonada to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati, kon-qazilov sanoati, rangdor metallurgiya, mashinasozlik sanoatlari yaxshi rivojlangan.

Qishloq xo'jaligida paxta va tamaki yetishtirish ustun turadi. Shuningdek rayonda donchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va sabzavotchilik ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Mintaqada chovachilik sut - go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan. Chorva

mollari sug'oriladigan yerlarda hamda tog' yaylovlardida boqiladi.

Aholisining asosiy qismi mintaqaning sharqi qismida istiqomat qilishadi. Bu yerda mamlakatning ikkinchi yirik shahri O'sh joylashgan. O'sh viloyati aholi zichligi bo'yicha respublikada birichi o'rinda turadi (1 km kvadratga 110 kishi).

O'sh shahri Markaziy Osiyodagi qadimgi shaharlardan biri bo'lib, uning iqtisodiy geografik o'rni juda qulay. Shahar Oqbura daryosining har ikki sohilida joylashgan bo'lib, Janubiy iqtisodiy zonaning sanoati rivojlangan markazi hisoblanadi.

Shahardan Tyan-shan, Pomir tog'lari orqali Qoshg'ar, Xindiston va Afg'onistonga karvon yo'llari boshlangan.

Zamonaviy O'sh shahrida ko'plab sanoat korxonalari, oliv o'quv yurtlari joylashgan. To'qimachilik kombinatlari, ipakchilik kombinati, nasos zavodi, temir-beton konstruksiyalari zavodi, Pedinstitut, Politexnika instituti va boshqalar shular jumlasidandir.

O'sh shahridan so'ng ikkinchi yirik sanoat markazi Jalolobod shahridir. Shaharda 20 dan ortiq sanaot korxonalari ishga tushirilgan. Bular: qurilish materiallari kombinati, paxta tozalash zavodi, mebel fabrikasi, tikuvchilik fabrikalari, tamaki fabrikasi va boshqalardir. Jalolobod o'zining mineral issiq suvlari va shifobaxsh balchiqlari bilan yana ham mashhur. Shahardagi kurort - sanatoriylarda teri, suyak, asab va boshqa kasalliklar davolanadi.

Viloyatning sharqi qismida Qoradaryo vodiysida O'zgan shahri joylashgan. O'sh kabi O'zgan ham qadimi shaharlardan biridir. Qadimda bu yerdan Markaziy Osiyoni Qoshg'ar bilan tutashtiruvchi savdo yo'li o'tgan. Shaharda qadimgi tarixiy obidalar ko'p. Shahar qadimda Qoraxoniylar davlatiing poytaxti bo'lgan. Shahar yaqinida ko'plab mineral buloqlar topilgan. Eng mashhuri Qora-Shoro bo'lib, bu yerda mineral suvlari shishalarga quyiladi. O'zganga nafaqat respublika, balki ko'plab xorijiy mamlakatlardan sayyohlar tashrif buyurishadi.

Tog' - kon sanoatining rivojlanishi natijasida Janubiy iqtisodiy rayonda bir qancha ishchi posyolkalari tashkil topdi. Moylisoy - respublikaning eng yosh shaharlaridan biri bo'lib, neft koni asosida bunyod etilgan. Hozirgi kunda shaharda elektrotexnika sanoati yaxshi rivojlangan (Elektrolampa, yoritish priborlari, elektroizolyatsiya mahsulotlari).


Mintaqadagi Qizil-qiya, Sulyukta, Toshko'mir, Ko'k-yong'oq kabi shaharchalar ko'mir konlari yaqinida joylashgan va asosiy ko'mir qazib oluvchi markazlar hisoblanadi. Bularidan eng yirigi Qizil-qiya bo'lib, Farg'ona vodiysiga eng ko'p ko'mir chiqazadi. Shuningdek shaharda o'tga chidamli mahsulotlar, yirik tamaki fabrikasi kabi sanoat korxonalari ham mavjud.

Qizil-qiya yaqinidagi simob va surma konlari asosida Qadamjoy, Xaydarkent kabi ishchi posyolkalari tashkil topgan. Hozirgi kunda Moylisoy, Xaydarkent, Qadamjoy rangli metallar qazib olish va boyitish markazlari hisoblanadi.


### **Mustahkamlash uchun savollar:**

- 1.Respublika rel'efining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
2. Respublika iqtisodiyotidagi yetakchi tarmoqlarni ayting.
3. Qirg'iz Respublikasi qanday foydali qazilmalar bo'yicha MDH davlatlari orasida oldingi o'rinda turadi?
- 4.Respublikaning qaysi viloyatida aholi zichligi yuqori.

## 10. TOJIKISTON RESPUBLIKASI



Tojikiston respublikasi bayrog'i va gerbi



Tojikiston respublikasining kosmik surati va xaritasi



### TOJIKISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI, GEOGRAFIK O'RNI, TABIIY SHAROITI VA BOYLIKHLARI

Tojikiston Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlarining janubi sharqida joylashgan. Tojikiston SSR Oliy sovetida 1991 yil 9 sentyabr respublika mustaqil, suveren davlat deb ovoz berilgan. Uning maydoni 142 550 km kvadrat, aholisi 10 011 ming kishi (2023). Poytaxti Dushanbe shahri. Mamlakatda aholi zichligi 1 km kvadratga 70,2 kishi to'g'ri keladi.

Respublika Markaziy Osiyo davlatlarining 3,8 foiz hududini, 11 foiz aholisini tashkil etadi. Maydonining kattaligi bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari ichida oxirgi o'rinda turadi. Uning hududi shimoldan janubga 350 kmga, g'arbdan sharqqa esa 700 km masofaga cho'zilgan. Respublika shimoldan Qirg'iz Respublikasi, g'arbda O'zbekiston, sharqda Xitoy va janubda Afg'oniston bilan chegaradosh. Ma'muriy xududiy jixatdan 3 ta viloyat va 1 ta respublikaga bo'yсинувчи rayonga bo'linadi:


1. So'g'd viloyati
2. Xatlon viloyati
3. Tog'li Badaxshon avtonom viloyati

#### 4. Respublikaga bo'yсинувчи раyon

Respublika hududining atigi 10 foiz qismi dengiz satxidan 1000 metrdan past, 50 foizi esa 3000 metrdan balanda joylashgan. Respublika hududi asosan Pomir-Oloy va Tyan-Shan tog' sistemasida (Qurama tizmasi) joylashgan. Mintaqada nafaqat Markaziy Osiyo balki MDH dagi baland nuqta Ismoil Somoniy cho'qqisi joylashgan (7495m). Bundan tashqari balandligi 7000 metrdan oshadigan o'nlab cho'qqilar ham mavjud.

Bu yerda mintaqadagi eng yirik muzlik Fedchenko muzligi joylashgan. Baland tog'lar, tog' oralig'i va vodiylari, tekisliklar xilma-xil tabiat komplekslarini hosil qilgan.

Respublikaning janubidagi vodiylarda issiq subtropik iqlimi yuqoriga ko'tarilgan sari sovuq iqlim bilan almashinadi. Undan balanda esa doimiy qor va muzliklar joylashgan.



**Ismoil Somoniy cho'qqisi (7495m)**

Tog'lardagi qor va muzliklardan ko'plab yirik daryolar boshlanadi. Tojikiston qo'shni respublikalarga nisbatan suv resurslari bilan yaxshi ta'minlangan. Gidroenergetika resurslari bo'yicha MDH davlatlari orasida Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Yirik daryolari Amudaryo (uning irmoqlari Vaxsh, Panj), Zarafshon va boshqalar. Respublika tog'li o'lka bo'lganligi

sababli yirik GESlar ishlab turibdi. Ayniqsa bu yerdagi Nurek GES katta ahamiyatga egadir.



**Nurek GES**

Xo'jaligi Hisor, Vaxsh, Farg'ona vodiylarida hamda Darvoz va Ulug' Pyotr tog'lari etaklarida yaxshi rivojlangan.

Respublika hududida foydali qazilmalardan rangli metallar (surma, simob), shuningdek osh tuzi (Xo'ja Mo'min, Xo'ja Adrasman, Chorux-Dayron va boshqalar), vismut, dala shpati kabilar topilgan.

Tojikistonning ayrim hududlarida mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan neft (Neftobod), ko'mir (Sho'rob), gaz va volfram konlari uchraydi.

## 10.2 AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI



Tojikistonda 10 011 mingdan ortiq aholi (erkaklar 4 945 770 (49,2 foiz), ayollar 5 065 230 (50,8 foiz) ) yashaydi (2023). Respublika aholisining soni bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari orasida uchinchi o'rinda (O'zbekiston va Qozog'istondan so'ng) turadi. Respublika aholisining tabiiy ko'payishi yuqori bo'lgan davr 1979-1980 yillarga to'g'ri keladi. Shu yillarda respublika aholisi tabiiy o'sishi bo'yicha sobiq ittifoqda birinchi o'rinda bo'lgan. Keyingi vaqlarda respublikada ro'y bergen o'zaro kelishmovchiliklar natijasida aholining tabiiy o'sishida ham salbiy oqibatlar kuzatildi. Respublikada aholining tabiiy o'sishi so'nggi yillarda 1,9 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich qo'shni respublikalar O'zbekistonda 2,1 foiz, Turkmanistonda esa 4,1 foizga to'g'ri keladi. Tojikistonda ham boshqa Markaziy Osiyo davlatlari kabi ko'p farzandlilik hususiyati mavjud. Aksaryat oilalarda 5-6 farzand ko'rishi hali ham davom etmoqda. Aholining jinsiy va yosh tarkibi taxlili shuni ko'rsatadiki tabiiy o'sish yuqori bo'lganligi sababli aholining 42 foizni 0-14 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Bu yoshdagilar orasida

o'g'il bolalarning ulushi 50,4 foizga, qiz bolalar esa 49,6 foizga to'g'ri keladi. 15 yoshdan 64 yoshgacha bo'lgan aholi esa 54 foiz bo'lib, bularidan ayollar 50,2 foizni erkaklar 49,8 foizni tashkil etadi. 65 yoshdan yuqoridagilarga jami aholining 4 foizi to'g'ri keladi. Bular orasida ayollar soni yuqori (56,9 foiz). Respublika bo'yicha olganda erkaklar va ayollar deyarli teng (49,8 va 50,2 foiz).

Respublika ko'p millatli mamlakat bo'lib, aholining milliy tarkibida tojiklar ko'pchilikni tashkil etadi. Jami aholining 64,9 foizi tojiklar, 25 foizi o'zbeklar, 5 foizi ruslar, 2 foizi tatarlar va 4 foizini boshqa millatlar tashkil etadi. Mamlakatda aholi juda notekis joylashgan. Respublika aholisining asosiy qismi past tekisliklardan va soyliklardan iborat bo'lagn Vaxsh, Hisor va Farg'ona vodiysida istiqomat qilishadi. Bunday hududlarda aholi zichligi 1km kvadratga 400-500 kishiga yetadi. Bu yerlarda odamlar qadimdan sug'orib dehqonchilik qilib kelishadi. Aholining notekis tarqalishiga uning orografiyasi katta ta'sir ko'rsatadi. Respublikaning 90 foiz hududi tog' oldi va tog'lardan iborat bo'lib dengiz sathidan 1000 metrdan balandda joylashgan. Tog' va baland tog' zonalarida xo'jalik yuritish murakkabchilik tug'diradi. Aholi manzilgohlari ham kam. Bu yerda zichlik 1 km kvadratga 1-2 kishi to'g'ri keladi.

Respublikada o'zbeklarning asosiy qismi Farg'ona vodiysida So'g'd (Leninobod) viloyatida yashashadi. Bu yerdagi jami aholining 40 foizi o'zbeklardir. Tojiklar butun respublika hududida, ruslar yirik sanoat markazlarida, qirg'izlar esa asosan tog' yaylovlarida istiqomat qilishadi.

Respublika urbanizatsiya darajasi Markaziy Osiyo davlatlari orasida eng past, ya'ni jami aholisining 36 foizga yaqini shaharlarda yashaydi. Eng yirik shaharlari Dushanbe, Xo'jand, Tursunzoda, Qo'rg'ontepa kabilardir. Respublikaning asosiy shaharlari aholisi 50 000 kishigacha bo'lgan kichik shaharlardir. So'nggi yillarda shaharlarda yangi yangi sanoat korxonalari tashkil etilmoqda.

Aholining tabiiy o'sishi yuqori bo'lganligi sababli mehnat resurslariga boy. Mamlakat aholisining ko'pchiligini mehnatga layoqatli yoshlar tashkil etadi. Biroq respublikada mehnat resurslaridan unumli foydalanish to'liq yo'lga qo'yilmagan. Ayniqsa respublikaning tog'li mintaqalaridagi ko'plab aholi manzilgohlarida bir qancha ishsiz kishilar mavjud. Ularning asosiy qismi ayollar va yoshlardan iborat. Bu yerda aholini foydali mehnatga jalb etish dolzarb muammolardan biridir.

Demografik yuk koeffitsienti-Bog'liqlik koeffitsienti mehnatga layoqatli aholiga (aholining qaram qismi) tegishli bo'lmanan aholidan jamiyat va iqtisodiyotga tushadigan yukni ko'rsatadi. Mehnatga layoqatli aholi tarkibiga kirmaydigan aholi deganda 15 yoshgacha bo'lgan va 64 yoshdan oshgan aholi tushuniladi. Mehnatga layoqatli aholining yoshi (aholining ishlab chiqarish qismi) mos ravishda 15 yoshdan 65 yoshgacha. Bog'liqlik koeffitsienti davlatdagagi ijtimoiy siyosat uchun moliyaviy xarajatlarni bevosita aks ettiradi. Masalan, ushbu koeffitsientning oshishi bilan ta'lim muassasalarini qurish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, sog'liqni saqlash, pensiya va boshqalarni sarflash xarajatlari ko'paytirilishi kerak.

Umumiylar yuk koeffitsienti-Umumiylar qaramlik koeffitsienti aholining qaram qismining aholining mehnatga layoqatli yoki ishlab chiqarish qismiga nisbatida hisoblanadi. Tojikiston uchun qaramlik koeffitsienti 59,5 foizni tashkil qiladi. Ushbu munosabat Tojikiston jamiyat uchun nisbatan yuqori ijtimoiy yukni boshdan kechirayotganligini anglatadi. Bu shuni anglatadiki, Tojikistonda ishlaydigan har bir kishi o'zi uchun zarur bo'lganidan 1,5 baravar ko'proq tovar va xizmatlar ko'rsatishi kerak.

O'zgartirish darajasi Potensial almashtirish koeffitsienti (balalarning yuk koeffitsienti) mehnatga layoqatli yoshdan past bo'lgan aholining mehnatga layoqatli yoshdagagi aholi nisbatida hisoblanadi. Tojikistonda bolalarga qaramlik darajasi 54,1 foizni tashkil qiladi.

Qarilik darajasi yoshga bog'liqlik koeffitsienti mehnatga layoqatli yoshdan yuqori bo'lgan aholining mehnatga layoqatli yoshdagagi aholiga nisbatida sifatida hisoblanadi. Tojikistonda keksa yoshdagagi qaramlik darajasi 5,4 foizni tashkil qiladi.

O'rtacha umr ko'rish davomiyligi - Odamlarning umr ko'rish davomiyligi eng muhim demografik ko'rsatkichlardan biridir. Bu inson hayotining o'rtacha yillarini kutmoqda. Ya'ni, hozirgi tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari inson hayoti davomida o'zgarishsiz qolishi sharti bilan, inson nazariy jihatdan yashashi mumkin bo'lgan yillar soni. Odatda, "umr ko'rish davomiyligi" tug'ilish paytida, ya'ni 0 yoshda kutilgan umrni anglatadi. Tojikiston uchun umr ko'rish davomiyligi (ikkala jins) ham 66 yoshni tashkil qiladi. Bu o'rtacha dunyo umr ko'rish davomiyligidan pastroq, ya'ni dunyo bo'yicha 71 yoshni tashkil etadi (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamentining Aholi soni bo'yicha ma'lumotlariga ko'ra).

Aholining savodxonligi Tojikistonda 15 yoshdan oshgan 6 356 160 kishi har qanday tilda o'qish va yozish imkoniyatiga ega. Bu umumiy kattalar aholisining 99,77 foizini tashkil qiladi. Voyaga yetgan aholi bu holda 15 yoshdan oshgan barcha odamlarni anglatadi. Shunga ko'ra, taxminan 14454 nafar kattalar savodsiz. Erkaklarning kattalar savodxonligi darajasi 99,83 foiz.

7-Jadval

#### Tojikiston aholisi tarixi

<i>Yil</i>	<i>Aholi</i>	<i>Tabiiy o'sish</i>
1951	1 558 471	N/A %
1955	1 768 594	3.03 %
1960	2 053 987	3.21 %
1965	2 445 575	3.60 %
1970	2 885 556	3.20 %
1975	3 343 906	2.89 %
1980	3 850 253	2.90 %

1985	4 468 268	3.15 %
1990	5 217 392	2.78 %
1995	5 722 339	1.52 %
2000	6 168 261	1.55 %
2005	6 726 376	1.88 %
2010	7 446 743	2.18 %
2015	8 354 250	2.42 %
2020	9 429 924	2.37 %
2023	10 011,0	2.3%

Ushbu jadvaldagi barcha ma'lumotlar tegishli yilning (2023) holatiga keltirilgan

8-Jadval

#### Aholining prognozi (2020-2100)

Yil	Aholi	Tabiiy o'sish
2020	9 475 256	N/A %
2025	10 360 355	9.34 %
2030	11 194 410	8.05 %
2035	12 022 923	7.40 %
2040	12 876 075	7.10 %
2045	13 727 802	6.61 %
2050	14 521 290	5.78 %
2055	15 233 335	4.90 %
2060	15 873 921	4.21 %
2065	16 466 440	3.73 %
2070	17 015 382	3.33 %
2075	17 506 406	2.89 %
2080	17 921 613	2.37 %
2085	18 262 845	1.90 %
2090	18 541 057	1.52 %
2095	18 764 775	1.21 %
2100	18 928 227	0.87 %

Ma'lumotlar tegishli yilning 1 iyul (2020) holatiga keltirilgan (o'rtacha prognoz versiyasi).

Manba: Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha departamenti.

## 10.3 IQTISODIYOTI

Tojikiston agrar industrial mamlakatlardan biridir. Uning iqtisodiyoti yaqin vaqtlargacha bir tomonlama rivojlanishda bo'lgan. Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari kabi Tojikiston ham sobiq ittifoqning asosiy xom ashyo bazalaridan biri bo'lib kelgan.

Respublika mustaqillikka erishgach uning iqisodiyotida ham yangio'zgarishlar ro'y berdi. Mamlakato'ziyetishtirgan xom ashyni chetga chiqarmasdan o'z hududida qayta ishlaydigan yangi korxonalar qurilishiga katta e'tibor bera boshladi.

Mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi o'rinda turadi. Milliy daromadning asosiy qismi hamda xalq xo'jaligida band bo'lgan aholining 45 foizi qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Qishloq xo'jaligida sug'orib dehqonchilik qilish, tog' yaylov chorvachiligi, meva va uzum yetishtirish yaxshi rivojlangan.

Sanoatda yetakchi tarmoq qishloq xo'jalik maxsulotlarni qayta ishlovchi paxta tozalash, ipakchilik, yog'-moy, konserva kabi korxonalar hisoblanadi.

Ayniqsa bu tarmoq respublikaning shimoliy qismida Farg'ona vodiysida hamda Dushanbe shahri atrofida yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan mineral o'g'itlar ishlab chiqarish, irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mashinasozlik tarmoqlari yaxshi rivojlangan.

Respublikada elektr energiya ishlab chiqarish katta ahamiyatga egadir. Vaxsh daryosida qurilgan GEStlar kaskadi asosida janubiy Tojikiston hududiy ishlab chiqarish majmuasi (HICHM) tashkil topgan. Vaxsh daryosidagi Norak GESt o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning arzon energeyasi asosida Tursunzoda alyumin zavodi ishga tushirilgan. Bundan tashqari respublikada yirik issiqlik elektr stantsiyalari ham bunyod etilgan. Bular Dushanbe, Yavon va boshqa shaharlarda joylashgan IESlar. Mazkur IES va Vaxsh daryosidagi GEStlar markaziy va janubiy Tojikistonni elektr energiyasi bilan

ta'minlaydi. Respublikada ko'plab rangli metall konlari topilgan. Shu sababli bu yerda tog' - kon metallurgiya kombinati buniyod etilgan. Keyingi yillarda yangi sanoat tarmog'i alyuminiy ishlab chiqarish rivojlaqdi. Tursunzoda alyuminiy zavodi nafaqat respublikada balki MDH davlatlari orasidagi eng yirik korxonalardan biridir.

Mamlakatda kimyo sanoati 1960 yillardan boshlab rivojlandi. Respublikadagi Vaxsh kimyo zavodida ishlab chiqarilgan azotli o'g'itlar respublikadan tashqari qo'shni davlatlarda ham ishlatiladi.

Arzon elektr energiya va yirik xom ashyo (osh tuzi) koni asosida Yavoqda elektrokimyo zavodi ishga tushirilgan. Zavodda kalsiyli soda, suyuq xlor, xlorli ohak hamda maishiy kimyo maxsulotlari ishlab chiqariladi.

Mamlakat iqtisodiyotida mashinasozlikning ham o'z o'rni bor. Mashinasozlik korxonalar yirik shaharlar Dushanbe, Xo'jand, Qo'rg'ontep va boshqalarda joylashgan. Mashinasozlik korxonalarida turli xil mahsulotlar ishlab chiqariladi. Bu korxonalarda qishloq xo'jaligi mashinalariga ehtiyoj qismlardan tortib transformatorlar, to'quv stanoklari, elektr sanoati uchun detallar va boshqalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Xo'jand shahrida Rossiya bilan hamkorlikda PAZ avtobuslari yig'iladi. Bundan tashqari elektrotexnika, priborsozlik va boshqa ishlab chiqarish korxonalar qurilgan.

Tojikistonning yoqilg'i sanoatining asosini ko'mir sanoati tashkil etadi. Respublikaning shimolida Sho'rob ko'mir koni joylashgan. Bu yerdan qazib olingan ko'mir mahalliy extiyojni qondirish uchun sarf bo'ladi, qisman qo'shni davatlarga chiqariladi. Bundan tashqari Markaziy Tojikistonda, borish qiyin bo'lgan joyda Fan-Yangob koni joylashgan. Kondan asosan kokslanuvchi toshko'mir olinadi.

Qurilish materiallari, sanoatining asosini yirik sement zavodlari, temir beton-konstruksiyalari, oyna ishlab chiqarish zavodlari tashkil etadi. Bular deyarli barcha xududlarda

joylashgan. Qurilishning ortishi bu sanoatning yanada rivojlanishini taqozo etadi. Yengil va oziq-ovqat sanoati Tojikistonning ixtisoslashgan sanoat tarmoqlaridir. Bu tarmoq jami sanoat maxsulotining 2/3 qismini yetkazib beradi, hamda sanoatda band aholining 50 foizini tashkil etadi.

Yengil sanoat tarmoqlaridan eng yiriklari paxta tozalash, to'qimachilik, tikuvchilik, oyoq kiyimi fabrikalari va boshqalardir.

Paxta tozalash zavodlari respublikada yetishtiriladigan jami paxtani qayta ishlaydi. Dushanbe shahrida yirik ip-gazlama kombinati ishga tushirilgan. Dushanbe, Xo'jand shaharlarida shoyi kombinatlari, Qayroqqumda gilam to'qish kombinatlarida shoyi va gilam to'qish yo'lga qo'yilgan. Respublikada yengil sanoat tarmog'i kelajakda yanada rivojlantiriladi.

Oziq-ovqat sanoatida vino va vino mahsulotlari, meva konservalari, mayiz, paxta va o'simlik (zig'ir, kunjut) moyi, un va un mahsulotlari, sut-go'sht mahsulotlari yetishtirish rivojlangan.

Respublikada so'nggi yillardagi iqtisodiy qiyinchiliklar natijasida sanoat mahsulotlari, ayniqsa to'qimachilik, tikuvchilik, go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish nisbatan kamaygan.

#### 10.4 QISHLOQ XO'JALIGI

Respublika qishloq xo'jaligida paxtachilik yetakchi tarmoqlardan biridir. Bundan tashqari pillachilik, bog'dorchilik va uzumchilik, tog'li mintaqalarda esa donchilik, bog'dorchilik va chorvachilik rivojlangan.

Tojikiston tog'li o'lka bo'lganligi sababli haydaladigan yerlar ko'p emas. Qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yerlar respublika xududining atiga 44 foizini tashkil etadi. Haydaladigan yerlar 19 foizdan oshmaydi. Shunga qaramasdan respublika ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlarini o'z extiyojidan tashqari qo'shni

mamlakatlarga ham eksport qiladi. Chetga asosan paxta tolasi, tamaki, sabzavot, poliz ekinlari, meva, uzum va boshqalarni chiqaradi.

Respublikada 1 mln tonnaga yaqin paxta yetishtiriladi. Farg'ona vodiysida oddiy, Vaxsh, Hisor vodiylarida esa ingichka tolali paxta ekiladi. Tojikiston Markaziy OSIYODA yetishtiriladigan qimmatbaho ingichka tolali paxtaning 50 foizini yetkazib beradi. Paxtaning bu navidan yuqori sifatli gazlamalar olinadi. Sug'orish inshootlarining yaxshilanishi yangi yerlarning xo'jalik ekinlarini yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Tojikistonning agroqlim sharoiti bog'dorchilik va uzumchilik uchun ham qulay. Respublikada shaftoli, o'rik, olma, nok, olcha, gilos, behi, uzum, anjir, anor, bodom, xurmo kabi mevalar yetishtiriladi. Bundan tashqari issiqsevar sabzavot va poliz ekinlari ham yetishtiriladi. Ayrim sabzavotlardan yiliga 2-3 martagacha hosil olinadi.

Chorvachilik-dehqonchilikdanso'ngikkinchio'rindaturadi. Uzda qishloq xo'jalik mahsulotlarining 30 foizi tayyorlanadi. Chorvachilik sut go'sht chorvachiligi, qo'ychilik, cho'chqachilik, parrandachilik tarmoqlariga bo'linadi. Qoramolchilikda sutdan tashqari 50 foizga yaqin go'sht yetkazib beriladi. Qoramolchilik paxtachilik majmuasi bilan chambarchas bog'liq ravishda rivojlanmoqda.

Qo'ychilik qoramolchilikdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Ular asosan respublikadagi tabiiy yaylovlarda boqiladi. Mamlakatda hisori zotdor qo'ylari boqiladi. Bu qo'ylar yirikligi, tez semirishi bilan dunyoga mashhur. Uning og'irligi 120-130 kg dan ortadi. Respublikada qorako'l qo'ylarini boqish ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Qorako'l qo'ylari soni bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari orasida Tojikiston oldingi o'rnlarda turadi.

Pomirda tog'li xalqning assosiy chorvachiligi bo'lgan qo'tsolar boqiladi. Bu hayvonlar sovuq iqlimga moslashgan bo'lib, ulardan sut olish bilan birga yuk tashishda foydalilanadi.

Ulardan o'rtacha 300-350 litr yog'li sut sog'ib olinadi. Respublikaning barcha hududlarida (Tog'li Badaxshondan tashqari) qadimgi qishloq xo'jalik tarmog'i pillachilik rivojlangan. Pilla yetishtirish bo'yicha Tojikiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida alohida o'rinda turadi.

## 10.5 TRANSPORTI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda transportning ahamiyati beqiyosdir. Mintaqada barcha transport turlari temir yo'l, avtomobil transporti, quvur, suv va havo transportlari mavjud. Respublika hayotida temir yo'l va avtomobil transportlari yetakchi ahamiyatga ega.

Temir yo'l transporti respublikaning ichki xududlararo, hamda uning tashqi aloqasida muhim o'rinni egallaydi. Mintaqqa xududida tor izli va keng izli temir yo'llar o'tgan.

Respublika tashqi iqtisodiy aloqasida Dushanbe-Termiz temir yo'lining ahamiyati katta. Bu yo'l orqali Tojikiston Markaziy Osiyo va boshqa MDH davlatlari bilan bog'langan, 1970 yillarda mamlakatning janubiy sharqiy qismida Termiz-Qo'rg'ontep-Yovon, hamda Vaxsh bilan Ko'lob vodiylarini tutashtiruvchi yangi temir yo'llar qurilgan. Rayonlararo yuk tashishda tog'li respublika bo'lganligi sababli avtomobil transportining ahamiyati kattadir. Avtomobil yo'llarining umumiyligi 13 ming km dan ortadi. Ularning 80 foizidan ortig'i qattiq qoplamli yo'llardir.

Yirik avtomobil yo'llari Dushanbe shahridan boshlanadi. Dushanbe-Termiz, Dushanbe-Qo'rg'ontepavtomastrallari mamlakat poytaxtini O'zbekistoning port shahri Termiz hamda Qo'rg'ontepaviloyatining markazi Qo'rg'ontepav bilan bog'laydi, Dushanbe-Xo'jand, Dushanbe-Xorug' kabi avtomobil yo'llari vaqtincha ishlaydi. Qishki mavsumda dovonda qor ko'p bo'lgan davrlarda transport qatnovi to'xtatiladi.

Tog'li Badaxshon oblastidan qo'shni Qirg'iz

Respublikasining O'sh shahriga ochilgan avtomobil yo'li Farg'ona vodiysi bilan bog'laydi.

Yo'lovchilar temir yo'l, avtomobil va havo transportlarida tashiladi. Ayniqsa ularni uzoq masofaga tashishda havo transportning ulushi kattadir. Havo transporti orqali mamlakat poytaxti barcha yirik shaharlari bilan bog'langan.

Shuningdek Dushanbedan MDH davlatlarining Moskva, Sank-Peterburg, Toshkent, Novosibirsk shaharlari, Kavkaz orti mamlakatlari hamda boshqa xorijiy mamlakatlarga havo transporti qatnovi yo'lga qo'yilgan.

Mamlakatda ichki suv transporti ham mavjud. Panj va Amudaryo orqali Markaziy Osiyoning ayrim davlatlari va Afg'oniston bilan iqtisodiy aloqa yo'lga qo'yilgan.

Respublika qo'shni davlatlar va xorijiy mamlakatlarga paxta tolasi, o'simlik yog'i, quruq meva, sabzavot va meva konservalari, vino kabi mahsulotlar sotadi. Bundan tashqari mashinasozlik va elektrotexnika mahsulotlari, to'quv stanoklar, transformatorlar, ro'zg'or xolodilniklari, avtomobil va traktorlarga yordamchi qismlar, yengil sanoat mahsulotlaridan ip va shoyi gazlamalar, gilam va boshqa ko'plab mahsulotlar yetkazib beradi.

## 10.6 IQTISODIY RAYONLARI

Uncha katta bo'limgan respublika xududi 8 ta iqtisodiy rayonga bo'linadi, bular o'z navbatida uchta iqtisodiy zonaga birlashtiriladi. Janubiy g'arbiy Tojikiston, Shimoliy Tojikiston hamda Janubiy sharqiy Tojikiston.

### JANUBIY G'ARBIY TOJIKISTON

Janubiy g'arbiy Tojikiston-respublika xududining 37 foizini, aholisining esa 66 foizini tashkil etadi. Mintaqada aholi zichligi 1 km kvadratga 40 kishi to'g'ri keladi. Hisor vodiysi

respublikadagi qulay tabiiy, iqtisodiy va boshqa sharoitlarga egadir. Vodiya respublikaning 1/3 qismidan ortiq sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari tayyorlanadi.

Mintaqa tabiiy resurslarga ancha boy bo'lib qurilish xom ashyolari, volfram, ko'mir, neft, gaz va boshqalar topilgan.

Asosiy transport turlari avtomobil va temir yo'l transportlari hisoblanadi.

Sanoatida - mashinasozlik va metallni qayta ishslash, rangli metallurgiya, ip gazlama, trikotaj va boshqalar yaxshi rivojlangan.

Qishloq xo'jaligi paxta yetishtirish (respublikaning 50 foiz paxtasi) chorvachilik, bog'dorchilik va sabzavotchilikga ixtisoslashgan.

Iqtisodiy zonada respublikaning nisbatan yirik shaharlardan Dushanbe, Tursunzoda, Norak joylashgan.

Respublikaning poytaxti Dushanbe - yirik sanoat va madaniyat markazi hisoblanadi. Yirik korxonalardan "Tojiktekstilmash", "Tojik qishloq xo'jalik mash", "Tojik gidro agregat" va boshqa ko'plab og'ir sanoat korxonalaribor. Qurilish materiallari ishlab chiqarishda sement zavodi, uysozlik va yog'ochni qayta ishslash kombinatlari, temir - beton konstruktiviyalari zavodlari muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek oziq ovqat va yengil sanoat tarmoqlari ham yaxshi rivojlangan.

Yirik sanoat markazlaridan yana biri Tursunzoda shahridir. Shahar alyuminiy zavodining qurilishi bilan yana ham rivojlandi. Shuningdek, shaharda fosfor zavodi, paxta tozalash, efir moyi ishlab chiqarish, qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi korxonalar ishga tushirilgan.

Mintaqada Nurek GES i qurilishi bilan Nurek shahri ham bunyod etilgan. Hozirgi kunda Nurek - yirik gidro energetika, oziq-ovqat va yengil sanoat markazi hisoblanadi.

Vaxsh vodiysi respublikaning eng issiq iqlimli hamda tekisliklardan iborat hududi hisoblanadi. Yanvar oyida ham

o'rtacha havo temperaturasi 0°S dan yuqori bo'ladi. Shu sababli Vaxsh vodiysi respublikaning asosiy ingichka tolali paxta yetishtiradigan va subtropik ekinlar markazi hamdir.

Vodiy gidro energetika resurslariga boy. Bu yerda neft va gaz konlari topilgan. Shuningdek, kimyoviy xom ashyolardan osh tuzi (Tut buloq), dolomit (Yovon), qurilish materiallaridan gips, sement xom ashysi, oxaktosh va boshqalar topilgan.

Vodiy qishloq xo'jaligi axamiyatiga ko'ra Tojikistonda Hisor va Shimoliy mintaqalardan keyinda turadi, bu yerda respublikaning 20 foizdan yuqori sanoat va qishloq xo'jaligi maxsulotlari ishlab chiqariladi.

Yengil sanoat nisbatan yaxshi rivojlangan bo'lib bunda paxta tozalash sanoati asosiy o'rinda turadi. Vodiyda ishlab chiqarilayotgan sanoat maxsulotlari xajmida yengil sanoatning ulushi 70 foizga yaqin, oziq-ovqat sanoati 20 foizini, og'ir sanoat esa 10 foizni tashkil etadi. Vodiy sanoatining ixtisoslashgan tarmoqlariga elektr energetika, kimyo, paxta tozalash, yog' moy tarmoqlari kiradi.

Vaxsh vodiysi qishloq xo'jaligi yuqori darajada rivojlangan. Mamlakatda yetishtirilayotgan ingichka tolali paxtaning 1/3 qismi shu yerga to'g'ri keladi. Paxtachilik bilan birga bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va poliz ekinlari yetishtirish ham rivojlangan. Shuningdek, sitrus mevalari ham yetishtiriladi.

Vodiyda respublikaning yirik sanoat va madaniyat markazlaridan biri Qo'rg'ontepa shahri joylashgan. Bu yerda elektrotexnika, yengil, oziq ovqat sanoatlarining yirik korxonalar mavjud. Shaharda ingichka tolali paxtaning yangi navlarini yaratadigan seleksiya markazi bor. Shahar va vodiy iqtisodiyotining rivojlanishiga Termiz – Qo'rg'ontepa temir yo'li katta ta'sir ko'rsatadi. Mintaqadagi Vaxsh azot zavodi respublika qishloq xo'jaligi uchun mineral o'g'itlar yetkazib beradi.

Vaxsh vodiyining yuqori qismida Ko'lob zonasini joylashgan. Zona qulay tabiiy va iqlimiylar sharoitga ega. Uning xududida

respublikadagi yirik osh tuzi konlari (Xo'ja Mo'min, Xo'ja Sartis) topilgan. Bu yerda qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlangan. Agroiqtisodiyotda paxtachilik va chorvachilik yetakchi o'rinda turadi. Shuningdek, don yetishtirish, pillachilik ham yaxshi rivojlanmoqda.

Asosiy sanoat markazi Ko'lob shahri. Shahar atrofida yirik qishloq xo'jaligi rayonlari joylashganligi sababli, qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlash yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Garm vodiyida baland tog'liliklar ko'p. Uning xo'jaligida qishloq xo'jaligi yetakchi o'r'in tutadi. Chorvachilik, bog'dorchilik, kartoshka yetishtirish, tamakichilik kabi soxalar yaxshi rivojlangan. Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerkarning asosiy qismi yaylovlari bilan qoplangan. Sug'orib dexqonchilik qilish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Sanoati maxalliy ehtiyojini qondirish uchun xizmat qiladi.

## SHIMOLIY TOJIKISTON

Shimoliy Tojikiston - Respublika xududining 19 foizini, axolisining 31 foizini tashkil etadi. Axoli zichligi 1km kvadratga 60 kishi atrofida to'g'ri keladi.

Mintaqa tabiiy sharoiti ancha qulay. Uning katta qismi Farg'ona vodiysi va Mirzacho'lda joylashgan, shimoliy va janubga tomon tog'larga ko'tarilib boradi. Shimoliy Tojikiston foydali qazilmalarga boy. Bu yerda oxaktosh, gips, shag'al, keramzit xom ashyolari va boshqa qurilish xom ashyolarining katta zahiralari joylashgan. Shuningdek mintaqada rangli metallar, polimetal rudalari, volfram, molibden, vismut, rux, yonuvchi foydali qazilmalardan neft, gaz va ko'mir konlari topilgan.

Shimoliy mintaqada transport yaxshi rivojlangan bo'lib, respublika ko'rsatkichidan ikki barobar yuqorida. Bu yerda Tojikistonning 1/3 qism sanoat va qishloq xo'jalik maxsulotlari ishlab chiqariladi.

Sanoatning asosini qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta

ishlovchi yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari tashkil etadi. Mintaqada gilam to'qish va ip gazlama ishlab chiqarish yaxshi rivojlangan. Shu bilan birga tikuvchilik, trikotaj, un va un maxsulotlari, konserva ishlab chiqarish ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu rayonda rangli metallurgiya, yoqilg'i, elektrotexnika kabi sanoat tarmoqlari ham shakillangan.

Qishloq xo'jaligi paxtachilik va chorvachilikka ixtisoslashgan. Shu bilan birga bog'dorchilik, uzumchilik va pillachilik ham muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Asosiy sanoat markazlari Xo'jand, Konibodom, Isfara, Qayroqum va boshqalar.

Xo'jand - yirik sanoat va madaniyat markazi bo'lib, aholisi bo'yicha respublikada Dushanbedan keyinda turadi. Shahar Farg'ona vodiysi kiraverishida joylashgan. Mo'g'iltoq' va Turkiston tog'lari orasida tor yo'lak xosil bo'lgan va bu yer Xo'jand darvozasi deb ataladi. Xo'jand O'rta Osiyoning qadimiy shaharlaridan (III asr e.o.).

Xozir shaharda 20 dan ortiq turli sanoat korxonalarini ishlab turibdi. Eng yirik korxonalardan - shoyi to'qish kombianti (to'la siklli), paxta tozalash, konserva zavodlari, mashinasozlik va boshqalardir.

Shuningdek Xo'jand orqali yirik avtomobil va temir yo'llar o'tgan. Toshkent - Andijon, Bishkek - Jalolobod temir yo'llari, Toshken - Qo'qon, Xo'jand - Dushanbe avtomobil yo'llari shular jumlasidandir. Xo'jand Dushanbe avtomobil yo'li bo'yida O'rteppa shahri joylashgan. Shahar X asrda Zarafshon va Farg'ona vodiysi o'rtasidagi qal'a sifatida tashkil topgan. O'rteppa o'zining milliy xunarmandchiligi bilan mashxur (Pichoqchilik, so'zana, zargarlik buyumlari, yog'ochga ishlov berish va boshqalar).

Xo'janddan sharqda Konibodom shahri joylashgan. Shahar qadimdan o'zining bodomlari bilan mashxur bo'lgan (IX-X asr). Uning atrofida qishloq xo'jaligi rayonlari joylashganligi sababli, sanoati qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlashga

ixtisoslashgan. Shaharda paxta tozalash, konserva, yog'-moy kombinati, to'qimachilik fabrikasi kabi korxonalar joylashgan. Mashinasozlik sanoatida paxta tozalash va tog' kon sanoati uchun detallar tayyorlaydi.

Sirdaryoda Qayroqqum suv omborining qurilishi bilan shu nomlishahar tashkil topgan. Xozirgi kunda shaharda Qayroqqum gilam kombinati ishlab turibdi. Bu yerda tayyorlangan gilamlar xorijiy mamlakatlarga xam eksport qilinadi. Rayon xo'jaligini rivojlantirishda Qayroqqum GES ining axamiyati kattadir.

Mintaqadagi Isfara shahri o'zining go'zalligi bilan ajralib turadi. Isfara qadimiy shahardir (VIII asr). Shahar atrofida dam olish maskanlari, dala xovlilar ko'p. Isfarada konserva va elektromexanika zavodlari ishlab turibdi.

## JANUBIY SHARQIY TOJIKISTON (TOG'LI BADAXSHON VILOYATI)

Janubiy sharqiy Tojikiston - (Tog'li Badaxshon viloyati) Respublika xududining 44 foizini, axolisining esa atiga 3 foizini tashkil etadi. Mintaqa asosan Sharqi Pomirni o'z ichiga oladi. Bu yerda xilma xil landshaftlar uchraydi.

Tog'li Badaxshon eng baland va aholisi eng kam mintaqalardan biridir. Ko'plab tog' muzliklari Markaziy Osiyoning deyarli barcha daryolarining manbai xisoblanadi. Iqlimi sovuq, keskin - kontinental, respublikadagi eng past havo harorati shu yerda kuzatiladi.

Mintaqa tabiiy resurslarga boy. Bu yerda nodir va qimmatbaho metallar, tog' xrustali, ko'mir, asbest, slyuda kabi ko'plab mineral resurslar topilgan. Buyerda 50 dan ortiq mineral shifobaxsh buloqlar mavjud. Tog'lardan ko'plab qimmatbaxo toshlar olinadi. Ularni qayta ishslash uchun Dushanbe zargarlik zavodlariga olib ketiladi.

Mintaqa gidroenergetika resurslariga ham boy. Lekin iqlimining sovuqligi, transport noqulayligi tufayli ulardan to'liq foydalanimaydi.

Bu yer tog'li o'lka bo'lganligi sababli faqat avtomobil transporti yaxshi rivojlangan. O'sh - Xorug' avtomobil trakti tog'li Badaxshonni Qirg'iz Respublikasi bilan bog'laydi.


Iqlimining sovuqligi, tog'li o'lka bo'lganligi uchun uning iqtisodiyotida ko'proq qishloq xo'jaligi rivojlanishga imkon beradi. Qishloq xo'jaligida yetakchi tarmoq chorvachilik xisoblanadi. U jami qishloq xo'jaligi mahsulotining 70 % ni tashkil etadi. Iqtisodiy rayon uchun tog' yaylov chorvachiligi xos bo'lib, asosan qo'toslar boqiladi. Uning g'arbida uncha katta bo'lмаган hududlarda dehqonchilik bilan shug'ullanishadi. Asosan bug'doy, tariq, no'xat yetishtiriladi. Kartoshka yetishtirish va tamakichilik ham muhim ahamiyatga ega. Aholisining ko'pchiligi Pomir Tojiklari va qirg'izlaridir. Mintaqa ma'muriy va sanoat markazi Xorug' shahri bo'lib, u G'unt daryosi vodiysida joylashgan Shaharda non zavodi, sut - go'sht kombinatlari, tikuvchilik fabrikasi, temir - beton konstruktsiya zavodi va boshqa korxonalar ishlab turibdi.

Xorug' baland tog'da joylashgan botanika bog'i bilan ham mashhur. Bu bog'ga MDU professori I.V.Shukin asos solgan. Bog'da Yevropa, Afrika, Avstraliya, Amerikadan keltirilib iqlimga moslashtirilgan buta va daraxtlar o'stiriladi.


#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Tojikiston tabiiy sharoitining o'ziga xos xususiyati nimada?
2. Respublika ho'jaligida yetakchi tarmoqni ayting.
3. Mamlakat gidroenergetika resurslariga ta'rif bering.
4. Respublika aholisi tabiiy o'sishining harakterli xususiyatlari nimada?
5. Sharqiy Pomirda qishloq xo'jaligining qaysi tarmog'i ustuvor rivojlangan?

## **11. TURKMANISTON RESPUBLIKASI**



**Turkmaniston respublikasining bayrog'i va gerbi**



**Turkmaniston respublikasining kosmik surati va xaritasi**

## Turkmanistonning ma'muriy bo'linishi



### 11.1 TURKMANISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI, GEOGRAFIK O'RNI, TABIIY SHAROITI VA BOYLIKHLARI

Turkmaniston Markaziy Osiyo davlatlarining janubi g'arbiy qismida, Kaspiy dengizi va Amudaryo orasida joylashgan. 27 oktyabr 1991 yil Turkmaniston mustaqil, suveren davlat deb e'lon qilingan kun. Uning maydoni 488 100 km kvadrat bo'lib Markaziy Osiyo davlatlarining 12,2 foizini tashkil etadi. MDH davlatlari orasida hududiga ko'ra to'rtinchi (Rossiya, Qozog'iston, Ukrainadan so'ng) o'rinda turadi. Markaziy Osiyoda esa ikkinchi (Qozog'istondan keyin) o'rinda turadi. G'arbdan sharqqa 1100 km va shimoldan janubgacha 650 km ga cho'zilgan. Chegaralarining uzunligi 3736 km, shundan O'zbekiston bilan 1621 km, Eron bilan 992 km, Afg'oniston bilan 744 km va Qozog'iston bilan 379 km. G'arbdan Turkmanistonni Kaspiy dengizi yuvib turadi. 1768 km uzunlikdagi qirg'oq zaif chuqurchaga ega, yirik ko'llar Qora-Bog'az-Gol, Turkmanboshi (kichik Balxan ko'rfa zida) va Turkman ko'rfa zida ajralib turadi.

Ko'llar Krasnovodskiy va Cheleken yarim orollari tomonidan hosil qilingan. Aholisi 6 297 607 kishi (2023) poytaxti Ashxobot shahri. Aholisi zichligi 1km kvadratga 12,9 kishi to'g'ri keladi. (Markaziy Osiyo aholisining 8,1 % yashaydi).

Respublika industrial-agrar mamlakat bo'lib iqtisodiyotining asosini sanoat tashkil etadi. Xalqaro mehnat taqsimotida neft-gaz qazib chiqarish, hamda paxta yetishtirish bilan ishtirok etadi. Turkmaniston chetga ko'proq neft va neft mahsulotlari, natriy-sulfat, elektroenergiya, sement xom ashyosi, paxta yog'i, poliz ekinlari, qorako'l terisi eksport qiladi. Bundan tashqari Turkmanistonda neft sanoati uchun mashina va uskunalar ham chetga sotiladi.

Turkmanistonning tabiiy sharoiti va yer usti tuzilishi juda xilma-xildir. Bu yerning relefida past tekisliklar, cho'kmalar, yirik cho'llar, tog' oralig'i botiqlari, balandligi 3 000 metrga yetadigan tog'lar uchraydi. Hududining 80 foizini Qoraqum cho'llari egallagan bo'lib, cho'l shimoldan janubga 450 kmga, g'arbdan sharqqa esa 880 km masofaga cho'zilgan. Tog'li mintaqalar esa Respublikaning janubiy va janubiy-sharqiy qismlarida joylashgan bo'lib, 8 foizga yaqin hududini egallaydi (Turkman-Xuroson tog' tizmasi).

Tog' oralig'i botiqlari, tog' oldi, daryo vodiylari, vohalar esa Respublika hududining 12 foizini tashkil etadi. Bundan ko'rinish turibdiki Respublikaning katta hududi tekisliklardan iborat bo'lib, sharqdan g'arbg'a (Kaspiy bo'y) tomon pasayib boradi. Tekislikning katta qismi dengiz sathidan 0-200 metrgacha bo'lib, Kaspiy bo'y past tekisligi va Sariqqamish ko'li dengiz sathidan past joylashgan. Eng past nuqtasi Oqjaksoy bo'lib -81 metrni tashkil etadi.

Respublikaning iqlimi kontinental quruq iqlimdir. Qishi iliq, yozi issiq va quruq bo'ladi. Iqlimning issiqligi subtropik ekinlar yetishtirish imkonini beradi. Yog'in miqdorining kamligi tog'larda kam qor tushishiga olib keladi. Shu sababli daryolari kichik va kam suvlidir. Turkmaniston hududining 80 foizida

doimiy oqar suvlar yo'q. Daryolar asosan janubiy va sharqiy hududlardagini mavjud. Eng yirik daryosi Amudaryo bo'lib, u respublikaning sharqiy qismidan oqib o'tadi. Kichik daryolardan Murg'ob va Tajan, Atrek va boshqalar bor. Murg'ob va Tajan daryolari suvi to'lig'icha sug'orishga sarf bo'ladi. Atrek daryosi esa o'z suvini Kaspiy dengiziga quyadi. Yaylov chorvachiligidagi yer osti suvlari katta ahamiyatga ega. Ko'llarning aksaryati sho'r ko'llardir.

Respublika iqtisodiyoti rivojlanishiga Qoraqum kanali katta ta'sir ko'rsatgan.

Turkmaniston Respublikasining mineral xom ashyolarga boyligi xo'jaligini kompleks rivojlanishiga imkon beradi. Respublika hududidan tabiiy gaz, neft, ozokerit, oxaktosh, gips, granit, mirobilit (glauber tuzi), g'isht va sement xom-ashyolari kabi turli foydali qazilmalar topilgan.

Respublika ayniqsa yoqilg'i energetika resurslariga boy. Mamlakat gaz qazib chiqarish bo'yicha MDH davlatlari orasiada ikkinchi o'rinda turadi (Rossiyadan keyin). Respublikada 7 ta neft-gaz mintaqasi ajratilgan: G'arbiy Turkmaniston, Markaziy Qoraqum, Beurde Xiva, Chorjo'y, Orqaunguz, Murg'ob, Badxiz-Qorabel.

G'arbiy Turkmaniston neft-gaz mintaqasi - G'arbiy Turkmaniston past tekisligida joylashgan. Yirik neft-gaz konlari Cheleken, Qoturtepa, Nebitdog', Qumdog', Qizilqum, Erdekli, Okarem, Keymir va boshqalar.

Markaziy - Qoraqum gaz mintaqasi - Darvoza, Zeagli, Koyun, Midar kabi gaz konlari joylashgan. Bu mintaqada gaz qazib olish tannarxi qimmat bo'lganligi sababli to'liq foydalanimaydi.

Beurda - Xiva gaz mintaqasi 3 ta rayonga ajratiladi: Noip, G'ishtli, Beurda. Eng yirik gaz konlari Achak, Naip, G'ishtli, Shimoliy va Janubiy Naip va boshqalar.

Chorjo'y gaz mintaqasidagi eng asosiy gaz konlari Gugurtli, Shimoliy Gugurtli, Saker, Somontepa, Farob, Narazim kabilardir.

Murg'ob gaz mintaqasida esa Shatliq, Dauletobod, Donmez, Bayramali, Kelif, Sharopl, Tedjen, Seyrob va boshqalar.

Badxiz - Qorabel gaz mintaqasida Qorabel, Islim, Karagop kabi gaz konlari topilgan.

Bundan tashqari respublika hududida ko'mir konlari ham topilgan. Ulardan asosiyлари Tuarqir qo'ng'ir ko'mir, Yagmon va Ko'xitang toshko'mir konlari bo'lib, mahsulotning tannarxi qimmat bo'lganligi sababli qo'mir qazib olinmaydi.

Respublikada temir rudalari kam, faqatgina Ko'xitang tog'larida rux va qo'rg'oshin konlari topilgan. Shuningdek g'arbiy Kopetdog'da ham rangli metallar topilgan, lekin bularning sanoatda ahamiyati kam.

Hozirgi kunda mamlakatning yirik Oltingugurt koni Gourdog hisoblanadi. Gourdog oltingugurti Chorjo'y superfosfat zavodining asosiy xom ashyosi hisoblanadi.

Respublikaning Qora-bo'g'oz-kol qo'ltig'i yirik mineral tuzlar markazi hisoblanadi. Bu yerdan ko'plab miqdorda mineral tuzlar qazib olinadi.

Turkmaniston qurilish xom ashyolarga boy. Yirik sement xom ashyolari Baxardin, Katta Bolxan, Bezmeinda joylashgan. (Bezmeinda sement zavodi). Shuningdek mintaqada ko'plab kvartsli qumlar tarqalgan. Bular oyna sanoatining asosini tashkil etadi.

Respublika yer resurslariga boy. Lekin suv resurslarining yetishmasligi ulardan foydalanishni qiyinlashtiradi. Yer fondi 49 mln.ga atrofida bo'lib, shundan 6-7 mln ga sida sug'orib dehqonchilik qilish mumkin. Hozirgi kunda esa 1 mln ga yer sug'oriladi xolos.

Mintaqa refezi asosan tekislik bo'lganligi sababli sanoat korxonalari qurilishi uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. Cho'llardan chorvachilikda yaylov sifatida foydalaniлади.

## 11.2 AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI



Turkmaniston ko'p millatli mamlakatlardan biri bo'lib, bu yerda 80 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qilishadi. Jami aholisi 6 297 607 kishi. Aholisining milliy tarkibida turkmanlar ko'pchiligidagi tashkil etadi. Respublika aholisining 77 foizini turkmanlar, 9,2 foiz o'zbeklar, 6,7 foizi ruslar, qozoqlar 2,0 foiz, tatarlar 1,1 foiz, ukrainlar 1 foiz ni tashkil etadi. Bundan tashqari armanlar, ozarbayjonlar, yevreylar va boshqalar ham istiqomat qilishadi. Respublika aholisining soni Markaziy Osiyo davlatlariga xos bo'lgan tabiiy o'sish hisobiga ortib bormoqda. (tug'ilish 28, o'lim 9. Tabiiy o'sish 19 promilley) Tabiiy o'sish turkmanlar va o'zbeklarda nisbatan yuqori. Boshqa millatlardan bo'lgan yevropa millatiga mansub kishilarda esa tabiiy o'sish deyarli sezilmaydi. Aholining yosh tarkibi 0-14 yoshdagilar 38 foizni, 15-64 yoshdagilar 58 foizni, 65 yoshdan yuqoridagilar esa atigi 4 foizni tashkil etadi.

9-jadval  
Turkmaniston aholisining jinsiy va yosh tarkibi (2020)

Aholining yoshi	Jami (kishi)	%	Erkaklar (kishi)	%	Ayyollar (kishi)	%
0-14 yosh	2 303 975	36,5	1 175 027	50,9	1 128 948	49,1
15-64 yosh	3 751 110	59,5	1 839 630	49,0	1 911 480	51,0
65 va undan katta	242 522	4	94 341	38,9	148 181	61,1
Jami	6 297 607	100	3 108 998	49,4	3 188 609	50,6

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki 0-14 yoshlilar orasida o'g'il bolalar ko'pchilikni tashkil etadi. 15-64 yoshlilar o'rtasida esa ayollar erkaklarga nisbatan 1 foiz ko'proqdir. Shuningdek shu nisbat respublika jami aholisi orasida ham kuzatiladi.

Turkmanlar respublikaning deyarli barcha hududlarida tarqalgan bo'lsa, rus va ukrainlar asosan yirik shaharlarda va sanoat markazlarida, o'zbeklar Chorjo'y va Tashxovuz viloyatlarida, kavkaz millatlari esa ko'proq g'arbiy Turkmanistonda Kaspiy dengiz bo'yida istiqomat qilishadi. Respublika mustaqilikka erishgandan so'ng ko'plab yevropa millatiga mansub kishilar ko'chib ketishdi. Respublika aholisining deyarli 45 foizi shaharlarda yashaydi. Aholi punktlari aholisining soni 5000 dan ko'p bo'lsa va aholisini 2/3 qismi sanoatda, xizmat ko'rsatishda band bo'lsa shahar deb ataladi.

Asosiy shaharlari Ashgabat, Turkmanboshi, Tedjen, Mari, Chorjo'y, Tashxovuz, Bayram-Ali va boshqalar. Shahar aholisi soni mexanik o'sish hisobiga (migratsiya) ortib bormoqda. Eng urbanizatsiyalashgan mintqa Turkmanboshi viloyati hisoblanadi. Bu yerda 80 foizdan ko'proq aholi shaharlarda yashaydi.

Shahar aholisi eng kam mintqa shimoliy Turkmaniston bo'lib, bu yerda jami aholining 30 foizi shaharlarda yashaydi.

Keyingi paytlarda sanoatning o'sishi bilan shahar aholisi soni ham ortib bormoqda.

Aholi hududlar bo'yicha juda notekis joylashgan. Ularning asosiy qismi vohalarda: Kopetdog' etaklarida, Chorjo'y, Turkmanboshi temir yo'li bo'yida hamda Murg'ob, Tajan vodiysida, Amudaryoning o'rta va quyi qismida yashashadi.


### 11.3 IQTISODIYOTI

Turkmaniston industrial-agrar respublika. Uning xalq xo'jaligida sanoat yetakchi o'rinda turadi. Respublikada yangi sanoat tarmoqlari – neftni qayta ishlash, gaz, kimyo, mashinasozlik bilan bir qatorda eski sanoat tarmoqlari neft qazib olish, metallsozlik, paxta tozalash va boshqalar rivojlangan.

Ayniqsa respublikada yoqilg'i-energetika kompleksi, yengil sanoat, mashinasozlik va agrosanoat komplekslari katta ahamiyatga ega.

Yoqilg'i energetika kompleksi. Respublikaning g'arbiy qismlaridan neft qazib olinadi. Qazib olingan neft quvurlar orqali Turkmanboshiga (sobiq Kransnovodsk) keltiriladi. Keltirilgan neftning bir qismi dengiz yo'li orqali eksportga jo'natsa, bir qismi mahalliy neftni qayta ishlash zavodlarida qayta ishlanadi.

Zavoddan chiqqan mazut va yo'l dosh gaz IESlarda yoqilg'i sifatida ishlatiladi. Neft maxsulotlarining ham bir qismi eksportga ketadi.




**Mariy viloyatidagi neftni qayta ishlash zavodi.**

Respublikaning sharqi qismida Chorjo'y yaqinidagi Seydida 1980 yillarda qurilgan neftni qayta ishlash zavodi ishlab turibdi (sobiq Neftezavodsk).

Gaz deyarli barcha viloyatlar hududida bir necha o'nlab konlardan qazib olinadi (Toshovuzdan tashqari).

Gazning asosiy qismini O'rta Osiyo - Markaz magistral gaz quvurlari orqali eksport qilinadi. Bir qismi esa respublika ehtiyoji uchun ishlatiladi. (IESlarda) Mari shahrida gaz asosida ishlaydigan MARIY GRESi qurilgan.



**Mariy viloyatidagi IES.**

Bundan tashqari shaharda tabiiy gaz asosida azotli o'g'itlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilagan. Respublikada neft va gaz konlari asosida neft gaz-kimyo energiya ishlab chiqarish sikllari shakllangan.

Lekin neft va gazning ko'pchiligi eksportga jo'natilganligi sababli energiya ishlab chiqarish siklining boshlang'ich qismi yaxshi rivojlangan. Bu yerda yuqori texnologiyaga ega bo'lgan plastmassa ishlab chiqarish va polimerlar kimyosi nisbatan kam rivojlangan.

Respublikada kimyoviy xom ashyolar – mirobilit, yo'd, brom, oltingugurt qazib olish, hamda superfosfat zavodi asosida tog' kimyo energiya ishlab chiqarish sikli tashkil topgan. Gaurdak oltingugurti Chorjo'y kimyo kombinatiga keltiriladi va bu yerda superfosfat va oltingugurt kislotasi ishlab chiqariladi. Mintaqadagi Qora-bo'g'ozko'l o'zining kimyoviy xom ashyolarga boyligi bilan ajralib turadi. Shuningdek respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda Cheleken va Nebitdog' kimyo korxonalarini ahamiyati katta.

Turkmaniston Respublikasida metallurgiya sanoati (qora va rangli) kam rivojlangan. Mashinasozlik sanoati korxonalarida neft sanoati uchun (Ashgabotdagi neft mashinasozligi, Mariy mashinasozlik zavodi) hamda oziq-ovqat uchun mashina va dastgohlarni ishlab chiqariladi.

Bundan tashqari elektrotexnika mashinasozligi (Ashgabot), maishiy xizmat ko'rsatish mashinasozligi (gaz plitalari ishlab chiqarish), kemasozlik zavodi (Chorjo'y), metalni qayta ishslash, hamda qishloq xo'jalik texnikalariga xizmat ko'rsatish korxonalarini ishlab turibdi.

Respublikada qurilish materiallari sanoati ham mahalliy qurilish xom ashyolari asosida rivojlanib bormoqda. Ayniqsa sement xom ashyolari, gips, ohaktosh kabi qurilish xom ashyolari ko'plab topilgan.

Mamlakatdagi yirik sement xom ashyolari Kopetdog' etaklarida, katta Balxan va Nebitdog'da topilgan.

Bezmein sement xom ashyosi asosida Markaziy Osiyodagi yirik sement zavodi ishga tushirilgan.

Mamlakatning asosiy qurilish materiallari sanoati markazlari Ashgabad, Bezmein, Mari, Chorjo'y, Turkmanboshi, Nebitdog' va boshqalardir.

Yengil sanoat respublika iqtisodiyotida yetakchi tarmoqlardan biridir. Yengil sanoatning 2/3 qismini ip-gazlama maxsulotlari tashkil etadi. Respublikada yetishtiriladigan paxtaning deyarli hammasi paxta tozalash zavodlarida qayta ishlanadi.

Respublikada yengil sanoat tarmoqlari - to'qimachilik, tikuvchilik, shoyi to'qish, jun, gilam to'qish, trikotaj, poyabzal va boshqalar yaxshi rivojlangan. Shuningdek qorako'l terisi ishlab chiqarish ham katta ahamiyatga egadir.

Mamlakatda qo'lda gilam to'qish rivojlangan bo'lib, ularning yirik markazlari Ashgabad, Gusan-Kuli, Nebitdog', Baxorden, Qizil-Arvat, Mari, Toshovuz va boshqalardir.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ko'plab iste'mol mahsulotlari ishlab chiqariladi. Respublikada sabzavot, meva, go'sht-sut, baliq konservalari ishlab chiqarish yashxi yo'lga qo'yilgan. Mamlakatda paxta yog'i ishlab chiqarish Chorjo'y, Doshhovuz, Bayram-Ali shaharlarida rivojlangan. Ashgabad, Mari, Chorjo'y, Turkmanboshi kabi shaharlarda yirik go'sht kombinatlari ishlab turibdi.

#### 11.4 QISHLOQ HO'JALIGI

Turkmaniston qishloq ho'jaligida sug'orib dehqonchilik qilish bilan bir qatorda cho'l-yaylov chorvachiligi rivojlangan.

Paxtachilik dehqonchilik ekinlarining asosini tashkil etadi. Respublikada 1 mln ga sug'oriladigan yer bo'lib, asosan Qoraqum kanali bo'ylariga to'g'ri keladi. Bu yerda respublikada yetishtiriladigan paxtaning 50 foizi, ingichka tolali paxtaning deyarli 100 foizi tayyorlanadi. Mari, Chorjo'y, Doshhovuz



viloyatlarining ko'pchilik maydonlariga paxta ekiladi. So'nggi yillarda respublikada don, meva va uzum yetishtirish ham ortib bormoqda.

Respublikada chorvachilik ham yaxshi rivojlangan. Unda yetakchi tarmoq qo'ychilik bo'lib, asosan qorako'l qo'ylari boqiladi. Respublikaning cho'l mintaqalari qo'y boqiladigan yaylovlar hisoblanadi. Shuningdek respublikada qoramolchilik, tuyachilik, yilqichilik (Axaltekin zotli) ham muhim chorvachilik tarmoqlaridir. Qoramolchilik respublikada go'sht-sut yetishtirishga ixtisoslashgan.


Cho'l mintaqasining tipik chorvachiligi - tuyachilikdir. Tuyalar go'shti, terisi va transport vositasi maqsadida foydalanish uchun boqiladi. Ayniqsa Turkmanboshi va Ashgabod viloyatlariga tuyaning ko'pchiligi (50%) to'g'ri keladi.

Yilqichilik ham tuyachilik kabi, go'shti, suti va transport vazifasida foydalanish uchun boqiladi. Respublikada Axaltekin, Iomud kabi zotdor otlar boqiladi. Bu otlar chet ellarda ham ancha mashhur. Axaltekin otlari qo'proq Mari va Ashgabat viloyatlarida boqiladi. Bu otlar juda chopqir bo'lib, qurg'oqchil mintaqalarga chidamlidir.

Iomud zotdor otlari esa ko'proq yuk tashishda foydalaniladi. Ular asosan Turkmanboshi hamda Doshhovuz viloyatlarida boqiladi.



**Axaltekin zotdor otlari**



**Iomud zotdor ot**

Bundan tashqari respublikada asalarichilik hamda pillachilik ham muhim ahamiyatga egadir.

## 11.5 TRANSPORTI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI

Respublikada deyarli barcha transport turlari mavjud. Mamlakat maydonining 4/5 qismi cho'llar bo'lganligi sababli, bu yerlarda transport xizmatini yo'lga qo'yish ancha qiyin.

Respublikada tashqi iqtisodiy aloqalarini temir yo'l, avtomobil, suv va havo transportlari orqali olib borilsa, ichki hududlararo aloqalar aloqalarini temir yo'l, avtomobil, suv va havo transportlari orqali olib boriladi.

Respublika transportlari orasida temir yo'l transporti yetakchi o'rinda turadi. Uning hissasiga yuk tashishning  $\frac{3}{4}$  qismi, yo'lovchi tashishning esa  $\frac{1}{4}$  qismi to'g'ri keladi. Dastlabki temir yo'l Kaspiy orti temir yo'l bo'lib 1880-1886 yillarda qurilgan.

Bundan tashqari Mari-Kushka, Kogon-Kerkkichi-Termmez, Toshkent-Turkmanboshi, Chorjo'y-Doshhovuz-Qo'ng'irot-Beynov kabi yo'llar qurilagan. Markaziy Osiyo respublikalari mustaqil bo'lganlaridan so'ng Seraxs-Mashhad (Eron) temir yo'l ishga tushirildi.

Hududlararo aloqalarni olib borishda avtomobil transporti yetakchilik qiladi. Avtomobil yo'llarning uzunligi 13 000 kmdan ortadi. Asosiy avtomagistrallar Turkmanboshi-Qizil, Arvat-Ashgabad-Mari-Chorjo'y, Mari-Iolatan-Kushka, Chorjo'y-Darg'onota-Urganch-Toshhovuz, Nebitdog'-Cheleken-Ashgabad-Boxorden-Erbent va boshqalardir.

Kaspiy dengizida suv transporti rivojlangan. Yirik portlari Turkmanboshi, Bekdash, Alacha. Turkmanboshidan Bakugacha parom yo'l o'tkazilgan.

Suv yo'llari orqali paxta tolasi, qurilish materiallari, neft maxsulotlari va boshqalar tashiladi. Amudaryoda daryo kemachiligi rivojlangan. Asosiy daryo portlari Chorjo'y, Kerki, Kelif.


Havo transporti respublikani xorijiy va MDH davlatlari bilan bog'laydi. Havo orqali asosan yo'lovchilar, tez buziladigan

oziq-ovqat maxsulotlari va qimmatbaho yuklar tashiladi.

Respublika iqtisodiyotining rivojlanishida quvur transportining ahamiyati katta. Quvur transporti neft, gaz va ichimlik suvi tashishda ancha qulay hisoblanadi.

Respublikada dastlabki neft quvuri 1946 yilda ishga tushgan bo'lib, u Qumdog'dan-Vishkagacha tortilgan (40 km). Keyinchalik Vishka-Turkmanboshi, Qoturtepa-Belek-Turkmanboshi, Qoturtepa-Cheleken va boshqalar ishga tushirildi. Dastlabki gaz quvuri 1952 yildi Vishkadan Nebit-Dog'ga tortilgan. Bundan tashqari Qumdog'-Nebit-Dog', Qoturtepa-Belak-Turkmanboshi, Qoturtepa-Belek-Turkmanboshi-Bekdosh-Yangi Uzen gaz quvurlari ishga tushirildi. Ayniqsa Maysk-Ashgabad-Bezmein (396 km uzunligi) gaz quvuri respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Respublikada gaz quvurlari uzunligi yildan yilga ortib bormoqda.

## 11.6 TURKMENISTONNING IQTISODIY RAYONLARI



1. Markaziy

2. G'arbiy

3. Shimoliy

#### 4. Sharqiy

##### 5. Janubi-Sharqiy

Turkmaniston Respublikasida 5 ta iqtisodiy rayon ajratiladi. Bular Markaziy, G'arbiy, Janubiy-Sharqiy, Sharqiy va Shimoliy iqtisodiy rayonlardir. Barcha iqtisodiy rayonlar aholisining joylashishi, sug'oriladigan yerlari va sanoat korxonalari, yoki cho'llardan iboratliligi bilan bir-biridan farq qiladi.

#### **MARKAZIY IQTISODIY RAYON (ASHGOBOD VILOYATI)**

Markaziy iqtisodiy rayon (Ashgobod viloyati) respublikaning janubiy qismida joylashgan. U respublika hududining 19,6 foizni, aholisining esa 25 foizini tashkil etadi.

Mintaqa hududida Kopetdog' tog'i va tog' oralig'i vodiylari hamda Markaziy Qoraqum cho'lining bir qismi joylashgan. Respublika aholisining asosiy qismi shu yerda bo'lib, aholi zichligi eng yuqori, ya'ni 1km kvadratga 10 kishi to'g'ri keladi. Aholisining 3/5 qismi shaharlarda yashaydi.

Iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan mintaqa bo'lib, bu yerda zamonaviy mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat, qurilish materiallari va boshqa ko'plab korxonalar ishlab turibdi. Mintaqada respublika sanoat mahsulotining 25 foizi tayyorlanadi. Ayniqsa gilam to'qish katta ahamiyatga ega.

Markaziy iqtisodiy rayon ingichka tolali paxta yetishtirish bo'yicha Janubiy-Sharqiy iqtisodiy rayondan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi maxsulotlaridan sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzum yetishtirish, chorvachilikda esa qo'ychilik (qorako'lchilik), hamda yirik shoxli qoramollar boqish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Mintaqaga respublikaning 23 foiz ekin maydoni to'g'ri keladi. Bu yerda Turkmanistonning 35 foiz bug'doyi, 11 foiz paxtasi, 60 foiz sabzavot ekinlari va boshqalar yetishtiriladi.

Mintaqa iqtisodiyotining rivojlanishiga Ashgabad temir yo'li katta ta'sir etadi. Temir yo'li bo'ylarida ko'plab aholi

punktlari joylashgan.

Rayonning eng yirik sanoat va madaniyat markazi Ashgabad shahri bo'lib, shahar MDH davlatlarining eng janubida joylashgan. Hozirgi kunda Ashgabad Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlarini tutashtiruvchi muhim transport tuguni hisoblanadi. Shaharda yengil va oziq-ovqat sanoati, mashinasozlik, elektrotexnika, metallsozlik va boshqa sanoat korxonalari ishlab turibdi.

Ashgabad yaqinida Bezmein shahri joylashgan. Bu shaharda og'ir sanoat tarmoqlaridan sement va boshqa qurilish materiallari, elektroenergetika kabilar rivojlangan. Oziq-ovqat sanoati tarmoqlaridan vino ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Tedjen - mintaqadagi yirik shaharlardan biridir. Shaharda gilam to'qish, g'isht zavodi, elektrostansiyalar va boshqa sanoat korxonalari ishga tushirilgan. Ayniqsa gilam to'qish qadimgi tarmoqlardan biridir. Aholisining asosiy qismi turkmanlar. Bularidan tashqari ruslar, qozoqlar, arman, ukrain va boshqalar istiqomat qilishadi.

Iqtisodiy rayonning Kopetdog' etaklarida go'zal va xushmanzara dam olish maskanlari joylashgan (Feruza). Qoraqum kanali asosida paxtachilik, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik rivojlangan. Cho'l yaylovlarida esa qo'ychilik bilan shug'ullanishadi.

#### **G'ARBIY TURKMANISTON (TURKMENBOSHI VILOYATI)**

G'arbiy Turkmaniston (Turkmenboshi viloyati) – respublikaning katta hududini, ya'ni 28,5 foizini aholisining esa 11 foizini tashkil etadi.

Iqtisodiy rayon Kaspiy dengiz bo'yidan tortib sharqda Kopetdog' etaklari va g'arbiy Qoraqumgacha cho'zilgan. Bu Turkmanistonning eng issiq mintaqalaridan biridir.

Hududda oqar suvlar deyarli yo'q. Shuning uchun aholining soni kam. Lekin sanoat rivojlanganligi sababli aholisining asosiy qismi 4/5 shaharlarda istiqomat qiladi. Bu mamlakatning eng

urbanizatsiyalashgan mintaqasidir.

Aholining milliy tarkibida yevropa millatiga mansub kishilar (ruslar, ukrainlar, yevreylar, armanlar, ozarbayjonlar va boshqalar) ko'pchilikni tashkil etadi.

G'arbiy Turkmaniston boshqa rayonlardan tabiiy resurslarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Respublikadagi asosiy neft konlari shu mintaqaga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, Turkmanboshidan shimolda yirik osh tuzi koni, Qorabo'g'ozko'lda glouber tuzi, Chelekenda ozokerit konlari topilgan. Iqtisodiy rayonda sement xom ashyolari, ohaktosh kabi qurilish materiallari ham ko'p.

Mintaqada neft va kimyo sanoati, elektroenergetika, qurilish materiallari sanoati yaxshi rivojlangan. Xo'jaligining rivojlanishida Kaspiy dengizidagi baliqchilik katta ahamiyatga ega. Turkmanboshi porti Markaziy OSIYO davlatlari va Kavkaz orti mamlakatlari orasidagi darvoza hisoblanadi.

Suvning yo'qligi sababli qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlanmagan. Ayniqsa dehqonchilik. Chorvachilikda qo'ychilik hamda tuyachilik yetakchi tarmoqlardandir.

Mintaqaning asosiy shaharlari Turkmanboshi, Nebitdog', Cheleken, Qizil-Arvat, Qozonjiq va boshqalar. Shaharlarning ko'pchiligi temir yo'llar yonida yoki dengiz bo'yida lenta simon joylashgan.

Turkmanboshi (sobiq Krasnovodsk) g'arbiy mintaqaning eng qadimgi shaharlardan biri bo'lib, 1869 yilda harbiy qal'a sifatida tashkil topgan. Turkmanboshi Kaspiy dengizining sharqiy sohilidagi yirik port shahri bo'lib, neftni qayta ishslash va baliqni qayta ishslash sanoatlari yaxshi rivojlangan. Bu yerdagi neft quvurlari orqali Nebitdog' va boshqa konlardan neft keltiriladi.

Turkmanboshidan janubiy sharqda Katta Balxan etaklarida Nebitdog' shahri joylashgan. Nebitdog' Turkmanistonning neft va gaz qazib olish markazi hisoblanadi. Shaharda oziq-ovqat sanoati, uysozlik kombinasi, yo'd zavodi kabi korxonalar ishga

tushirilgan. Ayollar gilam to'qish ishlarida band.

Iqtisodiy rayonning muhim shaharlardan yana biri Chelekendir. Cheleken o'zining kimyoviy xom ashyolari bilan mashhur. Chelekendan ko'plab miqdorda ozokerit, mirobilit kabi xom ashyolar olib ketiladi. Bu yerda kimyo zavodi mavjud.

Shu bilan birga Cheleken yarim orolida sog'lomlashtirish maskanlari uchun imkoniyatlar katta. Rayon aholisi mineral suvlardan revmatizm, teri va boshqa kasallikkarni davolashda foydalanishadi.

Qorabo'g'ozko'l ham o'zining kimyoviy xom ashyolarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu yerdan ko'plab miqdorda glauber tuzi, mirobolit, natriy, magniy, brom, yo'd va boshqa mineral tuzlari qazib olinadi. Xom ashyolarni qayta ishslash maqsadida "Qora-bo'g'oz-sulfit" kombinati ishlab turibdi.

## JANUBIY SHARQIY RAYON

Janubiy-Sharqiy Turkmaniston (Mari viloyati) – Respublikaning 18 foizga yaqin hududini, 23 foiz aholisini tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km<sup>2</sup>ga 9 kishi to'g'ri keladi. Urbanizatsiya darajasi nisbatan past bo'lib, 33 foizni tashkil qiladi.

Mintaqaning iqlim sharoiti qulay bo'lib, vegetatsiya davridagi sutkalik harorat +10 S dan yuqori bo'lib 240-250 kun quyoshli bo'ladi. Qoraqum kanalining o'tishi mintaqqa iqlimining va xo'jaligining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatdi.

Janubiy sharqiy iqtisodiy rayonga respublikaning 40 foiz ekinmaydoni to'g'rikeladi. Sug'oriladigan yerdalarda ingichkatolali paxta yetishtiriladi. Shuningdek bog'dorchilik, sabzavotchilik, pillachilik, shahar atroflarida esa sut chorvachiligi rivojlangan (mintaqa sug'oriladigan yerlarida respublikaning 1/3 qism yirik shoxli qoramollar boqiladi). Cho'llardan yaylov sifatida foydalaniladi. Bu yerda respublikada boqiladigan Qorako'l qo'ylarining 60 foizi to'plangan.

Janubiy sharqiy iqtisodiy rayon respublikaning 35 foiz

paxtasini, 60 foizga yaqin qorako'lini, 55 foiz o'simlik yog'ini, 25 foiz atrofida pillsasini va boshqa mahsulotlarni yetkazib beradi. Iqtisodiy rayonda zotdor Axaltekin otlari boqiladi.

Iqtisodiy rayon xo'jaligi dastlabki vaqtarda qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlashga moslashgan edi. Hozirgi kunda yirik gaz konlarining topilishi (Sharapli, Qora-Chop, Shatlik) xo'jaligining rivojlanishiga imkon beradi.

Asosiy sanoat markazlari Mari, Bayram-Ali shaxarlaridir. Mari shahri - Mari viloyatinig ma'muriy markazidir. Bu shahar Murg'ob-Tajan vohasining eng yirik sanoat va transport markazi. Ayniqsa shaharda yengil sanoat yaxshi rivojlangan. Bu yerda to'qimachilik, jun yuvish, paxta tozalash, teri zavodi kabi og'ir sanoat tarmoqlari ham rivojlangan. Shaharda mahalliy tabiiy gaz asosida ishlaydigan eng yirik GRES ishga tushirilgan.

Marining janubi shargida Bayram-Ali shahri joylashgan. Bu shahar Murg'ob deltasida, qulay tabiiy sharoitli bo'lib, o'zining sanatoriyalari bilan mashhur. Bu yerda MDH davlatlaridan kelgan dam oluvchi va davolanuvchilar ham ko'pchilikni tashkil etadi.

Shaharda paxta tozalash va yog' ekstraksiya zavodi joylashgan. Shuningdek mintaqada Ioloton, Tedjen, Kushka kabi boshqa sanoat markazlari ham bor.

### **SHARQIY IQTISODIY RAYON (CHORJO'Y VILOYATI)**

Sharqiy iqtisodiy rayon (Chorjo'y viloyati) respublika hududining 20 foizga yaqinini, aholisining esa 21 foizini tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km kvadratga 8 kishi to'g'ri keladi. Aholisining 50 foizga yaqini shaharlarda, mintaqaning bevosita 2/3 qismi aholisi Chorjo'y va Kerkida yashaydi. Iqtisodiy rayon Amudaryoning har ikki sohilida joylashagan. Chorjo'y viloyatida ham sug'orib dehqonchilik qilish ustun turadi. Sug'oriladigan yerdarda paxtachilik rivojlangan. Shuningdek qorako'lchilik va pillachilik ham yetakchi tarmoqlardir. Mintaqaga respublikada yetishtiriladigan paxtaning  $\frac{1}{4}$  qismini, tayyorlanadigan

shoyining esa 95 foizdan ko'pini tashkil etadi.

Qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlash sanoati bilan birga, metallsozlik va tog'-kon sanoati rivojlangan. Iqtisodiy rayonning janubidagi tog'larda turli foydali qazilmalar, mineral tuzlar, qurilish materiallari, mis, ruh, oltingugurt va boshqalar topilgan. Mintaqadan respublikaning deyarli 60 foiz gazi qazib olinadi. Ayniqsa bu yerda mineral o'g'itlar va oltingugurt ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Oltingugurt Gaurdak konidan qazib olinadi. Oltingugurt va boshqa mineral tuzlar asosida Gaurdak tog'-kimyo sanoati rivojlangan.

Ko'xitangdan uncha uzoq bo'limgan masofadan rux qazib chiqarish yo'lga qo'yilgan. Uning atrofida esa neft va gaz konlari topilgan. Bular asosida cho'lda kimyo sanoati markazi - Neftezavodsk (Seydi) shahri tashkil topgan. Mintaqada hududida MDHdagi yirik Korlyuk va Karabil kabi kaliy tuzlari konlari topilgan.

Mintaqada boshqa iqtisodiy rayonlarga nisbatan suv bilan yaxshi ta'minlangan. Bu kam suvli respublika uchun kamdan-kam uchraydigan xodisadir.

Amudaryo bo'ylarida Qizilmiya o'simligi o'sadi. Bu o'simliklardan dori-darmon ishlab chiqarishda, salqin ichimliklar, sigareta, kosmetika kabi ko'plab mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalilanildi. Bu o'simlikga jahon bozorida ham talab kattadir.

Chorjo'y - sharqiy iqtisodiy rayonning eng yirik shahri bo'lib, respublikada aholi soni bo'yicha Ashgabaddan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Shahar daryo va temir yo'l bo'yida joylashgan bo'lib muhim transport tugunini hosil etadi. Qadimda Chorjo'y Buxoro amirligining muhim qal'alaridan biri bo'lgan.

Hozirgi kunda shahar yirik sanoati rivojlangan markazdir. Ayrim sanoat korxonalarini (paxta) qayta ishlashga ixtisoslashgan. Bular paxta tozalash, trikotaj, to'qimachilik fabrikalaridir. Shuningdek pillakashlik fabrikasi, qorako'l

terilari ishlab chiqarish zavodi ham muhim ahamiyatga ega.

Chorjo'y shahri temir yo'l va daryo yo'li bo'yida joylashganligi sababli neftni qayta ishslash, kemasozlik, avtoremont, ekskovator remonti zavodi kabilar ishlab turibdi. Kimyo sanoatida yirik superfosfat zavodi alohida o'rinda turadi.

Chorjo'y shahri daryo bo'y lab cho'zilgan, o'simlikka boy go'zal manzarali shahardir. Shaharda bir qancha o'quv yurtlari, muzei va boshqa madaniyat tashkilotlari (maskanlari) mavjud.

### SHIMOLIY IQTISODIY RAYON

Shimoliy iqtisodiy rayon Doshhovuz viloyatidan iborat. Iqtisodiy rayon respublika hududining 13 foizini, aholisining esa 20 foizini tashkil etadi.

Aholi zichligi 1km kvadratga 9 kishi to'g'ri keladi. Rayon respublikaning shimoliy qismida Amudaryo deltasida, Sariqqamish ko'li va shimoliy Qoraqum cho'lining bir qismida joylashgan. Doshhovuz respublikadagi qadimgi sug'oriladigan mintaqadir. Hozirgi kunda bu yerda paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik rivojlangan maydonlar ko'p. Bog'dorchilik ayniqsa poliz ekinlaridan sershira qovunlari jaxonga mashhur. Mintaqayirik qishloq xo'jalik rayoni bo'lib, sug'orib dehqonchilik qilishga ixtisoslashgan. Mintaqahududidan ko'plab sug'oruv kanallari o'tgan (Tosh-soqa, Qilich-Niyozboy, Qipchoq-Bozsu va boshqalar).

Iqlimi nisbatan quruq, qishi sovuq, yozi qisqa, lekin bu yerda o'rta pishar paxta yetishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Shimoliy iqtisodiy rayon respublikaning 1/5 foiz ekin ekiladigan maydonini, jumladan  $\frac{1}{4}$  foiz paxta maydonini tashkil etadi. Mintaqasholi, olxo'ri, kanop yetishtirish bo'yicha respublikada birinchi, paxta, kunjut yetishtirish bo'yicha esa ikkinchi o'rinda turadi. Shuningdek bu yerda makkajo'xori va uzum yetishtiraladi.

Bu yerda respublikaning 20 foiz pillasi tayyorlanadi. Shimoliy mintaqada so'nggi yillarda chorvachilik, ayniqsa

qo'ychilik rivojlanib bormoqda. Qo'ylar asosan Sariqqamish ko'li atrofida boqiladi. Mintaqaning iqtisodiy va madaniy markazi Doshhovuz shahri bo'lib, Amudaryoning quyi qismida, temir yo'l yoqasida joylashgan. Shahar XIX asrlarda Xiva xonligi qal'asi sifatida tashkil topgan. Aholisi asosan o'zbeklardan iborat.

Sobiq sovetlar davrida Doshhovuz yirik sanoat va transport markazi sifatida rivojlandi. Chorjo'y-Qo'ng'irot-Beynov temir yo'lining qurilishi shaharning iqtisodiy aloqalarini kuchaytirdi. Shaharni Shovot magistral kanali ikki qismiga: eski va yangi shaharga bo'lib turadi. Shaharda bir qancha sanoat korxonalari: paxta tozalash, yog'-moy, non, avtoremont, qishloq xo'jalik mashinalari remonti zavodi va boshqalar ishga tushirilgan. Shuningdek shaharda milliy hunarmandchilik gilam to'qish va kulolchilik yaxshi rivojlangan.

### Mustahkamlash uchun savollar:

1. Respublika tabiiy sharoitining o'ziga xos xususiyati nimada?
2. Turkmaniston xo'jaligining ixtisoslashgan tarmoqlarini ayting.
3. Aholi joylashishdagi xilma-xillikga qanday omillar ta'sir ko'rsatgan?
4. Respublikaning yirik yengil sanoat va mashinasozlik markazlarini ayting.
5. Respublikaning paxta yetishtirishga ixtisolashgan iqtisodiy rayonlarini ayting.

## **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Ahmedov E.A., Saidaminova Z. O'zbekiston Respublikasi. (qisqacha ma'lumotnoma). T. 1998.
2. Asanov, Safarov, Nabixonov. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. T. 1994.
3. Akromov Z., Soliev A. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. (rus tilidan tarjima) T. 1990.
4. Bakirov N., Isaev A., Osmonov A. Qirg'iziston Respublikasi geografiyasi. Toshkent Universitet. 1999.
5. Boltaev M.J. Ibroimov Sh.I. Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. (O'quv qo'llanma). T. 2021.
6. Yerdavlatov R. Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya Kazaxstana. Alma-Ata, 1998.
7. Nurnazarov M., Abdullaev N., Muxabbatov X. Geografiya Tadzhikistana. Uchebnik dlya VIII-IX klassov. Dushanbe, 1991.
8. Oraev N. Ekonomicheskaya i sotsialnaya geografiya Turkmenistana. Ashgabat, 1984.
9. Ro'ziev A. Markaziy Osiyo davlatlari geografiyasi. Termiz. 2000.
10. Soliev A. va boshqalar (o'quv qo'llanma) Mintaqaviy iqtisodiyot. T. 2003.
11. Porter M. «Mejdunarodnie otnosheniya», 1993.
12. The Global Competitiveness Report 2009-2010 World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2009.
13. The Global Competitiveness Report 2012-2013 World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2013.

## **MUNDARIJA**

KIRISH.....	3
1. MARKAZIY OSIYONING RIVOJLANISH TARIXI.....	4
1.1. TABIIY SHAROITI.....	7
1.2. MARKAZIY OSIYODA BUYUK IPAK YO'LNING AHAMIYATI	9
1.3 TABIIY BOYLIKLARI.....	12
2. MARKAZIY OSIYO AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI.....	14
3. MARKAZIY OSIYO IQTISODIYOTI.....	21
4. MARKAZIY OSIYO SANOATI.....	30
4.1 MARKAZIY OSIYO KIMYO SANOATI.....	36
4.2 MARKAZIY OSIYO METALLURGIYA SANOATI.....	38
4.3 MARKAZIY OSIYO MASHINASOZLIK VA METALLNI QAYTA ISHLASH SANOATI.....	45
5. MARKAZIY OSIYO QISHLOQ XO'JALIGI .....	49
6. MARKAZIY OSIYO TRANSPORTI .....	52
6.1 MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIGA XOS BO'LGAN UMUMIY MUAMMOLAR .....	57
7. MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI TASHQI IQTISODIY ALOQALARI .....	63
8. QOZOG'ISTON RESPUBLIKASI .....	70
8.1 TABIIY SHAROITI VA RESURSLARI .....	74
8.2 AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI .....	78
8.3 SANOATI VA UNING TARKIBIY XUSUSIYATLARI .....	84
8.4 QISHLOQ XO'JALIGI .....	87
8.5 TRANSPORTI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI .....	88
8.6 IQTISODIY RAYONLARI .....	90
8.7 G'ARBIY QOZOG'ISTON .....	93
8.8 SHIMOLIY QOZOG'ISTON .....	96
8.9 MARKAZIY QOZOG'ISTON .....	99
8.10 SHARQIY QOZOG'ISTON .....	101
8.11 JANUBIY QOZOG'ISTON .....	105
9. QIRG'IZ RESPUBLIKASI .....	107
9.1 QIRG'IZ RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI, GEOGRAFIK O'RNI, TABIIY SHAROITI VA BOYLIKLARI.....	108
9.2 AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI.....	111
9.3 IQTISODIYOTI.....	112

9.4 QISHLOQ XO'JALIGI.....	115
9.5 TRANSPORTI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI.....	116
9.6 ICHKI TAFOVUTLARI .....	117
10. TOJIKISTON RESPUBLIKASI .....	124
10.1 TASHKIL TOPISHI, GEOGRAFIK O'RNI, TABIIY SHAROITI VA BOYLIKLARI .....	125
10.2 AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI.....	128
10.3 IQTISODIYOTI .....	133
10.4 QISHLOQ XO'JALIGI .....	135
10.5 TRANSPORTI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI .....	137
10.6 IQTISODIY RAYONLARI .....	138
11. TURKMENISTON RESPUBLIKASI .....	145
11.1 TASHKIL TOPISHI, GEOGRAFIK O'RNI, TABIIY SHAROITI VA BOYLIKLARI .....	146
11.2 AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI .....	150
11.3 IQTISODIYOTI .....	152
11.4 QISHLOQ HO'JALIGI.....	155
11.5 TRANSPORTI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI.....	158
11.6 TURKMENISTONNING IQTISODIY RAYONLARI .....	159
ADABIYOTLAR RO'YXATI .....	168

UZBEKISTON RESPUBLIKASI QOLIV TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
**AXBOROT RESURS MARKAZI**

## GLOSSARY

O'ZBEKCHA	RUSCHA	INGLIZCHA
MARKAZIY OSIYO	SENTRALNAYA AZIYA	CENTRAL ASIA
NEFT	NEFT	OIL
DAVLAT	GOSUDARSTVA	STATE
BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI	ORGANIZATSIIA OB'EDINENNIX NATSIY	UNITED NATIONS
SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI	SHANXAYSAYA ORGANIZATSIIA SOTRUDNICHESTVA	SHANGHAI COOPERATION ORGANIZATION
O'ZBEKİSTON	UZBEKİSTAN	UZBEKİSTAN
TOJIKİSTON	TADJIKİSTAN	TAJIKİSTAN
QOZOĞ'İSTON	KAZAKSTAN	KAZAKHSTAN
QIRG'IZ RESPUBLİKASI	KIRGİZSKAYA RESPUBLİKA	KYRGYZ REPABLIK
TURKMENİSTON	TURKMENİSTAN	TURKMENİSTAN
IQTISODIYOT	EKONOMIKA	ECONOMY
TASHQI IQTISODIY ALOQALAR	VNESHNE- EKONOMICHESKIE OTNOSHENIYA	FOREIGN ECONOMIC RELATIONS
VAUCHER	VAUCHER	VAUCHER
YALPI İCHKI MAXSULOT	VALOVIY VNUTRENNIY PRODUKT	GROSS DOMESTIC PRODUCT
YALPI MILLIY MAXSULOT	VALOVY NATIONALNIY PRODUKT	GROSS NATIONAL PRODUCT
DAROMAD	DOXOD	INCOME
MIGRATSIIA	MIGRATSIIA	MIGRATION
HAMKORLIK	PARTNERSTVO	PARTNERSHIP

**QAYDLAR UCHUN**

TRANS CHEGARA	TRANS GRANITSA	TRANS BORDER
STATISTIKA	STATISTIKA	STATISTICS
HUDUD	TERRITORIYA	TERRITORY
MARKAZ	SENTR	CENTER
MA'MURIY BO'LINISH	ADMINISTRATIVNOE DELENIE	ADMINISTRATIVE DIVISION
MUSTAQIL	NEZAVISIMIY	INDEPENDENT
ERKIN IQTISODIY ZONA	SVOBODNAYA EKONOMICHESKAYA ZONA	FREE ECONOMIC ZONE
MA'MURIY MARKAZ	ADMINISTRATIVNIY SENTR	ADMINISTRATIVE CENTER

**BOLTAYEV M.J.**

# **MARKAZIY OSIYO IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI**

*(DARSLIK)*

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliquziyeva

Musahhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Isxoqov

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.

Bosishga ruxsat etildi 05.06.2024 y.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'oz. "Cambria"

garniturasi. Hisob-nashr tabog'i. 10,875.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 2265223.

«Sarbon LLS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**+998 (94) 673-66-56**

ISBN 978-9910-9027-7-2

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9910-9027-7-2.

9 789910 902772